

ISMATOVA HALOVAT

**UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
(O'QUV QO'LLANMA)
I-qism**

Buxoro -2023

ISMATOVA HALOVAT

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

60530800 - Geografiya (tarmoqlar bo'yicha)

60710400 - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

O'QUV QO'LLANMA

(I-QISM)

Buxoro -2023

Umumiy pedagogika va psixologiya [Matn], o‘quv qo‘llanma (I-qism). –Buxoro 2023

“Umumiy pedagogika va psixologiya”. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma (I-qism). H.B.Ismatov–Toshkent: “Fan va ta’lim” nashriyoti 2023-yil 295 b

Umumiy pedagogika va psixologiya nomli o‘quv qo‘llanma (I-qism) 60530800 - Geografiya (tarmoqlar bo‘yicha) 60710400 - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida modernizatsiya jarayonlari, pedagogika fanining predmeti, tadqiqot metodlari, shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi, ta’lim mazmuni, tashkil etishning shakl, metod vositalari, boshqaruv asoslari, pedagogika tarixi, fanning tarixiy davrlardagi rivojlanish jarayonlari to‘g‘risidagi masalalar yoritilgan.

Uchebnik po obshchey pedagogike i psixologii (Chast I) 60530800 - Geografiya (po otraslyam) 60710400 - Ekologiya i ohrana okrujayushchey sredy (po otraslyam i otraslyam) prednaznachen dlya uchayixsya prednaznachen. V dannom uchebnom posobii sistema obrazovaniya Respubliki Uzbekistan, predmet pedagogiki, metody issledovaniya, razvitie lichnosti, obrazovanie, sodержanie obrazovaniya, formy i metody organizatsii obrazovaniya, upravlenie obrazovaniem, istoriya pedagogiki, etapy razvitiya.

General pedagogy and psychology textbook (Part I) 60530800 - Geography (by branches) 60710400 - Ecology and environmental protection (by branches and branches) is suitable for students intended. In this study guide, the educational system of the Republic of O‘zbekistan, subject of pedagogy, research methods, personal development, education, content of education, forms and methods of educational organization, educational management, history of pedagogy, development steps are described.

**Taqrizchilar: B.J.Umarov, BuxDU dotsent, p.f.d.
A.N.Nusratov, BuxDUPI p.f.f.d.(PhD)**

O‘quv qo‘llanma Buxoro davlat universitetining ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Jahonda ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar, ta'lim tizimida faoliyat yurita oladigan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishlari uchun mutaxassislikda oqsoqlikka duch kelmasliklari uchun yangi avlod darsliklari va qo'llanmalarini yaratish davr talabadir.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilish, barkamol ayolni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra sifatli, yetuk mutaxassis tayyorlash bilan birga ularni xolisona, erkin fikr yuritadigan hamda ona vatanga dildan xizmat qila oladigan barkamol inson bo'lishlari uchun ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, davlat oldida javobgarlikni his qiladigan har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish murabbiylarimizning asosiy burchidir.

Zamonaviy pedagogikada o'quv tarbiya jarayonining subyektiga ko'chiradi va jarayonni hamkorlikda ishlash, imkoniyatlardan oqilona foydalanish, yangiliklarni yaratishga yo'naltiriladi. Shu bois oliy ta'lim tizimida maxsus tahsil olib o'qituvchi murabbiylik mutaxassisligiga tayyorlanayotgan har qanday bo'lajak kasb egasini pedagogikaning ilmiy nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib oliy ta'limning nopedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarga mo'ljallangan o'quv qo'llanma yarashni maqsad qildik, unda ta'lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari, pedagogik faoliyat mazmuni va uni amalga oshirish yo'llari, umumpedagogik bilimlar, pedagogik madaniyat, kasbiy-pedagogik kompetentlik, ilg'or pedagogik texnologiyalardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanishning nazariy va amaliy jihatni yoritishga harakat qildik.

Shunday o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida, ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyatini ham ochib berishga xizmat qilmog'i lozim. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, “O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-

quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani”¹ tahsinga sazovordir. Shunday ekan, oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan mazkur “Umumiy pedagogika va psixologiya” nomli o‘quv qo‘llanma (I-qism) 60530800 - Geografiya (tarmoqlar bo‘yicha) 60710400 - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv reja va o‘quv dasturida ilgari surilgan talablar asosida o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

¹ <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI



**Tayanch
atamalar:**

Ta’lim, tarbiya, qonun, qoida, ta’lim tizimi, talim turi, ta’lim shakli, ta’lim to‘g‘risida, qonun hujjatlari, davlat akkreditatsiyasi, davlat ta’lim muassasasi, davlat ta’lim standartlari, malaka, mutaxassislik, ta’lim kampusi.

1.1 O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar

O‘zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu boradagi say-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O‘zbekistonning ilk “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonun mazmunida Respublika talim tizimi, uning asosiy yo‘nalishlari, maqsad, vazifalari, ta’lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o‘z ifodasini topdi. Biroq, 1997-yilga kelib, O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarning amaliyotga tadbiq muayyan kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi sezildi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o‘rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo‘lmaganligi ma’lum bo‘ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning qudrati fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllantiriladi. Shunday ekan ta’lim tizimini bugungi kunga mos tarzda tashkil etish borasida islohatlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

1.2 O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekistonda ta’limni isloh qilish va boshqarish borasida huquqiy-meyo‘riy hujjatlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda ta’lim to‘g‘risidagi qonun muhim manba hisoblanadi. Mustaqillik yillarida ta’lim to‘g‘risidagi qonunga ham bir necha bor o‘zgarishlar amalga oshirildi. 1992 yil, 1997 yil, 2020 yillarda ta’lim to‘g‘risidagi qonun isloh qilindi. Jumladan, qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan ta’lim to‘g‘risidagi qonun bugungi ta’lim tizimini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga xizmat qilmoqda.

1-bob.Umumiy qoidalar

1-modda.Ushbu Qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, Xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa; davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shartsharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning

jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'yektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

4-modda. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

5-modda. Ta'lim olish huquqi

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olishga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ta’lim olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari

6-modda. Ta’lim tizimi

Ta’lim tizimi: davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini; davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;

ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni; ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.

7-modda. Ta’lim turlari

Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim va tarbiya;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

professional ta’lim; oliy ta’lim;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

maktabdan tashqari ta’lim.

8-modda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

9-modda. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim umumtaʼlim oʻquv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda koʻnikmalarni oʻzlashtirishga qaratilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlangʻich taʼlim (I — IV sinflar);
- tayanch oʻrta taʼlim (V — IX sinflar);
- oʻrta taʼlim (X — XI sinflar).

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi. Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Tayanch oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi. Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek taʼlimning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi. Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi. Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi. Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj boʻlgan bolalar davlat

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

10-modda. Professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

11-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek, ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar

o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rtta va uch yillik o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

12-modda. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

13-modda. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

14-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

15-modda. Ta'lim olish shakllari

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:
ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
dual ta'lim;
oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim;
mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

16-modda. Masofaviy ta'lim

Masofaviy ta'lim o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Dual ta'lim

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

18-modda. Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

19-modda. Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari

ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

20-modda. Inklyuziv ta'lim

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

21-modda. Eksternat tartibidagi ta'lim

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi. Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

22-modda. Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3-bob. Ta'lim tizimini boshqarish

23-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; ta'lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;

ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, nodavlat ta'lim tashkilotlariga ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga apostil qo'yish tartibini belgilaydi;

pedagogik kadrlarni ta'lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi; xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga doir ruxsatnomalar beradi; xorijiy davlatlarda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi;

davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlar berish tartibini belgilaydi; eksternat tartibida o'qitishga yo'l qo'yilmaydigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi; faqat davlat ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatini tasdiqlaydi;

davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlariga qabul qilish tartibini belgilaydi;

davlat oliy ta'lim muassasalari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta'lim tashkilotlari (davlat ulushi bo'lgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, qo'shma ta'lim muassasalari, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan ta'lim muassasalari va boshqalar) rektorlarini (rahbarlarini) lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi; ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim tashkilotidan boshqasiga ko'chirish, shuningdek ularni o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibini belgilaydi;

ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

mehnat bozori talablarini prognoz va tahlil qilish asosida ta'lim tashkilotlarida kadrlarni tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi;

ta'lim tashkilotlariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilaydi;

darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish tartibini, shuningdek ularni yetkazib berishga va ulardan ta'lim tashkilotlarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

24-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda Ta'lim inspeksiyasi deb yuritiladi) ta'lim tizimida o'quvtarbiya jarayoni, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati ustidan nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradigan, ta'lim sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir.

Ta'lim inspeksiyasi: ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, shuningdek ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazadi; ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifati monitoringini amalga oshiradi; maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga lavozimlar va malaka toifalarini berish jarayonini nazorat qiladi hamda unda ishtirok etadi; nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziyalar beradi; ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlaydi; aniqlangan ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlari yuzasidan tegishli davlat boshqaruvi organlariga va ta'lim tashkilotlariga taqdimnomalar kiritadi.

Ta'lim inspeksiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining ta'lim sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun davlat ta’lim standartlarini tasdiqlaydi;

davlat ta’lim standartlariga muvofiq Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona tarzda muvofiqlashtirishni hamda unga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi, mazkur maktablarda bino va inshootlarni yekspluatatsiya qilish ishlarini monitoring qiladi va muvofiqlashtiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

26-modda. Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

ta’lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti) va davlat ta’lim talablarida kadrlarning ma’lumoti darajasiga va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo‘yilgan talablarning ta’lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta’lim talablari ishlab chiqilishini ta’minlaydi va ularni tasdiqlaydi;

ta’lim oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash tartibini belgilaydi; professional ta’limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura

mutaxassisliklari, shuningdek bilim sohalari va ta'lim sohalari ro'yxatini belgilaydi;

ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta'minlaydi;

ta'lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqadi, o'quv dasturlarini takomillashtiradi;

o'quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi;

o'zlashtirishni baholashga, o'quv jarayonini, ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi, shuningdek eksternat tartibida ta'lim oluvchilarning toifalarini belgilaydi;

davlat oliy ta'lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

ta'lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnika resurslaridan foydalanishga doir talablarni ishlab chiqadi;

ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

ta'lim sohasida Xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari: ta'lim sohasidagi vakolati davlat boshqaruvi organlari bilan kelishilgan holda davlat ta'lim muassasalarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, bundan respublika tasarrufidagi ta'lim muassasalari mustasno;

o'z vakolatlari doirasida tegishli hududda davlat ta'lim muassasalari uchun moliyalashtirish hajmini belgilaydi; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan hamkorlik qiladi;

davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalariga birlashtirilgan hududlarni (mikrouchastkalarni) belgilaydi; ta'lim sohasida Xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ta'lim tashkilotlariga ko'maklashadi;

ta'lim oluvchilar uchun sifatli ta'limni, tarbiyani ta'minlash, ularning iste'dodini shakllantirish va namoyon etish maqsadida joylarda ularga zarur sharoitlar yaratish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqadi;

o'z vakolatlari doirasida ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantiradi va nodavlat ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga ko'maklashadi;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari bandligini ta'minlashga ko'maklashadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

28-modda. Ta'lim tashkilotini boshqarish

Ta'lim tashkilotini boshqarishni tegishincha quyidagilar amalga oshiradi:

pedagogik kengash;

kuzatuv (vasiylik) kengashi;

oliy ta'lim tashkilotining kengashi;

ta'lim tashkilotining rahbari.

Ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishda va kadrlar tayyorlashda kadrlar talabgorlari ishtirok etadi.

4-bob. Ta'lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga

29-modda. Ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklidagi ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishga haqli. Ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini ustav va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlari asosida yuritadi. Ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya va o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualariga birlashishga haqli. Ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalarning tashkiliy tuzilmalarini tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi.

30-modda. Ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish

Davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etiladi. Iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning oliy ma'lumotli malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek aholining oliy ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida mamlakat hududida xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari (markazlari, ta'lim kampuslari) va boshqa bo'linmalari tashkil etilishi mumkin. Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining bo'linmalari O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi. Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining, shuningdek Xalqaro tashkilotlarning ta'lim muassasalari filiallari (markazlari, ta'lim kampuslari) va boshqa bo'linmalari faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinishi mumkin.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha davlat ta'lim muassasalari: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan institutlar va markazlar shaklida tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasalarining fakultetlari va kurslari shaklida tashkil etiladi. Davlat umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari: respublika bo'ysunuvida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishilgan holda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'ysunuvida tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tumanlar va shaharlar bo'ysunuvida tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tashkil etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim tashkilotlarini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar davlat statistika organlariga, Ta'lim inspeksiyasiga hamda

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy organlariga taqdim etiladi.

31-modda. Nodavlat ta’lim tashkilotlari

Nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi. Nodavlat ta’lim tashkilotlari litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatadi. Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi nodavlat ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni beradi.

Mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim xizmatlari ko‘rsatadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarga O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni beradi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari bo‘yicha o‘qitish ta’lim oluvchi yoxud uning ota-onaci yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan, o‘qitish muddatlari, shartlari va to‘lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

32-modda. Ta’lim tashkilotining ustavi

Ta’lim tashkilotining ustavi ta’lim turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Ta’lim tashkilotining ustavida, qoida tariqasida, quyidagilar ko‘rsatiladi: ta’lim turi va shakli;

ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari;

o‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish hamda mazmuni;

ta’lim tashkilotiga qabul qilish tartibi;

ta’lim tashkilotining tuzilmasi, boshqaruv organlari va jamoatchilik tuzilmalari; ta’lim oluvchilar, pedagog kadrlar, o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha xodimlar, ma’muriy boshqaruv xodimlarining maqomi, huquqlari va majburiyatlari;

ta’lim tashkilotining mol-mulki va vositalari;

ta’lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Ta'lim tashkilotining namunaviy ustavi: umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, ixtisoslashtirilgan maktablar va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari uchun — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablar, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari uchun — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim tashkilotlari uchun — tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi. Ta'lim tashkilotining ustavi ta'lim tashkilotining ta'sischilari tomonidan tasdiqlanadi va hududiy tegishlilik bo'yicha Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatga olinadi.

33-modda. Ta'lim berish tili

Ta'lim tashkilotlarida o'qitish tilidan foydalanish tartibi "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

34-modda. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim talablari: maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini; ta'lim tuzilmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini;

ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatlari to'g'risidagi normalarni belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti qo'llaniladi. Davlat ta'lim standartlarini va (yoki) davlat ta'lim talablarini bajarish barcha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno. Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim hamda professional ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarini belgilaydi.

Tayanch davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta'lim standartlarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta'lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

Oliy, professional, o'rta maxsus va umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Tegishli vakolatlar berilgan boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar davlat ta'lim standartlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.

Davlat ta'lim talablari ta'lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi davlat oliy ta'lim muassasalariga mustaqil ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlari, malaka talablari hamda o'quv rejalari asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha vakolatlarni berishi mumkin.

35-modda. Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish

O'quv rejalari va o'quv dasturlari tegishli ta'lim bosqichlarining maqsad hamda vazifalari asosida ishlab chiqiladi. Tegishli davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlaridagi o'quv rejalari va o'quv dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kasbga oid fanlarning o'quv dasturlari ta'lim oluvchilar tomonidan tegishli kasblar va mutaxassisliklarni egallashga qaratilgan. Ta'lim

jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. O'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llaniladi.

Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish chog'ida ta'lim tashkilotlari kredit-modul tizimiga asoslangan o'qitish texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lim jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks yettiriladi.

Professional va oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir o'quv rejalarida ta'lim oluvchilar uchun amaliyot o'tash nazarda tutiladi. Ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibi va uni tashkil etish ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Professional va oliy ta'limga doir o'quv rejalari davlat ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlaridan, shuningdek umumkasbiy, matematika, tabiiy-ilmiy, gumanitar va qo'shimcha fanlardan shakllantiriladi.

O'quv rejalariga davlat boshqaruvi organlarining topshiriqlariga asosan va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa yo'l bilan qo'shimcha fanlarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

36-modda. Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat

Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar,

shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

37-modda. Ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi

Ta'lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi ularning rasmiy veb-saytlarida Internet jahon tarmog'ida joylashtiriladigan ta'lim tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi ochiq axborot resurslari bilan ta'minlanadi.

Ta'lim tashkilotlari rasmiy veb-saytlarida quyidagilarni joylashtiradi:

- ta'lim tashkilotining ustavi;
- ta'lim berish tillari haqida ma'lumot;
- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari;
- ta'lim faoliyatining moddiy-texnika ta'minoti haqida ma'lumot;
- litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun);
- ta'lim tashkilotining reytingi;

ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat; ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari va natijalari, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ilmiytadqiqot bazasi to'g'risidagi ma'lumot (oliy ta'lim uchun);

ta'lim oluvchilarga stipendiyalar berish tartibi, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatishning mavjudligi va shartlari to'g'risidagi ma'lumot;

vaqtincha yashash joylarining mavjudligi va yashash joylarining soni, shuningdek to'lov miqdori to'g'risidagi ma'lumot;

pedagoglar va ta'lim oluvchilarning soni, shuningdek pedagoglarning ilmiy salohiyati to'g'risidagi ma'lumot.

Ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan axborotning ishonchligini ta'minlash uchun ta'lim tashkilotlarining rahbarlari shaxsan javobgardir. Ayrim ta'lim tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda cheklanishi mumkin.

38-modda. Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin. Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun),

davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, ta'lim oluvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z otaonasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi. Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlariga tanlov asosida o'qishga qabul qilish chog'ida tanlov ishtirokchilariga tanlovni o'tkazish tartibi to'g'risidagi axborot taqdim etiladi. Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tartibi ushbu ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Chet yellik fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish to'lov-shartnoma asosida (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish chog'ida imtiyozli kontingent uchun qo'shimcha qabul parametrlari belgilanadi.

39-modda. Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish tegishli hududlarning, sohalar va tarmoqlarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ular uchun belgilangan ta'lim oluvchilarni qabul qilish parametrlari doirasida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga maqsadli qabul qilish kadrlar buyurtmachilari, davlat ta'lim muassasalari va fuqarolar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga maqsadli qabul qilish tartibida o'qishga kirish umumiy asoslarda tanlov natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

40-modda. Ta'lim to'g'risidagi hujjat

Akkreditatsiya qilingan ta'lim tashkilotlarining davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim olgan bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi.

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ta'lim olgan hamda akkreditatsiya qilingan davlat ta'lim muassasalarining tegishli o'quv dasturlari bo'yicha eksternat tartibida yakuniy va davlat attestatsiyasidan o'tgan shaxslarga ham beriladi.

O'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, ularning hajmlari va fanlar bo'yicha baholari yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Tegishli ilmiy darajani olish uchun dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining va xorijiy davlatlarning hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni o'zaro tan olish amalga oshirilishi mumkin.

Uzluksiz ta'limning tegishli turini tamomlamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan beriladigan O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan ta'lim to'g'risidagi hujjat uzluksiz ta'limning keyingi turi (darajasi) bo'yicha o'qishni davom ettirish yoki tegishli mutaxassislik va kasb bo'yicha ishlash huquqini beradi.

Xorijiy davlatlarning va O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ularning bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi hududida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan ikki tomonlama diplom (Double Diploma) berilishi mumkin.

41-modda. Ta'lim tashkilotlarining reytingi

Ta'lim tashkilotlarining reytingi: ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish; ilmiy-pedagogik faoliyat darajasining o'sishini va sifatining oshishini rag'batlantirish; pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish; o'qitish sifatining yuqori ko'rsatkichlariga yerishish; mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash maqsadlarida belgilanadi.

Reytingni belgilash uchun ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun ta'lim tashkilotining rahbari shaxsan javobgar bo'ladi.

42-modda. Ta'lim tizimidagi monitoringi

Ta'lim tizimidagi monitoring ta'limning holatini, ta'lim natijalarining o'zgarishi sur'atlarini, ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va kuzatishni, shuningdek ta'lim oluvchilarning kontingenti to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqaruv qarorlari qabul qilinishini tahlil etishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim tashkilotlarining monitoringi Ta'lim inspeksiyasi, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim holatining tahlili va uni rivojlantirish istiqbollari to'g'risidagi axborot Ta'lim inspeksiyasining, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining va ular hududiy bo'linmalarining, shuningdek ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

Ta'lim tizimidagi ma'lumotlar jumlasiga rasmiy statistika ma'lumotlari, ta'lim tizimi monitoringi natijalari, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining va ular hududiy bo'linmalarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ta'lim tashkilotlarining ma'lumotlari kiradi.

43-modda. Ta'lim sohasidagi davlat nazorati

Ta'lim sohasidagi davlat nazorati berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati davlat ta'lim standartlariga, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga, shuningdek ushbu Qonun talablariga muvofiqligini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlari ta'lim sifati ustidan nazoratni amalga oshirishda Ta'lim inspeksiyasiga, ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga ko'maklashadi. Ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga nomuvofiqligi aniqlangan hollarda Ta'lim inspeksiyasi nomuvofiqlikni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnoma kiritadi. Aniqlangan nomuvofiqlik bartaraf etilmagan taqdirda Ta'lim inspeksiyasi ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatini qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilishga haqli. Ta'lim sifati ustidan nazorat qilish vakolatlariga ega bo'lmagan organlar tomonidan ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatini, ta'lim jarayoni tashkil etilishini, pedagog xodimlarining mehnat faoliyatini, ta'lim oluvchilarining o'zlashtirishini tekshirishga yo'l qo'yilmaydi. Ta'lim inspeksiyasi O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshiradi.

44-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi

Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim

5-bob. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli. Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

45-modda. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir

ko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

1.3 Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

Ta'lim tizimidagi davlat siyosatini asosiy prinsiplar qonunda aniq belgilab berilib, ta'lim ustuvorligining tan olinishi, ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi, ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi, ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi kabilar bo'lib, shuningdek,

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik kabi prinsiplarga ham jarayonida amal qilinmoqda.

1.4 Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

Ta'lim berish va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va ta'lim to'g'risidagi qonuni va ta'lim tizimini tashkil etish va boshqarish to'g'risidagi huquqiy me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

Quyidagi shaxslar ta'lim tashkilotlarida pedagog (professor-o'qituvchi) sifatida faoliyat yurita olmaydilar:

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

- qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;

- hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi, tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o'zgalarning mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o'tkazish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

- psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslar;

- pedagoglik (professor-o'qituvchilik) faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasallikka chalingan shaxslar.

Quyidagi ayrim holatlarda ta'lim berish huquqi qayta tiklanishi mumkin. Jumladan, sudning hukmi bilan sudlanganlik olib tashlangan/tugagan yoki kasallikdan tuzalgan bo'lsa, yana pedagog sifatida ishlashga ruxsat beriladi. Pedagoglik faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklar ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risi"dagi qonunining quyidagi moddalarida ta'lim berish yoki pedagogic faoliyat bilan shig'ullanish haqida moddalar belgilab berilgan. Jumladan,

44-modda.

Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani

tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqli.

Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining

45-modda.

kafolatlari. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashgata'sirko'rsatishga, shuningdek ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish;

o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejaları va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;

o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;

o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalaniş;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun);

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

46-modda.

Pedagog xodimlarning majburiyatlari

Pedagog xodimlar:

ta'lim -tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim -tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarning zimmasida qonun hujjatlariga, shuningdek ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.



Mavzuni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar?

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Mustaqillik yillarda ta'lim tizimidagi islohotlar haqida so'zlab bering?
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun haqida gapirib bering?
4. Ta'lim prinsiplari haqida nima deya olasiz?
5. Ta'lim turlari va shakllari to'g'rida nimalarni bilim oldingiz?
6. "Ta'lim to'g'rida"sigi qonunning 3- moddasida nima haqida so'z boradi?
7. Ta'lim tizimidagi islohotlarni klaster metodidan foydalangan holda tasvirlang?
8. O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar haqida taqdimot tayyorlang?



Mavzuga doir testlar

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilindi?
 - a) 1997 yil 29 avgust
 - b) 1992 yil 2 iyun
 - c) 1994 yil 1 iyul

d)2020 yil 23 sentyabr

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechanchi moddasida “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi” - deb, keltirilgan?

- a) 3-modda
- b) 5-modda
- c) 4-modda
- d) 7- moddasida

3. Malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi...

- a) Malaka
- b) Mutaxassislik
- c) Faoliyat
- d) Ta’lim

4. Eksternat tartibidagi ta’lim haqida “Ta’lim to ‘g‘risida”gi qonunning nechanchi moddasida izoh berilgan?

- a) 23- moddasida
- b) 21- moddasida
- c) 34- moddasida
- d) 2-moddasida

5. Pedagog xodimlarning majburiyatlari haqida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechanchi moddasida izoh berilgan?

- a) 46- moddasida b) 45- moddasida
- c) 3-moddasida d) 44-moddasida



2-BOB. PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, TADQIQOT METODLARI

Tayanch atamalar

Pedagogika, ijtimoiy fan, pedagogikaning predmeti, pedagogikaning maqsadi, ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim nazariyasi, o'qish, didaktika, bola yetaklamoq, pedagogika fanlar tizmi, pedagogikaga aloqadr fanlar, ta'lim, tarbiya, shaxs, faoliyat, bilim, ko'kinma, malaka, ma'lumot, dunyoqarash.

2.1 Pedagogika - ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning obykti, predmeti, maqsad va vazifalari.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida - «bola» va gogike - «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod

Pedagogika - ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi.

hamda kattalarni tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatiari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, yekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Ko'p sonli fanlarning ta'limni organishdagi ijtimoiy fenomeni sifatidagi hissasi shubhasiz bebaho va zarurdir. Biroq bu fanlar insonning

kundalik o'sishi va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, o'qituvchi bilan o'quvchining o'z rivojlanish davridagi o'zaro munosabatlari va unga mos institutaviy struktura bilan bogliq ta'limning tub jihatlariga daxl qilmaydi. Va bu tamomila haqqoniy, chunki maxsus jihatlarini o'rganish obyekt (ta'lim) ning shunday qismini aniqlaydiki, buni maxsus fan pedagogika o'rganishi kerak.

PEDAGOGIKA

Bu aniq maqsadlar asosida maxsus ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim va madaniy tarbiyaviy muassasalar) da tashkil etilgan aniq yaxlit pedagogik jarayon sifatidagi ta'limdir. Pedagogika bu holda o'zini pedagogik jarayon (talim)ning mohiyati, qonuniyatlari, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari o'rganuvchi fan sifatida namoyon etadi. Shu asosida pedagogika uni tashkil etishning nazariya va texnologiyalarini, pedagog faoliyati (pedagogik faoliyat) ning shakli va rivojlantirish metodlarini va o'quvchilarning turli korinishdagi faoliyatlarini, shuningdek ularning o'zaro munosabatlaridagi strategiya va usullarini ishlab chiqadi.

Talabalarga ta'lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslarini o'rgatish, pedagogik faoliyat mazmuni bilan tanishtirish, umumpedagogik bilimlarni, pedagogik madaniyatni, kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish va innovatsion ta'lim jarayoniga tayyorlash orqali pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga yerishish masalalarini hal qilishga o'rgatish. Fanning qonuniyatlari va psixologiyaning asosiy tushunchalari, prinsiplarini hamda psixik jarayonlarni nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlariga haqidagi bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirish, psixologiya fanining zamonaviy ilmiy bilimlarni o'zlashtirishni tashkil qilish.

PEDAGOGIKA FANI MAQSADI

Fanning ilmiy, amaliy va metodologik asoslarini o'rgatish, ta'lim jarayonini innovatsion boshqarish, inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritish, pedagogik mahoratni egallash yo'llari, ta'lim muassasasining ish hujjatlarini to'g'ri yuritish, pedagogik manbalar bilan ishlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Psixologiya fanining jamiyat va shaxs kamolotidagi o'rnini tushunishi, inson psixikasi haqida umumiy tushunchalarga ega boiishi kerak. Shaxsning individual-psixologik

PEDAGOGIKA FANNING VAZIFASI

Fanning ilmiy, amaliy va metodologik asoslarini o'rgatish, ta'lim jarayonini innovatsion boshqarish, inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritish, pedagogik mahoratni egallash yo'llari, ta'lim muassasasining ish hujjatlarini to'g'ri yuritish, pedagogik manbalar bilan ishlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Psixologiya fanining jamiyat va shaxs kamolotidagi o'rnini tushunishi, inson psixikasi haqida umumiy tushunchalarga ega boiishi kerak. Shaxsning individual-psixologik

xususiyatlari va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati xususida umumiy bilimlari bo'lishi kerak.

2.2 Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Pedagogika fanida bir-biriga uzviy bog'langan quyidagi tushunchalar mavjud: Tarbiya, ta'lim, ma'lumot. Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisadir. U jismoniy barkamollik, yaxshini yomondan farqlash, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma boshqichlarida rivojlanib, o'sib avloddan avlodga vorislik vazifasini bajargan, lekin maqsadi, vazifasi, mazmuni o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida ye'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga yerishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi.

Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish, dunyoqarash, faoliyat.



Maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashkil qiladi. «Ta'lim insonlarga yaxshiroq hayot tarzi va mavqe imkoniyatlarni yaratadi. Odamlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga yordam beradi. Insonga o'zini va dunyoni tushunishdagi bilimni oshirishda zarur. Odamlardagi bag'ri kenglikni shakllantiradi. Yoshlarning hayotga va dunyoga boigan qarashini shakllantirishga yordam beradi. Demak, ta'lim millatni rivojlantirishga yordam beradi»², — deydi amerikalik pedagog olim A.Mur.

² Aleks Mur. Ta'lim berish va ta'lim olish; pedagogika, ta'lim dasturi va Ikkinchi nashr. 2012. 35-bet

Tarbiya

O'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot - dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatirais kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrinmg oxirigacha oilada, maktabda, kasb-faunar kollejlarida, oliy ta'lim muassasalarida va jamoatchilik ta'sirda shakllanib boradigan jarayondir.

Bilim

Bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlari va tushunchalarini o'zlashtirish natijasidir. Vilim - o'rgangan narsani tushuntirib bera olish bo'lib, o'quvchilar o'qish orqali u bilan qurollanadilar. Bilimni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish bilan birgalikda ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Ko'nikma

Mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisi bo'lib, bilimni ma'lum joy(sinfda, laboratoriyada va hakazo)da qo'llay olishdir. Ko'nikma - malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Malaka

Bilim va ko'nikmani istalgan joyda qo'llay olishdir. Bilim asosida ko'nikma va malaka paydo bo'ladi. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma mehnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

Ma'lumot

Ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Mahorat

Turli malakalardan ishonchli, ijodiy foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojlanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'limning mutlaq maqsadidir. Mahorat murakkab ishni tez, aniq, sifatli bajarisbning barqaror darajasidir.

Shaxs

Jamiyat a'zosi sifatida o'z-o'zini anglash va tafakkur faoliyatining ob'yektivligi, muloqotda biologik, ijtimoiy muhit hamda maqsadli tarbiya natijasida shakllanadi.

Pedagogik muhit

Ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo munosabatlar majmuasi.

Ijtimoiy muhit

Kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmuasi. Ijtimoiy tafakkur turmush tarzi, shaxslararo 18 ya guruhlararo hamda millat va Xalqaro munosabatlarning o'zaro kelishi va bir-birini boyitishi.

Faoliyat

Biror shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyoj larga javob beruvchi maqsad sari yo'naltirilgan harakat.

Ijtimoiy taraqqiyot

Tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta'sir etish, yani shaxsning shakllanish jarayoni.

Kompetensiya

Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qoily olish qobiliyati.

Shakllantirish

Shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish

Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yetakchi o'rinni egallaydi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining milliy pedagogika fanida tarbiya inson muammolari, ajdodlarimiz g'oyalariga suyanib, quyidagi **qonunlarga** asoslanishi zarur deb hisoblanadi:

- tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibli ta'sir etuvchi mahsul bo'lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi;
- inson kamolotini xarakterlovchi kuch o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni mavjudligi uning shaxsiy hayodda namoyon bo'ladi;
- inson faoliyati jarayonida atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqishini uyg'otish va uni e'tiqodga aylantirish;
- tarbiya jarayoni yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlar bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya bir-biriga uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali inson bilimli, barkamol bo'lib voyaga etadi.

Ta'lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika - tarbiyashunoslikning bir qismidir. Pedagogikaning didaktika qismi uni atroflicha o'rganadi.

2.3 Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lsa, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

FALSAFA - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

ETIKA - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

ESTETIKA - shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

IQTISOD - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

SOTSIOLOGIYA - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya

jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

FIZIOLOGIYA - o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anotomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni o‘rganishga yordam beradi.

GIGIENA - O‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishga nazariy va amaliy g‘oyaiarni taqdim etadi.

PSIXOLOGIYA - shaxsda ma‘naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

TARIX - pedagogika fani taraqqiyoti, ta‘lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o‘rgatish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

MADANIYATSHUNOSLIK - o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavumi shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

TIBBIY FANLAR - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlani-shini ta‘minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda k‘maklashadi.

PEDAGOGIKA FANLARI TIZIMI Shaxs kamolotini ta‘minlash, uning intellektual, ma‘naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga yerishishda turli yosh davrlari, har bir davming o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi.

PEDAGOGIKA FAN TARMOQLARI.



Umumiy pedagogika - pedagogikaning konseptual masalalari va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika - jismoniy yoki rahiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Metodika - xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-sharoitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti - ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi - oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi.

Xalq pedagogikasi - Xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika - qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qommiyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika - pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadigan, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya - ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb ye'tirof yetgan holda, ta'limiy qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Neyropedagogika - bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunlikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Pedagogik antropologiya - falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'lining antropologik modeli va texnologiyasini o'rganuvchi fan sohasi.

Pedagogik akmeologiya - barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanish cho'qqisi - «akme shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.

2.4 Pedagogik tadqiqot metodlarining o'ziga xosligi.

Pedagogik reallikni bilish, tushuntirish, uni rivojlanishini oldindan aniqlash uchun pedagogik tadqiqotlar o'tkaziladi.

Pedagogik tadqiqot — bu ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, uning tuzilishi va mexanizmlari, mazmuni, prinsiplari va texnologiyalari to'g'risidagi yangi bilimlarni olishga yo'naltirilgan ilmiy faoliyat natijasi va jarayonidir.

Pedagogik tadqiqotlar nazariy va tajriba eksperimental xarakterda bo'lishi mumkin. Pedagogik tadqiqotlar yo'nalishiga ko'ra fundamental, amaliy va tavsiya (ishlanma) turlarga bo'linadi.

Fundamental tadqiqotlar natijasida umumiy konsepsiyaga ega, ya'ni pedagogikaning nazariy va amaliy yutuqlari xulosasi, pedagogik tizim tashxislash asosida uning rivojlanish modelini taklif qilishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy tadqiqotlar — bu pedagogik jarayonni alohida tomonlarini chuqur o'rganishga, pedagogik amaliyotni ko'p tomonli qonuniyatlarini ochishga yo'naltirilgan ishdur.

Tavsiyalar ma'lum nazariyalarga tayanib, aniq ilmiy amaliy tavsiyalarni asoslashga yo'naltiriladi.

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi talablarga amal qilish maqsadga muvofiq:

Pedagogik hodisalarni ob'yektivligini hisobga olish (har qanday hodisa ichki ob'yektiv qonunlar, qaramaqarshiliklar ta'siri kuchi bilan rivojlanadi).

Pedagogik hodisa va jarayonlarni bir butunlikda o'rganish.

Hodisalarni rivojlanishida o'rganish.

Ushbu hodisalarni boshqa hodisalar bilan aloqadorligida o'rganish.

Tadqiqot metodlarini alohida emas, kompleks tarzda tanlash.

Tadqiqot metodlarini o'rganilayotgan predmetga mos adekvat bo'lishi.

Axloqiy me'yorlarga mos kelmaydigan ta'lim-tarbiya jarayoniga yomon ta'sir qiluvchi xarakterdagi yeksperimentlarni o'tkazishga yo'l qo'ymaslik.

Pedagogikaning metodologik prinsiplari:

Antropologik prinsip inson haqidagi barcha fanlarning ma'lumotlaridan tizimli foydalanish. Pedagogik jarayonni inson ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etish.

Madaniyatlilik prinsipi ta'lim jarayonida madaniyat tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarni manbasi hisoblanadi. Madaniyat insonni rivojlanishini va uni ijodkor shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Milliylik prinsipi ta'lim va tarbiyaning xalq mentaliteti va milliy an'analar asosida amalga oshirilishi.

Shaxsiy yondashuv prinsipi pedagogik jarayonda shaxsni maqsad, subekt, natija va uni samaradorligini asosiy mezon sifatida qarash.

Faoliyatli yondashuv prinsipi faoliyat shaxs rivojlanishining asosi, vositasi va hal etuvchi sharti. Pedagogik jarayon faoliyat turining xususiyatlari asosida qurilishi lozim.

Tizimli yondashuv prinsipi pedagogik jarayon murakkab tizim sifatida va uning komponentlari o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi kerak.

Axborotli yondashuv prinsipi axborot ilmiy texnik va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning zaxirasi hisoblanadi.

2.5 Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi

Borliqni bilish, ilmiy nazariyada nimani o'rganish lozim, kimni qanday o'qitish va tarbiyalash kerak degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'ladi va takomillashib boradi.


Pedagogika fani o‘z mazmun mohiyatini boyitishga takomillashgan va yangilanishga mavjud ta’lim tarbiya hodisalari, kasbiy komillikning rivojlanish jarayonlari faning maqsadi va vazifalariga muvofiq muayyan metodlar yordamida o‘rganiladi. Metod (yunoncha methods yo‘l so‘zidan olingan) tadqiqot yo‘li, bilish yo‘li, nazariya, talimot deb nomlanadi. Ilmiy tushuncha sifatida “Metod”so‘zi keng ma’noda mavjud maqsadga yerishish yo‘lini, tor ma’noda tabiat, ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya xodisalari va qonunyatlarini bilish maqsadida qandaydir vaziyatni hal etish usulini bildiradi.

Ma’lumki pedagogika fani uzliksiz ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirish, o‘qituvchi-tarbiya mahoratini takominlashtirishni o‘rgandi. Ushbu fanning ilmiy tadqiqot usullari deganda barkamol avlodni o‘qitish, tarbiyalash va ularga ta’lim-tarbiya beruvchi xodimlarning kasb mahoratini oshirishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki qonunlar, usullar va vositalar mavjud tushuniladi. Ularni tanlashda o‘quv-tarbiya muassasining sharoitlari, o‘qituvchi-tarbiyachining ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi, o‘qitilayotgan o‘quv predmentining o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, intilishlari, tayyorgarliklari va h.k hisobga olishi kerak. Ilmiy tadqiqot metodlari qancha to‘g‘ri tanlanib, oqilona qo‘llansa natija shuncha yaxshi bo‘ladi. Ammo shuni takidlash joizki, bu o‘rinda umuman , pedagogika fanida ilmiy tadqiqot metodlari tizimi xanuzgacha to‘la yaratilgan, hal qilingan emas.

Biz quyida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy tadqiqot metodlarini tavsiya qilarniz:



Odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va xodisalarni biror maqsadni ko‘zda tutib idrok etish uchun tashkil etiladi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob’yekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va xokazolar hisobga olinadi.



Suhbat metodi

Metodni qo'llash xususiyatiga bevosita va bilvosita metodlarga bo'linadi. Ular tadqiqotchiga real pedagogik jarayoni va kuzatuvchilarning xatti-xarakatlari xamda boshqa jihatlarni yozib qo'yish imkonnini beradi.

Bevosita qayd qilish usuli biror-bir xodisaning oqibatlarini haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida bilib olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari kinofotosyomka, vidozapis, televidenie, va h.k.ni qo'llash bilan tobora keng qo'llanilmoqda.

So'rashning bir turi bo'lgani holda, tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'izaki suhbat tarzida, suhbatdoshning javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi. Suhbatdosh metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. Javoblar mazmuniga ko'ra taxlil qilinadi va texnologiyalanadi. Aniq va mantiqiy javoblarga ko'proq faoliyatni rivojlantirish loyihalashtiriladi.



Anketa metodi

(Fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;


6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.



**Intervyu
metodi**

Respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi.

Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.



**Ta’lim
muassasasi
hujjatlarni
tahlil qilish**

Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’limmuassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O‘zbekiston

Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunida talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faollilik darajasi, yerishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig‘ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o‘quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo‘nalishlarda o‘quvtarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi, ilg‘or pedagogik tajribalar mazmunini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.



**Test
metodi**


Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejaliishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.



**Pedagogik
tahlil metodi**

Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.



**Bolalar
ijodini
o'rtoqanish**

Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga

xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.


Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko'rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.



**Pedagogik
tajriba**

(Eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.



**Matematik-
statistik
tahlil metodi**

Pedagogik tadqiqot, tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalarini ma'lum bir maqsad asosida tizimli o'rganish, umumlashtirish va amaliy natijalarning haqqoniyligini baholash maqsadida olib boriladi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda matematik-statistik metodning qo'lla nilishidan ko'zlangan maqsad tajriba-sinov ishlari, shuningdek, tadqiqot ishining samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat. Unga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida tajriba avvali hamda yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi, yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

2.6 O‘zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishi

Ma’lumki, barcha ilmiy-nazariy sanalar hayot taqozosi bilan vujudga keladi. Ta’lim, tarbiya ma’lumot kishilar hayotida katta ahamiyat kasb etish vaqti keldi. Endi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tez yoki tez rivojlanishi yosh avlodning tarbiya qay darajada qo‘yiganiga bog‘liq bo‘lmoqda. Shunga binoan, tarbiyaning jamiyat hayoti va taraqqiyoti katta ahamiyat kasb yetar yekan pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlarini bilib olish juda muhim hisoblanadi.

Birinchi bosqichda pedagogik g‘oyalar dastlab xalq pedagogikasi sifatida rivojlandi. Bu xalq tomonidan yaratilgan miflar (xayoliy tushunchalar)da, maqollarda qo‘shiq kuylarda, ertaklarda, rivoyatlarda, asotirlarda, hikoyatlarda, masalalarda, dostonlarda keyichalik “Avesto”, “O‘rxun Enasoy”(Enasoy) yodgorliklar mazmunida pedagogik g‘oyalar, qarashlar o‘z ifodasini topgan. Bu masalada yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni mardlikka, jasoratga, kasb-hunar egallashga da’vat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, sharm-hayo, mehr-oqibat, or-nomus, poklik, halollik kabi tarbiyaviy pedagogik g‘oyalar ilgari suriladi.

Ikkinchi bosqichda pedagogika faniga oid qarashlar, gaplar diniy-falsafiy va falsafiy ta’limotda o‘z ifodasini topdi: “Quroni Karim”, “Hadislar”, Imom Ismoil Buxoriy, Muhammad Muso at-Termiziy asarlarida, tasavvuf ta’limoti namoyondalari Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband va boshqalar. Dunyoviy-falsafiy ta’limot asoschilari al-Xorazmiy, al-Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar az-Zamaxshariylarning pedagogik g‘oyalarida amaliy axloqiy faoliyat ustivorligi fikrlari ilgari suriladi. Sharq faylasuflari inson aql zakovati va qobiliyati taraqqiyotning bosh omili hisoblanadi deb bilib, aqlni yuksakka ko‘tardi va qobiliyatga ishondi. Barkamol avlodni ya’ni orif inson, fozil inson va komil inson tarbiyalash ularning yorqin orzusi bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida, jamiyatda kim bo‘lmayin, mansabi, mavqei, tutgan o‘rnidan qat’iy nazar fozil kishi bo‘lmog‘i darkor, zero, bunday fuqaro o‘z davlatining barcha qonunqoidalarini yaxshi biladigan, unga to‘la to‘kis amal qiladigan, fikrlaydigan, o‘z kasbining mahoratini egasi, kerak bo‘lganda Xalq, Vatan uchun jon fido qilishga tayyor shaxs bo‘ladi deb bilgan. Biroq dunyo olimlari, Xalqlarining barchasi ham shunday o‘ylayvermagan, bunga faqat madaniyatga, ma’rifatga, ma’naviyatga ega bo‘lgan ziyolilar,

hukmdorlargina bunday donishmand fikr yurita olganlar. Fozillar shahrining aholisi o'rtasida o'zaro hurmat, ota-onalar va keksalar e'zozlash, sharqona mehr, shafqat, nazokat va ehtirom bo'lgan.

Uchinchi bosqichda Markaziy Osiyoda ijtimoiy hayotning yuksalishi uchun madaniyat, ta'lim-tarbiya, maktablarni rivojlantirish taraqqiyotning bosh omili sifatida e'tirof e'tildi. Amir Temur, Mirzo Ulug'beklar mamlakatni ma'rifat, ma'naviyatda deb bilib maktablar ochdilar, darsliklar yaratishni yo'lga qo'ydilar. Maktab va madrasalarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Husayn Voiz Koshifiy, Jaloliddin Davoniy, Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik g'oyalari, ayniqsa, insonparvarlik, adolatparvarlik, elsevarlik g'oyasi va nazariyasi keng targ'ib etiladi.

Shuningdek, bu bosqichda "Kalila va Dimna" "Qobusnoma" "Nasihatnoma", Firdavsiyning "Shohnoma", Abdurahmon Jomiyning "Bo'ston" va "Guliston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", Voiz Koshifiyning "Axloqi Muxsiniy", Jaloliddin Davoniyning "Tariqayi tarbiyat ul avlod", "Axloqi Jaloliy" kabi asarlarda axloqiy tarbiya usullari to'g'risida ilg'or pedagogik g'oyalar, qarashlar ifodalangan ular bugungi kun tarbiyashunosligi, aniqroq aytadigan bo'lsak pedagogika fanining puxta zamin hisoblanadi.

G'arbda Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" asari, Pestalotsining rivojlantiruvchi ta'lim, Adolf Disterveg, Jan Jak Russoning erkin ta'lim va tarbiya g'oyalari, K.D Ushinskiyning "Pedagogik antropologiya" asarlarining yaratilishi pedagogika fanining mustaqil fan bo'lib rivojlanishini ta'minladi.

To'rtinchi bosqich Chor Rossiyasi va sobiq sho'rolar davri Turkistonda madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at, pedagogik fikr, maktab, ta'lim sohasidagi ishlarga o'z siyosatini o'tkazgan, milliy madaniyat, ma'rifat, pedagogik fikrlarni tazyiq ostiga olgan davrlarni o'z ichiga oladi.

Chor mustamlakachilari XIX asrning ikkinchi yarmidan, sho'rolar hukumati XX asrning 20-yillaridan to XX-asrning 90-yillariga qadar o'lka madaniyati, ta'lim, fan, san'at, pedagogik g'oyalari va turmush tarzini yevropacha qurishga intildilar va bunga ma'lum darajada erishdilar ham. Shunga qaramay o'lkaning ilg'or kishilari, ma'rifatparvarlari o'zlaridan oldin o'tgan ajdodlarining insonparvarlik, adolatparvarlik, pedagogik g'oyalarni davom ettirdilar. Natijada XXasrning boshlarida "Usuli jadid", "Usuli savtiya" nomlari bilan yangi maktablar tashkil etildi. Bu maktablar uchun darsliklar yaratildi, ta'lim tarbiyani tashkil etish bo'yicha pedagogik asarlar yozildi. Bular Ahmad Donish, Dilshod Otin,

Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ishoqxon Ibrat, Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy va boshqalar edilar. Ayniqsa, Ahmad Donishning “Navodirul vaqoi”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq”, Dilshod Otinning “Tarixi muhojiron”, Fitratning “O‘quv”, “Ona tili” darsliklari, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy” kitoblari, Hamzaning “Engil adabiyot”, “O‘qish kitobi” kabi darsliklari, Ishoqxon Ibratning “Lug‘ati Sittaal Sina”, “San‘ati Ibrat qalarni”, “Mirrajab Bandiy” o‘quv qo‘llanmalari, Abduqodir Shakuriyning “Jomi’ ul hikoyat”, “Zubdat ul ash‘or” o‘qish kitoblari bu davr maorifi uchun muhim pedagogik asarlar sirasiga kiradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyolik adabiyot namoyandalarining asarlarida odob-axloq, ta’lim-tarbiya, ilm olishga da’vatlar mavjud. Buni Furqat, Muqumiy, Avaz O‘tar, Zavqiy ijodida kuzatish mumkin. Furqat o‘zining “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida”, “Suvorov haqida” kabi asarlarida ilm xususiyatlari, ta’lim-tarbiya to‘g‘risida pedagogik fikrlarni bayon etgan. Avaz O‘tar “Til” nomli she‘rida ona tilini egallash, uni bilishning afzaliklari to‘g‘risida fikr yuritgan.

Xullas, o‘zbek pedagogikasining nazariyasi va tarixi shunday xilma xil jarayonlar, oqimlar bilan rivojlanib, shakllanib keldi. To‘rtinchi bosqichning keyingi taraqqiyoti sho‘rolar davri pedagogikasi nazariyasining rivojlanishi bilan bog‘langan. Chunki XX asrning 90 yillarigacha O‘zbekiston respublikasi sovet Ittifoqi degan davlat tarkibida edi.

Beshinchi bosqich bu bosqich pedagogika fanlari to‘g‘risida so‘z yuritganda, uning yuksak ma’naviy yuksalishlar va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil vatanimizning milliy asosda rivojlanishini qamrab oladi.

Respublikamiz pedagog olimlari pedagogika fanining asosiy kategoriyalari ta’lim-tarbiyaning O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik xususiyatini shakllantirish omillari ekanligini inobatga olib pedagogika fanlari sohasi bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratdilar. Shular jumlasiga “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi” (1995) “Pedagogika tarixi”(1994) “O‘zbek pedagogikasi tarixi”(1997) “Pedagogika kursi” (1997) “O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” “Mustaqillik ma’naviyati va yoshlar tarbiyasi” (1995) “An‘anaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” “O‘quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari”, “Milliy tarbiya”, “Kasb-hunar

kollejlari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash", "Didaktika" (1997; 2016), "Oila pedagogikasi" (2007) "Oliy maktab pedagogikasi" (2008), "Pedagogika" (2010) "Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish" "Pedagogika nazariyasi va tarixi" (2011) "Maktabgacha pedagogika" va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

"Talim to'g'risida"gi Qonun vazifalarini bajarish "Pedagogika" fanlari oldida turgan muhim hodisa bo'ldi. Zero, ilm fan, texnikaning tez rivojlanib borishi, yangi ijtimoiy ma'rifiy zaruriyatlarni paydo qildi. Natijada moddiy ishlab chiqarish, xom-ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo'jaligi, sanoat transport, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar)da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv an'anasi yuzaga keldi, natijada hayot surati shiddatligida, axborotlar oqimi kengaydi. Bu hol axborotlarni tezkor sur'atga qabul qilib olish, ularni tahlil qilish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Buni chuqur anglagan respublika pedagog olimlari ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish bo'yicha monografiya, o'quv qo'llanmalarini yozdilar va nashr etirdilar. Bularga M.Ochilovning "Yangi pedagogik texnologiyalar" (2000), N.Saidahmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot" (2003), Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot" (2005), Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. "Pedagogika texnologiya asoslari" (2004), Xo'jaev B.Q., Olimov Sh.Sh. "Yangi pedagogik texnologiyalar" (2004), Avliyoqulov N.H. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari" (2001), Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot" va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Ko'rib o'tganimizdek pedagogika fan sifatida besh bosqich asosida rivojlanib bordi. Barcha bosqichda pedagogikaning markazida inson va uning ta'lim-tarbiyasi, shaxs sifatida shakllanishning muhim jihatlarini ko'rsatib turibdi. Ma'lumki, har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy taraqqiyotning kelajagini belgilar ekan, u, avvalo ma'naviy-axloqiy salohiyati yuksak, malakasi yuqori, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan kadrlarni tayyorlashni bosh maqsad qilib oladi va uning markaziga shaxsni hamda uning ma'naviy-axloqiy kamolotini qo'yadi. Uning bunday yuksalishini uzluksiz ta'lim

asosida birinchilardan bo'lib ta'minlash lozimligi belgilangan. Uzluksiz ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlashda pedagogikaning ham o'quv predmeti, ham o'quv fani sifatida roli ortdi. Bu fan hozirgi kunda ilmiy-amaliy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, tabiatni asrab avaylash, kabi his tuyg'ularni insonlarda, avvalombor yoshlarga singdiruvchi tarbiya fani tarzida e'tirof etiladi.

Shunga asosan pedagogika fani ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishi va amalga oshirishni o'rganuvchi o'quv predmeti sifatida rivojlandi. Bunday sharoitda qayd etilgan xalq ta'limi muassasalari talablariga javob beruvchi va ularning faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashuvchi o'quv adabiyotlarini tayyorlash zarur bo'lib qoldi va o'sha davrda xalq komissiyalari kengashi 1921yilning avgustida o'quv darsliklarini yaratish tartibi haqida qaror qabul qildi. Bu esa mamlakatda pedagogika o'quv fanini yaratish uchun muhim turtki bo'ldi. 1922-1925yillarda pedagogika fanining turli yo'nalishlari bo'yicha, o'ziga pedagogik g'oyalarni ifodalagan kitoblar nashr etildi. Bular jumlasiga, P.P.Blonskiyning "Pedagogika" (1922), "Pedagogika asoslari" (1925), A.P.Pikkevichning "Zamonaviy maktabning asosiy muammolari", "Pedagogikadan olti ma'ruza" (1924), M.S.Grigorevskiyning "Pedagogikaga kirish" (1925) kabilar kiradi. Bu pedagogik adabiyotlar o'zlarining muayyan kamchiliklari mavjudligiga qaramasdan pedagogikaning yangi yo'llarini aks ettira oldi.

Pedagogika fanining shakllanishida 1927-1930yillarda sobiq sho'rolar davrida o'tkazilgan pedagogik g'oyalar munozaralari muhim ahamiyat kasb yetdi. Bunday munozaralarga A.T.Kalashnikov, L.P.Blonskiy, A.P.Pinkevichlar faol ishtirok yetdilar. Pedagoglar va Xalq ta'limi xodimlarining bunday munozaralari sovet pedagogikasi deb nomlangan fanning rivojlanishiga hamda pedagogikaning o'quv predmeti sifatida mazmunini aniqlashga katta yordam berdi. 1930yilda VKP (B)ning "Boshlang'ich majburiy ta'limni" mamlakatda joriy qilish to'g'risidagi qarori qabul qilingandan so'ng boshlang'ich maktablar uchun qisqa muddatli pedagogik kadrlarni tayyorlash kurslar ochilishi munosabati bilan pedagogika texnikumlari uchun V.N.Popov, A.T.Volner, A.T.Zenkolarning "Pedagoglar" darsligi (qisqa mudatli pedagog kadrlarni tayyorlash uchun, 1931) P.N.Shinebriyovning pedagogika texnikumlari uchun "Pedagogika" darsligi (1934) va M.M.Pisyorakning oliy pedagogika o'quv yurtlari uchun "Pedagogika" darsligi (1934) nashr etildi va ta'lim muassasalarida o'qitish boshlandi.

Pedagogikaning pedagogik kadrlar tayyorlovchi (universitetlar, institutlar, texnikumlar) o'quv yurtlarida tarbiya, ta'lim, ma'lumot o'quv predmeti sifatida o'qitilishi XX asrning 50-80 yillarida mukammal rivojlandi. Bu davrlarda vatanimiz sho'rolar hukumati tarkibida o'quv yurtlarida bu o'quv fanlaridan foydalandilar. Bular sirasiga S.A.Suxoamlinskiyning "Yosh avlodning axloqiy tarbiyasi" (1967), Danilov M.A. va Yesipov B.P. "Didaktika" (1957 B.P.Yesipov tahriri ostida), G.I.Shukinaning "Pedagogika" (1966), I.T.Ogoradnikovning "Pedagogika" (1968), T.A.Ilinaning "Pedagogika" (1969), N.I.Boldirov va boshqalarning "Pedagogika" (1968), M.V.Savinning "Pedagogika" (Pedagogika texnikumlari uchun 1978), N.A.Sorokinning "Didaktika" (1974) "Didaktika sredney shkoli" (M.A. Danilov va M.N. Satkinlar 1975) "Pedagogika: Uchebniy posobiye dlya peduchilish" (S.P.Baranov, A.R.Bolotina, T.V.Volinova, V.A.Selastinin 1981) "Pedagogika: uchebnoye posobiye dlya studentov ped intov. pod red. Yu.K.Babanskogo: 1983 va 1988", "Obshiya osnovi pedagogiki" (Pod red. F.F. Korolyova V.Ye Turman, 1967), I.F.Xarliyamovning "Pedagogika" (1990) "Didaktika sredney shkol'" (Pod red. M.N. Skatkina; 1982) va h.k. O'zbekistonda mustaqillik yillariga qadar akademik S.R.Rajabov tahriri ostida chop etilgan "Pedagogika" (1958-1980) darsligi asosida o'qituvchi tarbiyachilarni tayyorlovchilar uchun pedagogika fani o'quv predmeti sifatida o'qitildi. Shuningdek, "Pedagogika" o'quv fanining mazmunini to'ldirish, mavzularning nazariyamaliy yo'nalishini kuchaytirish maqsadida turli mavzularning nomlari bilan o'quv qo'llanmalari hamda "Pedagogika tarixi" va "Xrestomatiya po pedagogika" (M.T.Bushkanes B.D Leuxin; 1976) kabi pedagoglarning o'quv qo'llanmalari ham chop etilganki, ular pedagogika fanini o'quv predmeti sifatidagi mazmunini ilmiy-nazariy, amaliy metodik jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi demokratik islohotlar, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi harakatlar insonni yangidan kashf etish, uning imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqishi uchun shartsharoitlar yaratish, endi ularning bu jarayonlarning ishtirokchilari emas, balki bunyodkorlari, tashkilotchilari bo'lib qatnashishlari zaruriyati tug'ulgan edi. Mana shunday bir sharoitda pedagogika fani faqat ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy-nazariy, amaliy-metodik jihatdan ta'minlovchi fan tarzida emas, balki komil insonning shakllanishi, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashlarini rivojlantiruvchi o'quv predmeti sifatida keng sohalarni qamrab olishi kerak edi. Shunday bo'ldi ham. Bu fan endi yangicha

fikrlaydigan, istiqlol g'oyalariga sadoqat bilan qaraydigan, yangicha tafakkur, ma'naviy milliy qadriyatlarni avaylab asraydigan, ko'paytira oladigan, o'z kuchi va irodasiga ishonadigan yoshlarni tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Buni chuqur anglagan respublika pedagog olimlari yangi, milliy, o'zbekona pedagogika o'quv predmetini yarata boshladilar. Natijada mamlakat o'quv yurtlari uchun qator pedagogik fanlar tizimi vujudga kela boshladi. Dastlab, pedagogika fanlari doktori, professori A.Munavvarov tahriri ostida 1996-yilda "Pedagogika" o'quv qo'llanmasi, I.Tursunov, U. Nishonalievlarning 1997-yilda "Pedagogika kursi" darsligi, pedagogika fanlari doktori, professor, Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi N.R.G'aybullaevning "Pedagogika" o'quv qo'llanmasi, K.Hoshimov, M.Inomova, S.Nishonova, R.Hasanovlarning 1996 yili "Pedagogika tarixi", A.Zunnunovning "O'zbek pedagogikasi tarixi" kabi pedagogik fanlar nashr etilib o'quv muassasalarida o'qitila boshlandi.

O'zbekistonda "Pedagogika" fani, fan va o'quv predmeti tarzida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilgandan so'ng jadal rivojlanish bosqichiga o'tdi. Qator darsliklar, o'quv qo'llanmalari ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari bo'yicha risolalar, monografiyalar yaratildi. Jumladan, 2001-yilda R.Mavlonova tahriri ostida "Pedagogika" darsligi, 2002-yilda Sh.Abdullayeva va boshqalar hamkorligida "Pedagogika" o'quv qo'llanmasi, 2006-yilda J.Hasanboev va boshqalar "Pedagogika" o'quv qo'llanmasi va shu mualliflar 2009-yilda yaratgan pedagogika, "Pedagogika tarixi", 2011yilda oliy ta'lim pedagogika oliygohlari talabalari uchun "Pedagogika" o'quv darsligi, 2006yilda "Pedagogika" o'quv qo'llanmasi A.Zunnunov va U. Mahkamovlarning oliy o'quv yurtlari uchun "Didaktika", "O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar" (1996), 2003 yilda Z.Ismoilovning "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanmasi, 2008 yilda shu muallifning "Pedagogika" o'quv qo'llanmasi 2009 yilda N.Egamberdievaning "Ijtimoiy pedagogika" o'quv qo'llanmasi, O.Hasanboeva, D.Xoliqov va boshqalar. "Oila pedagogikasi", 2010 yilda M. To'xtaxadjaeva, S.Nishonova va boshqalarning "Pedagogika nazariyasi" 2013 yilda Sh.Sodiqovning maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan "Maktabgacha pedagogika" darsligi yaratildiki, bular ta'lim tarbiyada ijtimoiy hayot jarayonining barcha jabhalarini qamrab olib, mamlakat yoshlarini barkamol insonlar, yetuk pedagogik kadrlar qilib tayyorlashda katta ijtimoiy prdagogik ahamyat kasb yetmoqda. Shunday qilib tarixiy taraqqiyotda yangi hayot mazmuni sifatiiy o'zgarishlar ro'y berayotgan bir

davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotini chuqur o'zlashtirib boy tarixiy tarbiyaviy ta'limiy merosni mukammal egallab mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini rivojlantirish ishlariga safarbar etmoqlari har bir pedagogning fuqarolik burji hisoblanadi.

2.7 Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari.

“Konsepsiya” yoki “konsept” lotincha soʻzdan olingan boʻlib, “tushunish”, “tizim” maʼnolarini anglatib, biror bir narsa buyum, hodisa yoki jarayonni tushunishning maʼlum bir usulini oʻzida ifoda etadi.

Konsepsiya

1) tabiat va jamiyatdagi jarayonlar va narsa hodisalarga doir qarashlar tizimi;

2) islohot, dastur, loyiha, rejalarni amalga oshirishga doir harakatlar strategiyasi;

3) faoliyat xilma xil turlarining konstruktiv tamoyili.

Pedagogika fanida konsepsiya deganda taʼlim, tarbiya, rivojlanish jarayonlari mohiyatini yaxlit hodisa sifatida tushunish asosida uni amalga oshirish vositalar tizimini tashkil etish usuli nazarda tutiladi. Konsepsiyada asosiy eʼtibor pedagogik faoliyat strategiyasini ishlab chiqishning asosiy yoʻnalishlari va tamoyillariga qaratiladi.

-Taʼlim konsepsiyasi pedagogik hodisalarni tushunish, uning yetakchi gʻoyalari tashkil etishga imkon beruvchi tizimlashtirilgan nazariya.

-Konsepsiya (pedagogik) – pedagogik obʼekt mohiyati, tamoyil va metodlari mohiyatini ochib beruvchi yetakchi gʻoyalari tizimi.

- Oʻqitish (taʼlim) konsepsiyasi – oʻquv jarayonining mohiyati, mazmuni, metodikasini tushunishga doir qarashlar tizimi yoki umumlashgan gʻoyalari yigʻindisi.

Talabalarning qobiliyatlarini va mahoratlarini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritishni kengaytirish, insonparvarlik, mehr-muruvvat hislarini tarbiyalash, diyonatni asrash, mehr-oqibatni mustahkamlash, nutq madaniyatini, taraqqiyotini oʻstirish, ahloqiy-estetik kamolotga yetkazish, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdirishda pedagogika fanining roli benihoyat kattadir.

Pedagogika fani rivojining asosiy taraqqiyot yoʻnalishlari

Falsafiy yoʻnalish.

Psixologik yo‘nalish.

Didaktik yo‘nalish.

Kibernetik yo‘nalish.

Matematik yo‘nalish.

Psixoteropevtik yo‘nalish.

Akmeologik yo‘nalish.

Zamonaviy sharoitda pedagogika fanining asosiy vazifalari

Zamonaviy sharoitda pedagogikaning asosiy vazifalari inson turmush tarzining barcha yo‘nalishlari (ijtimoiy, shaxsiy, siyosiy va boshqalari)da samarali pedagogik tizimlarni yaratishga yo‘naltirilgan. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

ta’lim tarbiya, ta’limiy va tarbiyaviy tizimlarni boshqarish sohasiga doir qonuniyatlarni aniqlash va o‘rganish;

pedagogik tajribani o‘rganish va joriy etish;

ta’lim tizimlarining istiqboldagi rivojlanishini tashxis etish;

ta’lim tarbiyaning yangi shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish;

pedagogik tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;

xalqaro pedagogik loyihalarda ishtirok etish, axborotlar almashish, pedagogik yo‘nalishga doir xalqaro tajribalarni o‘rganish;

pedagogik muassasalarning barqaror tizimini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish.

Pedagogikaning rivojlanish manbalari

-turmush tarzi, an‘nalar va marosimlar, Xalq pedagogikasida aks yetgan ko‘p asrlik amaliy tajriba;

-falsafiy, ijtimoiy, pedagogik va psixologik manbalar;

-jahon va milliy tarbiya amaliyoti;

-maxsus tashkil etilgan pedagogik tadqiqot natijalari;

-novator edagoglarning tajribasi.

XXI asrda pedagogika fani rivojining asosiy tendensiyalari

-Pedagogikaning fan sifatida amaliy jihatining kuchayishi.

-Pedagogikaning fan sifatida tabaqalashuvi, ya’ni aniq ob’ekt va predmetiga ega yangi yo‘nalishlarining vujudga kelishi;

-Pedagogikaning boshqa fan sohalari bilan integratsiyalashuvi.

-Pedagogika fanining taraqqiyotiga ta’sir etuvchi ayrim jihatlar

-Matematikstatistik, biopsixologik va gnoseologik semasiologik fanlari natijalaridan keng foydalanish asosida pedagogikaning boshqa insonshunoslik fanlari bilan mustahkam aloqalarini o‘rnatish va ilmiy bilimlarning integratsion jarayonini chuqurlashtirish.

-Dunyoni pedagogik anglashning nazariy fundamental doirasini kengaytirish, ya'ni fanning ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish uchun nazariyadan amaliyotga tomon harakatlanish kerak.

-Pedagogik fanlar taraqqiyotini ta'minlashda matematikstatistik va semantik semasiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanish.

-Ijtimoiy xulq atvor me'yorlarini optimallashtirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda pedagogik jarayonni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratish.

-Pedagogika o'z rivojining individual traektoriyasini saqlab qolishi hamda boshqa fanlarning tushuncha va kategoriyalaridan o'rinsiz foydalanish hisobiga uning tushunarsiz va murakkablashuviga olib kelmaslik.

-Global planetar muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millatlararo va davlatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va ahloqiy me'yorlarning to'liq ta'minlanishiga doir ilmiytadqiqotlarni amalga oshirish.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining ob'yekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.
9. O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.
10. Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalariga nimalar kiradi?

Mavzuga doir testlar



1. (Eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi?

- a) Pedagogik tajriba metodi
- b) Pedagogik axloq metodi

- c) Matematik tahlil metodi
- d) Anketa so'rov metodi

2. Xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmui

- a) Oila pedagogika
- b) Xalq pedagogikasi
- c) Muzei pedagogikasi
- d) Pedagogika tarixi

3. Pedagogik ob'ekt mohiyati, tamoyil va metodlari mohiyatini ochib beruvchi yetakchi g'oyalar tizimi?

- a) Kompetensiya
- b) Konsepsiya
- c) Pedagogik layoqayd
- d) Malaka

4. "Konsepsiya" so'zining ma'nosi?

- a) "Tushunish", "Tizim"
- b) "Loyiqlik", "moslik"
- c) "Bola tarbiyamoq"
- d) "San'at", "mahorat"

5. Pedagogika fani rivojining asosiy taraqqiyot yo'nalishlari to'g'ri berilgan javobni belgilang?

- a) Falsafiy va psixologik yo'nalish
- b) Didaktik, kibernetik,
- c) Matematik, psixoterapevtik, akmeologik
- d) Barcha javoblar to'g'ri

III-BOB. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI



**Tayanch
atamalar:**

Shaxs, induvid, rivojlanish, ijtimoiylashish, kommunikatsiya, xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma, qadriyat, xulq-atvor, me'yor, yosh, fiziologiya, refleksiya, ijtimoiy-falsafiy, institutsional, shaxslararo, ana'naviy, irsiyat, muhit, tarbiya.

3.1 Induvid va shaxs tushunchasi

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

«Induvid» lotincha so'zdan olingan bo'lib, bo'linmas yagona degan ma'nolarni beradi. Inson ma'lum yoshga qadar induvid bo'ladi. Induvid xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarning o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik biologik mavjudot hamdir.

Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlari birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

3.2 Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuvi bilan aloqadorligi.

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan: shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rin tutadi; bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega; shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va

kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi; shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi.

- mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi; shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi;

har bir davrda shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon boladi;

Ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarni qamrab oladi. Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarini qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'larini belgilay olganida, o'z qadr qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'miga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi - ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatleri, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil - madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi.

Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni — tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik

tizimning subekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi - insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo'lib etishishiga, jamiyatda o'z o'rnini va xulq-atvorini, o'z istak-maqсадlarini yo'nalishini angelaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo'nalgan shaxs bo'lishiga yordam berishdir. Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:

ana'naviy - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda, maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

institutsional - ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

shaxslararo - o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

refleksiv - o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'lab-quvvatlash orqali individual ongning taraqqiy ettirish.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud: ana'naviy, institutsional, shaxslararo, refleksiv o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo'nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yoigga qo'yishda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajriba kabilar kiradi. Ijtimoiy tajriba o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o'zida aks yettirib, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig'indisini o'zida aks yettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini korreksiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan «o'z-o'zini boshqarish tajribasini ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. o'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida individni subekt-subekt munosabatlariga jalb etish;

subektda tashabbuskorlikni shakllantirish;

hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi, tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi hatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks yettiradi. „O'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo'naltirilgan sohalar uyg'unligini talab etadi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

ijtimoiy moslashuv- ijtimoiy vaziyatlarda o'zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik;

loyihaviy - ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish;

interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

3.3 Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida

tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

IRSIYAT — organizmning o'z belgilari va xususiyatlarini kelgusi avlodlarga o'tkazish, ya'ni organizmlarning o'ziga o'xshash nasllarni bun-yod etish xossasi. Irsiyat tufayli avlodlararo moddiy va funksional izchillik ta'min etiladi. Irsiyat har xil turlarga mansub organizmlar belgi va xususi-yatlaridagi tafovutlarning avlodlar osha saklanib qolishini ham ta'minlaydi. Organizmlarning o'zaro o'xshashlik va qarindoshlik darajasiga bi-noan oila, urug', tur kabi sistematik guruhlariga muayyan tartibda taqsimlanishining asosida ham Irsiyat yotadi. Irsiyat tufayli bitta sistematik guruhga mansub organizmlar belgilarining turg'unligi, ya'ni o'zaro o'xshashligi b-n birga ularning bir-biridan farq qiladigan belgilar ham saqlanib qoladi. Irsiyatning muayyan bir yo'nalishda ta'siri tufayli organizm belgilarining avlodlar osha turg'unligi ta'min etiladi. Irsiyat organizmlar on-togenezing turg'unligi, ontogenez bosqichlari ketmaketligini va bu jara-yonlarda moddalar almashinuvi xususiyatlarini belgilab beradi. Irsiyatning yana bir xususiyati uning o'zgaruvchanligidir (q. O'zgaruvchanlik). Binobarin organizmlar irsiy belgilarining turg'unligi mutloq bo'lmaydi. Turli xil organizmlar bir-biridan turg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Mac, paleozoy erasi perm davridan saklanib qolgan ochiq urug'lilar vakillaridan ginko (*Ginko biloba*) ni qazilma ajdodlari bilan solishtirilganda million yillar o'tgan bo'lishiga qaramay bir qancha irsiy belgilar deyarli o'zgarishsiz saklanib qolganligi ko'zga tashlanadi. Xuddi shu tariqa panjaqanotli latimeriya balig'i (*Latimeria chalumnae*) ham million yillardan buen deyarli o'zgarishsiz Hind okeanining jan.-g'arbiy qismida saklanib qolgan. Lekin aksariyat hollarda Irsiyatning turg'unligi muayyan darajada nisbiy bo'ladi. Organizm genetik omillar va yashash sharoitining o'zaro ta'siri natijasida rivojlanganligi tufayli Irsiyat xam genotip va tashki sharoitning ta'sirida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda Irsiyat xromosomalar tarkibidagi DNK molekulasida joylashgan genlar orqali amalga oshadi. Bunday Irsiyat xromosoma yoki yadro irsiyat deyiladi. Genlarning nisbatan kam qismi sitoplazmada joylashgan pla-stidalar va mitoxondriyalarda, ya'ni xromosomalar bilan bog'liq bo'lmagan hujayra elementlarida joylashgan bo'ladi. Bu genlar faoliyati orqali amalga oshadigan Irsiyat sitoplazmik Irsiyat deyiladi. Irsiyat tufayli organizmlar har xil guruhlarining nisbatan mustaqilligi, ularning yaxlit sistema (populyatsiyalar, turlar) sifatida muayyan yashash sharoitiga moslashganlik

xususiylari saqlab qolinadi. Illy sababdan Irsiyat evolyutsion jarayonning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Genetik tadqiqotlar natijasida qator Irsiyat qonunlari kashf etildi. Mendel tadqiqotlaridan kelib chiqadigan Irsiyat qonunlari quyidagilardan iborat: organizm belgi va xususiylarining irsiy asosini genlar tashkil etadi; birligi boʻlgan genlar nisbatan turgʻundir; har bir gen har xil allel (dominant va retsessiv) xrlatda boʻladi; tana hujayralarida genlar jinsiy hujayradagiga nisbatan ikki hissa koʻp.

Amerikalik T. Morgan tadqiqotlari negizida quyidagi Irsiyat prinsiplari aniqlandi: gen xromosomaning lokus deb nomlangan maʼlum bir qismida oʻrnashgan; allel genlar gomologik xromosomalarning aynan oʻxshash lokuslarida oʻrin oladi; genlar xromosomalarda muayyan tartibda bir qator boʻlib joylashgan; jinsiy hujayralarda xromosomal soni tana xujayralariga nisbatan ikki hissa kam (gaploid) boʻladi. Zigotada genlar jinsiy hujayralarning xromosomalari qoʻshilishi ham ikki baravar ortadi va somatik hujayralarda boʻlganidek diploid holatga oʻtadi. Irsiyat prinsiplari negizida genlarning molekulyar genetik strukturasi va funksiyasi haqidagi taʼlimot yotadi. Irsiyat qonuniyatlarini oʻrganish q. x. amaliyotida va tibbiyotda muhim ahamiyatga ega³.

MUHIT **مُحِيط** — oʻrab olgan, ihota etgan, ihota etilgan⁴. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi taʼsir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani oʻzi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy tnuhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs boʻlib kamolga yetishida nasi (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning taʼsirini aniqlashda ilgʻor pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar taʼlimotiga suyanilijdi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqetik deb qaraladi. Ular individning maʼnaviy boyligi uning munosabatlariga bogʻliq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa oʻz navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs maʼlum ijtimoiy

³ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/irsiyat/>

⁴ <https://uz.wiktionary.org/wiki/muhit>

tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lishining rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsiga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan yana bir bu tarbiyadir.

TARBIYA — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar,

intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi⁵.

Tor ma'noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi Tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday Tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan.

1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi — qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>

4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

3.4 Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik(jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy yetib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy fikrsiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tusbunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan,

mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib olganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bolishi mumkin.

Masalan, qolish va yeshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yerinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha boigan davr.
2. Bog'chagacha boigan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha boigan yosh davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) - 7 yoshdan 11-12 yoshgacha.
5. O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar, ilk o'spirinlar) -12 -17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);

- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3—4 yosh);
- o‘rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5—6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta’lim).

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini yendi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o‘shishga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan yehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va .o‘rganishga qiziquvchan boladi.

O‘rta va katta maktab yoshi (o‘smirlik, ilk o‘spirinlik 12-17 yosh). Q‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bogliqdir.

Bolaning o‘shishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fei-atvoriga ta’sir etadi. Q‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarinmg o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Ilk o‘spirinlik balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy etilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar.

Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, histuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga yergashish kuchayadi. Bu davrda ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari muayan maqsadga yo‘naltirilgan bolishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O‘spirinlik - bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarim mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislaflarini namoyish yeta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yoliatirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki boladi.

O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal yeta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan oichavdilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz. to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoadagi shaxslar bilan muomaiamuloqoti muhimdir. Albatta, bu borada ta'lim muassasasida faoliyat kolsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo'lib, ulammg bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jarmyatnmg faol fiiqarosi bolishining muhim shartidir.

Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. Gender» atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosmi bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol organilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. «Gender tarixi», «Gender psixologiyasi», «Falsafaning gender tomonlari», «Gender antropologiyasi», «Gender sotsiologiyasi», keyinchalik esa «Gender pedagogikasi» kabi fan tarmoqlari shakllandi. «Gender» tushunchasi, avvalo, yerkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlanmng ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar:

«Gender» inglizcha so'z bo'lib, jmsga mansublikmng ijtimoiy iihatlarini ma'nosini anglatadi... Bu tushuncha yerkaklar va ayollar o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatnmg jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Yerkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bogliqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. Psixologlar ham gender tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik qolmishidir. Olimlar orasida bu xususiyatlamng qaysi biri tug'ma, qaysi biri esa ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to'g'risida keskin munozaralar bormoqda. O'g'il va qiz bolalarning har bir Xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum boladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.Ye.Taras, 2002) qizlar o'g'il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq

deb ta'kidlashadi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda o'ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalari bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni engilroq qabul qilishadi. O'zgaruvchan muhitga fez moslashishadi. O'g'il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o'rganib, keyin unga baho berishadi.

Pedagogik ma'noda gender - o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy ijtimoiy madaniy birligi bolib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va yemotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda o'g'il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, yemotsional, xulq-atvorga oid farqlar toliq o'rganilgan. Ana shu asosdan kelib chiqib, o'quvchilarning rivojlanishida hisobga olish lozim bo'lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ikki marta ko'proq savol berishadi;

qizlar to'g'ridan-to'g'ri o'zining istaklari haqida gapirmaydi, lekin tezda kelishib ketadi;

o'g'il bolalar esa, hal qiluvchi fikrni ayta olishadi va o'z nuqtai nazarida qolishni afzal ko'rishadi;

mustaqil hal etish bilan bog'liq vazifalarni bajarishda o'g'il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi;

o'g'il bolalar ko'proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantig'iga e'tibor berishadi; qizlarga ko'proq psixologiya, adabiyot yoqadi;

o'g'il bolalar dialog, munozarani afzal ko'rishadi;

qiz bolalar monologlikka moyil, yeshitishni va o'zida aks yettirishni yoqtiradi;

o'g'il bolalar ko'proq virtual (mo'jiza)likka, xayolotga qiziqishadi;

qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ratsional va pragmatik. Ular o'z tanlovlarini foydalilik nuqtai nazaridan, ya'ni tanlanayotgan narsa qanchalik maqsadga erishishga imkon berishiga qarab amalga oshirishadi;

o'g'il bolalar o'z tuyg'ularini ochiq bayon etishadi;

qiz bolalar o'z xohish va istaklarini yashirishadi, aytish uchun uzoq vaqt kutishadi.



Mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar:

1. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering?
2. Shaxsning ijtimoiylashuvi deganda nimani tushunasiz?

3. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimani bilib oldingiz?

4. Irsiyat, muhit, tarbiya atamalariga izoh bering?

5. Shaxsning rivojlanishiga va ijtimoiylashi ta'sir etuvchi yondashuvlar haqida nima deya olasiz?

6. Yosh davrlari haqida so'zlab bering?

7. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari haqida so'zlab bering?

8. Berilgan ma'lumotlar asosida shaxsning rivojlanishi doir taqdimot tayyorlang?



Mavzuga doir testlar

1. Lotincha so'zdan olingan bo'lib, bo'linmas yagona degan ma'nolarni beradi...

- a) Induvid
- b) Shaxs
- c) Rivojlanish
- d) Kompetenlik

2. Gender» atamasi qachon fanga kirilgan?

- a) 1968-yilda
- b) 1875 yilda
- c) 1994 yilda
- d) 1886 yilda

3. Gender atamasini fanga kiritgan olim?

- a) amerikalik psixolog olim Stoller
- b) rus olimi Ushunskiy
- c) chek pedagogi Komenskiy
- d) o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy


4. Gender so'zining ma'nosi?

- a) Irq
- b) Ruhiyat
- c) Jins
- d) Shaxs

5. Aqliy faoliyatning rivojlanish davri?

- a) Go'daklik
- b) Ikk o'spirinlik
- c) Bolalik
- d) O'spirinlik

IV-BOB. TA'LIM JARAYONINING MOHIYATI



**Tayanch
atamalar**

Didaktika, bilish, o'qish, o'qitish, o'rganish, bilim, tarbiya, ta'lim, o'rgatish, pradigma, tendensiya, ta'lim jarayoni, o'qitish nazariyasi, ta'lim turlari, dars,

4.1 "Didaktika" tushunchasining mohiyati.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir. Didaktika yunoncha "didaktikos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi. Didaktikaning predmeti ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida pedagog rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir.

Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Yaqin va O'rta Sharqda Al-Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasir Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo'lsalar, Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I.G.Pestalossi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Al-Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

Al-Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muvofiqlashtirdi.

Kindiy nazariyasida barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda, eng avvalo, miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u nazariyani bilishdan ham maxrumligini uqtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalarida

hissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Hissiy bilish yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, oqilona bilish umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi. Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. "Haqiqat, - deb yozgan edi Kindiy, har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyliги bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin".

Abu Nasr Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan.

O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan.

Abu Nasr Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali amalga oshadi.

Mantiq, ob'yekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Abu Nasr Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo'lsa-da, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart:

1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to'liq bilish.
2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish.

3. Noto'g'ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish. Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammosi va eng asosiy masala bilishning manbalari masalasi doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi.

Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida tahlil va talqin qildi. U o'zidan oldingi olimlar ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib, didaktik yo'sinda muhim xulosalar chiqardi:

“O'qish va takrorlash orqali, - deb yozgan edi Beruniy, dunyoning tuzilishini, osmonning va yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at ahli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini anglaydi.

Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi”.

Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rmishim tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi. Olim aqliy faoliyatni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va

yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatdir.

O'zbek ma'rifatparvarlaridan Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. "Alhosil, - deb yozgan edi u, butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdur"⁶.

Abdulla Avloniy ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta'limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi Avloniy ta'lim bilan tarbiya o'rtasida ozgina farq borligini aytgan bo'lsa ham, ular tana va jon singari bir-biriga chambarchas bog'liqdir, deydi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo'ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o'qitish san'ati sifatida, shuningdek, o'ziga xos amaliy ko'nikma sifatida qaraganlar.

Didaktika tushunchasini Yan Amos Komenskiy (1592-1670) ham ana shu yo'sinda sharhlagan. Kelajak avlodga tizimli ta'lim berish jarayoni va o'qitishning xususiyatlari va qonuniyatlarini mantiqiy va izchil o'rganadigan, uning o'ziga xos jihatlarini belgilab beradigan, inson sivilizatsiyasining rivojlanish jarayonida shakllangan ilmiy soha - didaktikadir.

Mazkur termin yunon tilidan olingan bo'lib, (didaktikos), "o'rgatuvchi", didasko esa "o'rganuvchi" ma'noni anglatadi. Ushbu tushuncha pedagogik atama sifatida nemis olimi Ratke (Ratixiem) (1571-1635) tomonidan kiritilgan bo'lib, u didaktikani ta'lim berish san'ati, ya'ni amaliy ko'nikma sifatida ko'rgan. Mazkur tushuncha turli tarixiy davrda turlicha talqin qilib kelingan.

⁶ Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud ahloq. T., O'qituvchi". 1992- y, 23- bet
Michael Utjens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model! Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008 y

Ya.A. Komenskiy (1592-1670) o'zining "Buyuk didaktika" asarida didaktika "barchani barcha narsaga o'qitishning universal san'ati", "ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish" vazifasini bajaradi, degan g'oyani ilgari surgan;

I.F.Gerbart (17762-1841) didaktikaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda ta'lim va tarbiya, o'qitish va o'qish jarayonlarini birlashtirgan holda "tarbiyalovchi ta'lim" deb tushungan;

D.Dyui (1859-1952) ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'quvchining faolligiga, shaxsiy tajriba va aqliy faoliyat qobiliyatini shakllantirish asosidagi amaliy faoliyat tamoyillariga qaratgan.

Mazkur pedagogik yondashuvlar va konsepsiyalar didaktikani o'qitish va o'rganishning nazariyasini tavsif qiluvchi fan sifatida tushunishga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazdi. Bir vaqtning o'zida didaktika umumlashgan ijtimoiy va madaniy tajribani keyingi avlodga tizimli yetkazish bilan bog'liq fan sifatida shakllanganligiga ehtibor qaratish mumkin. Shu bilan birga, taniqli bo'lgar faylasufi va pedagog olimi I.Marev didaktikaning tarixiy rivojlanish davrlarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratgan.

Birinchi bosqich - Ya.A.Komenskiygacha bo'lgan davr. Ushbu bosqich o'rta asr sxolastikasi hukmronlik qilgan sharoitda ilmiy asoslanmagan "pedagogik va didaktik ijodiyot" shakllanganligi, didaktik jarayonni anglash, "tarbiya an'analari va udumlari" rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ikkinchi bosqich — Ya.A.Komenskiydan kibernetika fani (boshqaruv jarayonlari nazariyasi) kirib kelgungacha bo'lgan davrni (1950) o'z ichiga oladi va ushbu bosqichda pedagogik va didaktik nazariyalarning rivojlanishi, ularning asosiy qonun va qonuniyatlarining shakllanishi bilan ajralib turadi.

Uchinchi bosqich - kibernetika fani kirib kelishidan hozirgi kungacha bo'lgan davrdir. Ushbu bosqich hal qiluvchi bosqich bo'lib, pedagogika va didaktikaning dolzarb vazifalarini yechish, yangi didaktik materiallarni yaratish va ulardan samarali foydalanish, o'qitishning texnik vositalarini, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlarning yaratilishi bilan bog'liq.

Didaktikaning fan sifatidagi ko'p asrlik tarixi davomida "pedagogika" va "didaktika" ilmiy kategoriyalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga doir turli yondashuvlar shakllandi. I.Marev va boshqa mutaxassislar fikricha pedagogika va didaktika o'rtasidagi

munosabatlar quyidagi konseptual yondashuvlar asosida talqin etilishi mumkin:

- pedagogika va didaktika o'xshash tushunchalar;
- pedagogika va didaktika o'rtasida yaxlitlik va uning tashkil etuvchisi (bir qismi) sifatida munosabatlar shakllanganligi;
- "didaktika" - "pedagogika" nisbatan hajm jihatidan kengroq tushuncha;
- pedagogika va didaktika alohida mustaqil fanlar;

Yevropa va Amerika, sobiq ittifoq hamda Sharqiy Yevropa pedagog olimlari tomonidan ham mazkur ilmiy sohalar (pedagogika va didaktika) o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro bog'liqliklar turlicha talqin qilib kelingan, yagona yondashuv va konseptual pozitsiyaga kelinmaganligining asosiy sababi "didaktika" tushunchasining o'zini talqini turlicha bo'lganligidadir. Bu boradagi an'anaviy yondashuvga asosan didaktika pedagogikaning bir qismi sifatida qaraladi⁷.

4.2 Didaktikaning asosiy tushunchalari.

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Didaktika uchun «umumiy va alohida», «mohiyati va hodisa», «qarama-qarshilik», «bog'liqlik» kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega.

Didaktikaning kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi.

TA'LIM

O'quvchilarga yoki talabaga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

**TA'LIM
JARAYONI**

O'qituvchi va o'quvchi yoki talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

BILIM OLISH

Idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarning mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

⁷ Michael Utjens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model! Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008 y

DARS

Bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

O'QUV FANI

Ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba;

**TA'LIM
MAQSADI**

(o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

**TA'LIM JARAYONINI
TASHKIL ETISH**

O'qituvchi va o'quvchi yoki talabalar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning tashkiliy - metodik jihatdan to'g'ri uyushtirilishi;

**TA'LIM
TAMOYILLARI**

Ta'lim nazariyasining asosiy yetakchi qoidalari;

TA'LIM TURLARI

Mazmuni, tashkil etilish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan asosiy vositalari va jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rimshlari;

TA'LIM SHAKLI

Ta'lim jarayonining tashkiliy qurilishi;

**TA'LIM
METODLARI**

Ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi uslublar majmui yoki ta'lim jarayonida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishishda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'zaro bog'lovchi usul, yo'l;

**TA'LIM
VOSITALARI**

O'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'yektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, diaproskop, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

TA'LIM NATIJASI

(ta'lim mahsuli) ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha, o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham qayd etish mumkin.

Ta'lim jarayoni tartibga (tizimga) soluvchi tushuncha sifatida ta'lim maqsadi, o'qituvchi faoliyatida va uning natijasida ko'rinadi. Bu jarayonning o'zgarishini paydo etuvchi boshqarish vositalari yuzaga keladi. Mazkur vositalar o'z ichiga o'quv materialining mazmunini, hajmini, o'qitish metodlarini, ta'lim vositalarini, o'qitish shakllarini, tashkil qilish jarayonini va o'qituvchi, o'quvchi talabalarning o'quv faoliyatini qamrab oladi. Bu qismlar o'zaro mustahkam birlikda bo'ladi va tarbiyaning umumiy maqsadiga bo'ysinadi - xizmat qiladi. Bilim berish va bilim olish maylida kechadigan munosabatlar tizimi shakllanadi, bu pedagogik jarayonni tashkil qiladi.

4.3 Ta'lim paradigmalari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma

Aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Ta'limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim

shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.

Natijada ta'limga yangicha yondashuv yotadigan g'oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'lim ot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalar farqlanadi.

Ta'limning keng tarqalgan beshta paradigmasi mavjud: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi); ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmada ta'limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an'anaviy paradigмага qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmuni emas, o'quvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta'lim muassasasining maqsadi – ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi

“barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg‘usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraydi, ya’ni har qanday ta’lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta’limiy mexanizmi. Bunday o‘qitishning asosiy metodlariga o‘rgatish, trening, test nazorati, individual o‘qitish, korrektsiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo‘lgan, hayot sub’yekti, shaxs erkinligi va ma’naviyati sifatidagi ta’lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o‘sishi uchun yordamga yo‘naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta’limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya’ni ta’lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e’tirof etish yagona yo‘nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta’lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta’lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o‘qituvchi, ham o‘quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

– ta’limning ijtimoiylashuvi – o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta’minlash, o‘qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

– milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish;

– ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g‘oyalariga asoslanish;

– shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

– o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o‘qituvchi hamda talabalarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

– ta’lim (xususan, kasbiy ta’lim i) jarayonida o‘quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko‘ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

– pedagogik ta’limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya’ni, talabalar tomonidan o‘zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta’minlovchi invariant bilimlarning o‘zlashtirilishiga erishish;

– mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi ehtiyojlarga to‘laqonli javob bera oladigan ta’limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

– ta’limning uzluksizligi, ta’limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta’minlovchi kasbiy ta’lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta’limning u yoki bu bosqichida o‘qitilishi yoki o‘qishni boshqa tipdagi o‘quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

– ta’limning ekvivalentligi, ya’ni uning davlat ta’lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me’yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o‘rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo‘q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyali – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo‘ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta’limiy paradigmalardan biri. Mazkur so‘zning yunonchadan so‘zma-so‘z tarjimasi «sirli», «yashirin» ma’nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o‘zgarmas haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o‘quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo‘lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchining muhim

muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

4.4 Ta'limning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, ularning bog'liqligi.

O'quv vazifalari o'quv jarayonining mohiyatini tavsiflaydi, vazifalar esa o'quv tarkibiy qismlaridan biridir.

Didaktik maqsad shundan iboratki, o'quv jarayoni birinchi navbatda bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga qaratilgan. O'zlashtirilgan, ichkilashtirilgan bilimlar to'liqlik, izchillik, xabardorlik va samaradorlik bilan tavsiflanadi. Zamonaviy didaktika bilim o'quvchining ko'nikmalarida topiladi va shuning uchun ta'lim "abstrakt" bilimlarni shakllantirishda emas, balki yangi bilimlarni olish va hayotiy muammolarni hal qilishda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat deb hisoblaydi.

Demak, o'rganishning tarbiyaviy funksiyasi o'rganish bilim bilan birga umumiy va maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligini nazarda tutadi. Maxsus ko'nikmalar deganda fanning ma'lum sohalari, o'quv predmetlaridagi faoliyat usullari tushuniladi. Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqqa, axborot materiallariga ega bo'lish, o'qish, kitob bilan ishlash, xulosa chiqarish kiradi.

Ta'limning rivojlantiruvchi maqsadi deganda, o'rganish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'ladi. Ushbu rivojlanish barcha yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutq, fikrlash, shaxsning hissiy va motor sohalari, hissiy-irodaviy va ehtiyoj-motivatsion sohalarning rivojlanishi. O'rganishning rivojlantiruvchi funktsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra psixologiya va zamonaviy didaktikaning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar muammosini tashkil etadi.

Ta'limni zamonaviy tashkil etish nafaqat bilimni shakllantirishga, balki o'quvchini har tomonlama rivojlantirishga, birinchi navbatda, aqliy faoliyatni o'rgatish, tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish qobiliyatini o'rgatish, aqliy faoliyat usullarini o'rgatish. ob'ektlarning muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, faoliyatning maqsadlari va usullarini aniqlash va ularning natijalarini tekshirish qobiliyatini o'rgatish.

Har qanday o'qitish rivojlanishga olib keladi, ammo ta'lim rivojlanish xarakteriga ega, agar u shaxsni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, bu ta'lim mazmunini tanlashda ham, ta'lim jarayonini didaktik tashkil etishda ham amalga oshirilishi kerak.

O'quv jarayoni ham tarbiyaviy xususiyatga ega. Pedagogika fani tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik, xuddi ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi munosabat kabi ob'ektiv qonuniyat deb hisoblaydi. Biroq, o'quv jarayonida ta'lim ta'siri bilan murakkablashadi **tashqi** omillar (oila, tashqi muhit va boshqalar), bu esa tarbiyani yanada murakkab jarayonga aylantiradi.

Ta'limning tarbiyaviy maqsadi shundan iboratki, o'rganish jarayonida axloqiy-estetik g'oyalar, dunyoga qarashlar tizimi, jamiyatdagi xulq-atvor normalariga rioya qilish, unda qabul qilingan qonunlarga rioya qilish qobiliyati shakllanadi. O'quv jarayonida shaxsning ehtiyojlari, ijtimoiy xulq-atvor motivlari, faoliyati, qadriyatlarini va qadriyatlariga yo'naltirilganligi, dunyoqarashi ham shakllanadi.

Talabalarga bilim olishda shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi, birinchidan, o'quv materialini o'zining ta'lim salohiyati nuqtai nazaridan tahlil qilishi va tanlashi, ikkinchidan, o'quv va muloqot jarayonini shaxsiy idrokni rag'batlantiradigan tarzda qurishi kerak. Talabalar tomonidan o'quv ma'lumotlari, ularda o'rganilayotgan narsaga faol baho berish, qiziqishlari, ehtiyojlari, insonparvarlik yo'nalishini shakllantirishdan iborat.

4.5 Ta'lim jarayoni mohiyati, qonuniyatlari va prinsiplari.

Ta'lim qonunlari, qonuniyatlari va prinsiplari muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammosi hisoblanadi. Ular ko'p marotaba mutaxassislar tomonidan muhokama qilinganligiga qaramasdan, bugungi kunda ham ushbu tushunchalarni chegaralari aniqlashtirilmaganligiga guvoh bo'lamiz. Pedagogikada «qonun» va «qonuniyat» tushunchalari falsafiy kategoriya sifatida qo'llaniladi.

Qonun — bu hodisa va jarayonlar o'rtasidagi zaruriy, mavjud, takrorlanib turuvchi munosabatlardir. Qonun predmetlar orasidagi aloqadorliklarni ifodalaydi.

Falsafada qonuniyat — qonunga qaraganda keng tushuncha hisoblanadi.

Qonuniyat – ko'plab qonunlar harakatlari yig'indisi natijasidir. Shuning uchun qonuniyat ko'plab aloqa va munosabatlarni ifodalaydi.

Ta'lim qonuniyati — bu ta'lim jarayoni komponentlari, qismlarini orasidagi takrorlanib turuvchi aloqalaridir. Ta'lim omillari va hodisalari orasidagi aloqadorliklarni ifodalovchi ta'limning ob'yektiv qonun va qonuniyatlari didaktik jarayonni rivojlanishining umumiy ko'rishini tushunish imkoniyatini yaratadi. Biroq ular amaliy faoliyat uchun ko'rsatma bera olmaydi, faqatgina ushbu ko'rsatmalarni yaratish va texnologiyalarni ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Har qanday fan tabiat va jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni qonunqonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Demak, tabiat qonunlarini tabiiy fanlar, jamiyat qonunlarini ijtimoiy fanlar, tafakkur qonunlarini gumanitar fanlar o'rganadi.

Yuqoridagi qonunlar dialektika qonunlari deb yuritiladi. Shu bilan birga tor doiradagi hodisa va jarayonlarni ham o'z qonunlari mavjud. Jumladan ta'lim jarayonining qonuniyatlari. Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Qonuniyatlar—ta'lim jarayonida takrorlanib turadigan ichki bog'lanishlardir.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus ta'lim nazariyachilari N.A.Sorokin, I.Ya.Lerner, Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, I.V.Zagviyazinskiylar tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta'lim jarayonini ongli, samarali boshqara oladi. O'qituvchi unutmazligi kerak, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud.

Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining prinsiplari va qoidalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. «Prinsip – lotincha «principium» so'zidan olingan bo'lib, asos, boshlang'ich holat, asosiy rahbar g'oya, xulq va faoliyatning asosiy qoidasi kabi ma'nolarni anglatadi»⁸. Ilk antik falsafada birinchi ibtido sifatida suvni, havoni, olovni, tuproqni qabul qilganlar.

Prinsipni esa zaruriyatning yoki hodisalar qonuniyatining ifodasi sifatida talqin qilishgan. Mantiqiy ma'noda prinsip tizimning tushunchasi, asosi bo'lib bu asos biron qoidani umumlashtirishdan va uni ayni abstraksiya qilib olingan sohadagi barcha hodisalarga joriy etishdan iborat.

Prinsiplar ta'lim-tarbiyaning aniq shakllarida, sharoit va omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Ular ma'lum bir davrda ta'limga qo'yilgan talablar

⁸ [Словар. ин. слов. М. 1955. 563 б]

asosida paydo bo'ladi. Qonuniyat ob'yektiv xarakterga, prinsip esa subektiv xarakterga ega. Masalan, o'qituvchi u yoki bu prinsipga amal qilmasligi mumkin, bu bilan ta'lim jarayoni yo'q bo'lmaydi, biroq ta'lim samarasi kam bo'lishi mumkin.

Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini uyg'unlashtirishda ta'lim qonuniyati va prinsiplari xizmat qiladi. Pedagogik ensiklopediyada: «Ta'lim prinsiplari bu ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tarbiyaning umumiy maqsadlariga muvofiq ravishda maktabdagi o'quv ishlarining tashkiliy shakllari, metod va mazmunini aniqlovchi didaktik kategoriyadir». Bu nihoyatda keng ma'noda berilgan ta'rif bo'lib, maktab faoliyatini to'laligicha qamrab olyapti, uning strategik rivojlanishida asosiy poydevor, tayanch sifatida qabul qilinayapti. Bu holatni I.T.Ogorodnikov (1950) ham qayd etib, ta'lim jarayonining umumiy tavsifidan asosiy ko'rsatmalar kelib chiqishini uqtiradi: «maktab ta'lim jarayonini o'tkazishni aniqlovchi asosiy ko'rsatmalar ta'lim prinsiplari deb nomlanadi»⁹.

Didaktshunos olim M.N. Skatkinning (1982) ta'kidlashicha, «ta'lim prinsipi – bu o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyati asosida, zarur bo'lgan natijaga olib keladigan qoidani keltirib chiqaradi»¹⁰. Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati va o'quvchining o'rganuvchilik ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar mohiyatini tashkil etadi.

Ta'lim prinsiplari – bu ta'lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda o'qitish qonunlaridan foydalanish usullarini xarakterlovchi didaktik kategoriyadir. Ma'lumki, har qanday fan borliqdagi mavjud hodisa va jarayonlarning ob'yektiv qonun va qonuniyatlarini ochish bilan shug'ullanadi. Bu qonunlar insonga tabiat va ijtimoiy hayotning rivojlanish mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Shu bilan birgalikda bu qonunlar amaliy xatti-harakat uchun ko'rsatma bo'la olmaydi, balki ular amaliy faoliyat texnologiyasi va qoidalarini ishlab chiqish uchun nazariy asos hisoblanadi. O'quv jarayonining ob'yektiv rivojlanishi qonuniyatlarini bilish asosida o'qituvchini amaliy faoliyatga yo'llaydigan prinsip va qoidalar ishlab chiqiladi. Bu yerda o'zaro bog'liq uchta tushuncha «qonuniyat», «prinsip», «qoida»ga urg'u berilyapti.

⁹ И.Т.Огородников, Шимбирев П.Н. Педагогика М., Уч. Пед.,-1950. 108 б

¹⁰ Скаткин М.Н. Дидактика средней школы. М.: «Просв.», 1982. 117 б..

Ta'lim prinsiplarida ta'limning me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Ular asoslanmaydigan toifaga mansub bo'lib, o'quv amaliyotining yoyilishidan kelib chiqishi va o'zida o'quv jarayonining qonuniyatlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak, prinsip o'quv jarayonining umumiy yo'nalishini va asosiy talablarini aniqlashtirib beradi. Yoxud prinsip tushunchasi «nima uchun» yoki «qanday o'qitish kerak» degan savolga to'laqonli javob beradi. B.N.Savin (1975) o'rganilayotgan muammoga o'quvchini tarbiyalash maqsadi mavqeidan yondashadi: «Ta'lim prinsiplari tarbiya maqsadlariga va o'qitish jarayoni qonuniyatlariga muvofiq tarzda dars berish va o'qitish jarayonini belgilashga xizmat qiluvchi asosiy rahbar qoidalardir».¹¹

4.6 Ta'lim mazmunini shakllantirish prinsiplari.

Hozirga qadar ta'lim prinsiplari tizimining ilmiy asoslari mukammal ishlab chiqilmagan. Ta'lim jarayonini rivojlantirish prinsiplari boshqa didaktik kategoriyalar kabi pedagogika fanining zamonaviy taraqqiyot darajasi va yosh avlodni tarbiyalash sifati talablari asosida aniqlashtirilishiga muhtojlikni sezmoqda. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim prinsiplari ijtimoiy hayotning o'zgarishi, pedagogika fanining rivojlanishi bilan o'zgarib turadi: yarim didaktik prinsiplar yo'qoladi, o'rniga yangi didaktik prinsiplar kirib keladi. **Ta'limning ilmiyligi prinsipi** o'quv predmetini zamonaviy fan yutug'i zaminida bayon qilishni, o'quvchilarni o'quv faoliyatini tashkil etishda muammoli vaziyatlarni yaratishni, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni turli kuzatishlarini, ilmiy baholarni, qo'shimcha ilmiy axborotlarni izlashni, o'z nuqtayi nazaridan isbot qilishni talab etadi. Ta'limda ilmiylik prinsipi ta'lim mazmunini dunyo sivilizatsiyasida jamlangan, tajribalarga, zamonaviy fan va texnikani rivojlanish darajasiga mos bo'lishini ifodalaydi. Ushbu prinsip o'quvchilarni o'zlashtirishi uchun fan tomonidan asoslangan, (ob'yektiv ilmiy faktlar, konsepsiyalar, nazariyalar, qonunlar, qonuniyatlar, turli sohalardagi yangiliklar) bilimlarni taqdim etishni talab etadi. Ilmiylik prinsipiga amal qilish qoidalari:

- o'rganiluvchi fanni mantig'ini va tilini qo'llash;

¹¹ Савин Н.В. Педагогика Ташкент «Ўқитувчи» 1975.

- asosiy tushuncha va nazariyalarni bayon etishda maksimal darajada ushbu fan masalalarini zamonaviy tushunchalar bilan yaqinlashtirib bayon qilish;

- fanni aniq metodlarini qo‘llash;

- ob‘yektning rivojlanishda o‘rganish, ijtimoiy va tabiiy hodisalarni dialektikasini ochib berish va dialektik fikrlashni shakllantirish;

- o‘rganilayotgan ob‘yektlarni to‘g‘ri qabul qilinishini ta‘minlash va ularni asosiy tomonlarini ajratish;

- ta‘limda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni bilishning ilmiy metodlarini qo‘llash.

Ta‘limda moslik prinsipi Ta‘limda moslik prinsipi o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materialining hajmi va mazmuni hamda metodlari o‘quvchilarni o‘zlashtirish imkoniyatlariga va ularning aqliy, axloqiy, estetik rivojlanganlik darajalariga mos bo‘lishini talab qiladi. O‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining mazmunini o‘ta murakkabligi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini pasaytirib, ularda ishchanlikni yo‘qolishiga olib keladi. Bu degani moslik prinsipi ta‘lim mazmuni oddiy, elementar bo‘lishi kerak degani emas. Amaliyot va izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan mazmun oddiy, elementar bo‘lganda ham o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari pasayib, o‘qishga bo‘lgan qobiliyatlari rivojlanmaydi. Ta‘lim jarayonida ta‘limni rivojlantiruvchi funksiyasi amalga oshmaydi. Shulardan kelib chiqib, taniqli rus pedagogi va psixologi L.V.Zankov rivojlantiruvchi ta‘limning o‘qitishda yuqori darajadagi qiyinchilik darajasi prinsipini asoslab berdi. Amaliyotda moslik prinsipiga amal qilishning quyidagi qoidalari mavjud: – ta‘limda osondan murakkabga, ma‘lumdan noma‘lumga, yaqindan uzoqqa borish; – oddiy, tushunarli tilda tushuntirish;

- o‘quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish;

- o‘quvchilarni o‘quv materialini qabul qilish tezligi farqlarini, ishlash tempini, qiziqishlarini, hayotiy tajribasini, rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish; analogiyalashni, qiyoslashni, taqqoslashni, qarama-qarshi qo‘yishni qo‘llash; Har bir yangi tushunchani kiritish nafaqat qo‘yilgan bilish vazifalari mantig‘idan kelib chiqishi, balki ta‘limning o‘tgan bosqichlaridan tayyorlanishi kerak; moslik ishchanlik qobiliyati bilan bog‘liq, ishga layoqatlilikni rivojlantirib, o‘quvchilarni tez va uzoq fikrlash faoliyatiga o‘rgatish kerak.

Onglilik va faollik prinsipi Ta'limda onglilik va faollik prinsipi bilimlarni faol bilish va amaliy faoliyatda ongli o'zlashtirilishini talab etadi. Ta'limdagi onglilik —bu o'quvchilarni ta'limga bo'lgan pozitiv munosabati, o'rganilayotgan muammoni mohiyatini tushunish. O'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli o'zlashtirish qator omillarga bog'liq: ta'lim motivlariga, bilish faolligi darajasiga va xarakteriga, o'quv jarayonini tashkil etilishiga, qo'llaniladigan metod va ta'lim vositalariga. O'quvchilar faolligi — bu ularni ta'lim jarayonidagi intensiv aqliy va amaliy faoliyati. Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan prinsipdir. Bilim, malaka, ko'nikmalarni ongli o'zlashtirish quyidagi xususiyatlarga ega: Ta'lim maqsadini anglash, materialni ongli egallash, ularni farqlay bilish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash jarayonini sezish, natijalarni baholay bilish. Faollik bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish sharoit va natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Amaliyotda onglilik va faollik prinsipi qator qoidalarga amal qilishni talab etadi: o'quvchilar tomonidan ta'lim maqsadi va vazifalarini aniq tushunib olishga erishish; diqqatni tortuvchi faktlarni, ma'lumotlarni, misollarni qo'llash; texnik vositalarni va ko'rgazmali qurollarni qo'llash; o'quvchilarni nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatga jalb qilish; ta'limning faol va intensiv metodlarini qo'llash; noaniqni aniq bilan mantiqiy bog'lash; o'quvchilarni sabab oqibat aloqalarini topishga o'rgatish; o'quvchilarda optimizmni va ishonchni qo'llab-quvvatlash.

Ko'rgazmalilik prinsipi Pedagogika tarixida ko'rgazmalilik prinsipi birinchilardan bo'lib shakllangan. Ta'lim samaradorligi insonni barcha sezgi organlarini jalb etilishiga bog'liqligi ta'kidlangan. O'quv materialini qanchalik turli sezgi organlari orqali ta'sir etsa, materialni mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi. Bu qonuniyat didaktikaning ko'rgazmalilik prinsipida o'z ifodasini topgan. Ko'rgazmalilik prinsipi o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganilayotgan predmetlar va hodisalarni yoki ularning tasvirini jonli idrok etishdan xulosalar sari yoki umumiydan aniq narsa sari borishni talab etadi. Ta'lim jarayonida bolalarga kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish imkoniyatini berish lozim. Ko'rgazmalilik prinsipiga ko'ra narsa-hodisalarni o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi. Kuzatish, sezish ongda faktlarni to'plash, tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi. Ta'lim nazariyasida ko'rgazmalilik keng ma'noda qo'llaniladi. U ko'rish, eshitish, ta'm bilish sezgilarini o'z ichiga oladi. Ushbu prinsipni asoslashga Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy, L. V. Zankov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar. Ya.A.Komenskiy «Didaktikaning oltin qoidasida»

ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish yo'llarini shakllantirdi. I.G.Pestalotsi ko'rgazmalilikka amal qilish tushunchalarni fikriy shakllanishi bilan uyg'unlikda bo'lishini ko'rsatib o'tgan. K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilikni bolalarni nutqini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib bergan, L.V.Zankov so'z va ko'rgazmalilik uyg'unligini ta'kidlab o'tgan. Agar ma'lumotlarni eshitish orqali o'zlashtirish samaradorligi 15% ni tashkil etsa, ko'rish orqali — 25% ni tashkil etadi. Ta'lim jarayoni samaradorlik darajasi 65% gacha borishi mumkinligini mutaxassislar bashorat qilishgan.

Ta'limda ko'rgazmalilik prinsipi o'rganilayotgan ob'yektlarni namoyish qilish, hodisa va jarayonlarni izohlash, hodisa va jarayonlarni kabinet va laboratoriyalarda, tabiiy sharoitlarda, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatida kuzatish yo'llari orqali amal qilinadi.

Ko'rgazmalilik vositalari: natural ob'yektlar: o'simliklar, hayvonlar, tabiiy va ishlab chiqarish ob'yektlari, odamlarni mehnati va o'quvchilarni o'zlari; ko'rgazmali qo'llanmalar: modellar, maketlar, mulyajlar, gerbariylar v.b.; ta'limning tasviriy vositalari: kartinalar, fotografiyalar, diafilmlar, rasmlar; simvulli ko'rgazmali qo'llanmalar: kartlar, sxemalar, tablitsalar, chizmalar v.b.; audiovizual vositalar: kinofilmlar, magnitofor yozuvlari, televizion ko'rsatuvlar, kompyuter texnikasi; mustaqil tayyorlangan «tayanch signallar» konspekt, sxema, chizma, jadval ko'rinishidagi. Mashg'ulotlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'qishga qiziqish shakllanadi, kuzatuvchanlik, diqqat, fikrlash rivojlanadi. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilishning qator qoidalari ishlab chiqilgan: – ko'rgazmalilik o'rganilayotgan predmet va hodisalarni mohiyatini ifodalashi, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mazmunni aniq va ravshan ko'rsatish; – 100 marta eshitgandan, 1 marta ko'rgan afzal; – bola ko'rganda fikrlaydi va samarali eslab qoladi; – ko'rgazmalilikka maqsad sifatida emas, vosita sifatida amal qilish; – ko'rgazmalilikni me'yoridan oshirib yubormaslik; – ko'rgazmalilikka nafaqat o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni ishonchliligini tasdiqlash uchun, balki bilimlar manbai sifatida qarash; – bolalar yoshi ulg'aygan sari predmetli ko'rgazmalilikni simvulli ko'rgazmalilik bilan almashtirish; – ko'rgazmalilikning turli-tuman turlaridan foydalanish; – ko'rgazmalilik estetik tarbiyalashi kerak; – turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'quvchilar yoshini hisobga olish.

Tarixiylik prinsipi O'qitishda tarixiylik prinsipi o'quv materiallarini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida

darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinsa, o'quv materiali boyitiladi va uni puxta o'zlashtirishga imkon yaratiladi, fandagi ketma-ketlikni ifoda etish imkoniyati tug'iladi, natijada bilimlarni yaxlit, bir butunlikda o'zlashtirish ta'minlanadi.

Tarixiylik prinsipi predmet va hodisalarning nafaqat o'tmishi va hozirgi holatini ro'yi rost ifodalab qolmasdan, balki ularning kelajakdagi rivojlanishini ham ko'rsatib beradi. O'quv materiallarini o'zlashtirishga tarixiy yondashuv tarafdorlari tarixiy materiallarni u yoki bu o'quv kursiga kiritishning maqsadga muvofiqligi va zarurati o'qitishda tarixiylik prinsipi mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydilar. O'quvchilarni fan asoslari tarixi bilan tanishtirish ularning axloqiy jihatdan takomillashuviga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga turtki beradi.

O'qitish jarayonida tarixiylik prinsipining o'rnini shundaki, u o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirishning asosi hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan predmetga qiziqish mavjud bo'lganda, shubhasiz, o'quv materiali mazmuni yengil o'zlashtiriladi. Shu boisdan aytish mumkinki, tarixiylik predmet mazmunini bir tomondan boyitsa, boshqa tomondan o'quvchilarda kuchli motiv uyg'otadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinishi o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida, ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

O'qitishda tarixiylik prinsipini amalga oshirishda tarixiy materiallarni saralash mezonini aniqlash muhimdir. Ular: – tarixiy material mavzu maqsadiga mos kelishi; – tarixiy material mavzuni qo'shimcha axborot bilan boyitishi; – tarixiy material o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi; – tarixiy material o'qituvchi imkoniyatlariga mos kelishi; – tarixiy material ilmiy manbalar asosida saralanishi. Ushbu mezonlarga umumta'lim maktablarida o'zlashtiriladigan tarixiy materiallarni konstruktiv loyihalashda amal qilinishi lozim. Tarixiylik prinsipi zamon va makon kontekstida fanning ta'lim jarayoniga nisbatan zamonaviy talablarini ifodalaydi.

Ta'limning tizimliliği prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni ma'lum bir tizimda, tartibda bo'lishini talab etadi. Ta'limning sistemaliligi fan, madaniyat tajribani yutuqlarini o'zlashtirishda o'quvchilarni amaliy ko'nikmalariga, nazariy bilimlariga, o'quv faoliyatiga, tizimli xarakterni ifodalaydi. Sistemalilik qator belgilarga ega: tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejalilik, davomiylik va boshqalar. Ta'lim jarayonini tashkil etishda bu belgilarga

rioya qilish ta'limda sistemalilikni ta'minlaydi. Ta'limda sistemalilik va ketma-ketlik prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni aniq tartibda, tizimda bo'lishini ifodalaydi. U ta'lim jarayonini mantiqiy qurilishini talab etadi.

Ta'limda tizimlilik va ketma-ketlik prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

- bilimlar tizimini o'zaro aloqadorlik asosida shakllanishi;
- o'rganilayotgan materialni mantiqiy aloqador bo'lim va bloklarga ajratish;
- o'quv materialini mantiqiy tasvirlovchi sxema, reja, tablitsa, tayanch konspektlar, modullardan foydalanish;
- predmetlararo aloqadorlikka amal qilish; – umumlashtiruvchi va sistemali darslarni tashkil etish;
- yagona talab asosida pedagogik jarayon subektlarini faoliyatini koordinatsiyalash va ular faoliyatini uzluksizligini ta'minlash.

Izchilik prinsipi Ta'limda bilimlarni izchil o'zlashtirish prinsipi o'quvchilar xotirasida bilimlarni mustahkamlashni taqozo etadi. Ushbu prinsip asosida fan tomonidan o'rnatilgan qonuniyatli holatlar yotadi:

- o'quv materialini izchil o'zlashtirish ob'yektiv omillarga (material mazmuniga, uning tuzilishiga) bog'liq.
- o'quvchilar aqliy bilish faolligini namoyon qilishi;
- o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialini o'quvchilarni har xil individual farqlarini hisobga olgan holda qurish;
- yangi o'quv materialini oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lanishi (oldin o'zlashtirilgan bilimlar asosida yangilari yaqqol qabul qilinib, eski bilimlar yangilari hisobiga boyiydi). Turli xildagi ta'lim metodlari, shakllari, vositalari qo'llaniladi:
- bir xillik o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi, o'zlashtirish samaradorligini pasaytiradi;
- qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil etish, sabab va oqibatlarini, aloqadorligini o'rnatish, asosiysini topish bilan bog'liq savollarni berish orqali o'quvchilarni fikrlashini faollashtirish;
- o'zlashtirish jarayoni sifatiga tizimli nazorat qilib borish orqali erishish.

Ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi. Ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi ta'lim jarayonini ob'yektiv qonuniyatlarini ifodalaydi. Ta'lim-tarbiyadan tashqarida bo'lish mumkin emas. Holbuki o'qituvchi maxsus tarbiya maqsadini qo'ymaganda ham o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir

ko'rsatadi. Ularni o'quv materialini mazmuni, bilimlarga bo'lgan o'zining munosabatlari, o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etishda qo'llagan metodlari, o'zining shaxsiy sifatlari orqali tarbiyalaydi. Ta'limda ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

– har qanday o'quv predmetini o'rganishda maqsadli, ongli, tizimli tarbiyani olib borish;

– tushuncha, ta'rif, qonun, simvollardan so'ng o'quvchilar tabiat hodisalarini va ijtimoiy progres qonunlarni tushunishlarini, shakldan so'ng mazmuni, hodisadan so'ng mohiyatni, tashqi belgilardan keyin ichki xususiyatlarni va qonuniyatlarini tushunishlariga erishish;

– har bir darsni, har bir mavzuni tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish; – o'quv jarayonini o'quvchilarning madaniy xulq-atvoriga va o'zaro munosabatlariga ta'sir etadigan qilib tashkil etish;

– o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va bir vaqtni o'zida talabchanlikda bo'lish. Hurmatga asoslanmagan talabchanlik jahldorlikni va norozilikni keltirib chiqaradi. Talabchan bo'lmaslik mehribonlikni, tartibni buzilishiga, tartibsizlikka, o'quvchilarni quloq solmasligiga olib keladi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi Ta'limni amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi o'quvchilarni qiziqtirishni, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni, borliqni analiz (tahlil) qilishni, o'z qarashlarini ishlab chiqarishni talab etadi. Buning uchun real hayot vaziyatlari tahlil qilinadi, o'quvchilar ishlab chiqarish bilan tanishadilar, mashg'ulotlarda ko'plab shaxsiy ma'lumotlardan foydalanadilar.

O'quvchilar maktabdagi ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilinadi. Nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi ilmiy asoslangan bilimlarni hayotda qo'llanilishi bilan birgalikda, aloqadorlikda o'zlashtirilishini taqozo etadi. Shundagina o'quvchilarda hayotdagi hodisa va jarayonlarga nisbatan ilmiy qarash hamda ilmiy dunyoqarashlari shakllanadi.

Amaliyot – bu haqiqat mezonini, bilish manbai hisoblanadi. Amaliyotda ta'lim natijasi tekshiriladi, tasdiqlanadi. ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi: ta'limda o'quvchilarni amaliy tajribasiga tayanish; nazariy bilimlarni qo'llanish sohasini ko'rsatish: zamonaviy texnologiyalarni, yangi ishlab chiqarish munosabatlarini, mehnat qilishning qulay metodlarini o'rganish; muammoli izlanish va tadqiqotchilik masalalarini qo'llash; bilimlarni amaliyotda qo'llash; ilg'or ilmiy g'oyalarni, konsepsiyalarni, nazariyalarni ahamiyatini ko'rsatish. Ta'limni

o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlariga mosligi prinsipi Ushbu prinsip ta'lim mazmuni, metodlari va shaklini o'quvchilarni yosh davrlariga va individual rivojlanishlariga mos bo'lishini ifodalaydi. Shaxsiy rivojlanish va bilish imkoniyatlari darajasi o'quv faoliyatini tashkillashni aniqlaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tafakkurini, xotirasini, diqqatini, xarakterini, temperamentini, qiziqishlarini hisobga olish ahamiyatlidir. Individual xususiyatlarni hisobga olishning ikkita individual va tabaqalashtirilgan yo'li mavjud: XX asrning 90-yillarigacha asosan individual yondashuv asosida ishlangan bo'lsa, hozirgi paytda tabaqalashtirilgan ta'limga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, didaktik prinsiplar an'anaviy ta'lim tizimi asosini tashkil etadi. Ayrim mutaxassislar zamonaviy ta'lim rivojlanish tendensiyalariga mos keluvchi didaktik prinsiplarni asoslab bermoqdalar.

A.V.Xutorskiyning ta'kidlashicha, an'anaviy didaktik prinsiplar ta'lim maqsadini aniqlashtirishga yordam berib, o'qituvchiga darsdagi aniq vaziyatlarda rahbarlik qilishi uchun ham xizmat qiladi. Ayni paytda umumqabul qilingan prinsiplar o'quvchilarni ta'lim faoliyatini rivojlanishi dinamikasida butun ta'lim jarayonini reglamentini aniqlay olmaydi. Shuning uchun prinsiplar tizimini asosi qilib o'quvchilarni o'qish faoliyati olingan.

A. V. Xutorskiy ta'lim jarayonini quyidagi prinsiplarini taklif etadi: – O'quvchining shaxsiy maqsadi prinsipi. Har bir o'quvchini o'qitish uning shaxsiy o'quv maqsadlarini hisobga olish va uning asosida amalga oshiriladi. Bu prinsip ta'lim maqsadini o'qituvchi ham o'quvchi ham anglashi kerakligini taqozo etadi.

Ta'lim proektoriyasini individual tanlash prinsipi. O'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda ta'limning asosiy komponentlari (ta'lim metodi, shakli, maqsadi, mazmuni)ni tanlash huquqiga ega.

Ta'lim jarayonining metapredmet asosligi prinsipi. Ta'lim jarayoni mazmunini asosini o'quvchilarni shaxsiy bilish imkoniyatlarini ta'minlovchi fundamental metapredmetlar ob'yektlari tashkil etadi. O'quvchilarni real ta'lim ob'yektlarini o'zlashtirilishi bir o'quv predmeti doirasidan tashqari o'quv predmetlari doirasidagi fundamental ta'lim ob'yektlarini kategoriya, tushuncha, simvol, prinsiplar, qonunlar, nazariyalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

– **Ta'limni samaradorligi prinsipi.** Ta'limni asosiy yo'nalishi o'quvchini shaxsiy ta'limiy jihatdan o'sishi hisoblanadi. Mahsuldor ta'lim nafaqat ma'lum narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, balki

yangi materiallarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi bilan ham xarakterlanadi.

– **O'quvchilarni ta'limiy mahsulotining birlamchiligi prinsipi.** O'quvchining ta'lim mazmunini individual tarzda yaratishi ta'lim standartlarni va o'rganilayotgan sohadagi umumqabul qilingan yutuqlarni o'zlashtirishida ilgarilab ketishni ta'minlaydi. Bu prinsip o'quvchini tabiat bilan uyg'unligini va shaxsiy yo'nalganligini aniqlashtiradi. O'quvchi o'rganilayotgan masalada o'zini namoyon qilishi uchun imkoniyat beradi, ijodiy faoliyat texnologiyasini o'zlashtiradi.

– **Ta'limning vaziativligi prinsipi.** Ta'limiy jarayon o'quvchilar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlardan tashkil topgan. O'qituvchi ta'limda o'quvchi harakatlarini kuzatib boradi. Ya'ni o'quvchini ijodiy faoliyatini tashkil etadi va ta'limiy vaziyatlarni yaratadi. Uning maqsadi o'quv jarayonida o'quv motivlarini hosil qilish va o'quvchilar faoliyatida ularni faolligini ta'minlash hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ta'lim prinsiplariga o'zaro aloqadorlikda amal qilinadi. Yagona prinsipga amal qilish orqali ta'lim samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Prinsiplar faqat aloqadorlikda, kompleks tarzda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Faqat kompleks tarzda ta'lim maqsadini aniqlashni, ta'lim mazmunini, metodlarini, vositalarini, shakllarni tanlashni hamda zamonaviy ta'lim muassasalarini vazifalarini samarali hal etishni ta'minlaydi.

4.7 Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

- 1) umumiy nazariy bosqich;
- 2) o'quv bosqichi;
- 3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni davlat ta'lim standart, o'quv rejalarini mazmunida namoyon bo'ladi. O'quv rejalarini quyidagilardan iborat:

Tayanch namunaviy o'quv rejasi

Umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me'yoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun

asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning namunaviv o'quv rejalari tayanch o'quv rejasi asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o'quv rejalari ishlab chiqiladi.

Q'quv rejasi - me'yoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikatini) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi;
- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;
- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- amaliyotlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O'quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o'quv muassasasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha fakultativ va majburiy mashg'ulotlar aks ettiriladi.

Q'quv dasturi — muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzulaming ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

Dasturda o'quv materialining ta'limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo'yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyatligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'quv dasturlari **namunaviv ishchi va mualliflik** bo'lishi mumkin.

Namunaviv o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;
- o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;

- kursning alohida savollarini o‘rganishga o‘qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro‘yxati;
- fanlararo va kurslararo bog‘liqlikni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar;
- o‘quv uskunalari va ko‘rgazmali qurollar ro‘yxati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o‘quv dasturlari Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo‘ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta’riflanadi, o‘quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta’minlash imkoniyati, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o‘quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o‘quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo‘lishi, u yoki bu nazariyalarni o‘rganishga mualliflik yondashuvi, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtayi nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi litsenziyalariga ega bo‘lishi kerak va ular mavjud bo‘lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarning Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o‘quv dasturlari o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

Q‘quv fani ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manbadir.

O‘quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta’limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. Oliy maktab, akademik litsey va kasb- hunar kolleji o‘quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtayi nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.

Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi.

Darslik – DTS, o‘quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g‘oyalari singidirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta‘lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o‘qituvchi darslikda ta‘lim oluvchilar bajarilishi kerak bo‘lgan o‘quv jarayonining ma‘lum bosqichlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ta‘lim oluvchilar uchun mavzularni o‘qib, undagi topshiriqlarni ma‘lum harakatlar ko‘rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o‘quv predmeti mazmunini o‘quv dasturida ko‘rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo‘lib, uning harakterli xususiyati darslik mazmunining o‘quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Darslikdagi material bo‘limlar bo‘yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo‘lgan bandlar asosida ochib beriladi.

Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va echimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma‘lumotlar, fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti hamda talabaning fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning asosiy matni – bu ta‘lim oluvchi tomonidan o‘rganilishi va o‘zlashtirishi majburiy bo‘lgan o‘quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Darslikdagi qo‘shimcha materiallar. Bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv materialini o‘z ichiga oladi. Qo‘shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma‘lumotlar kiradi. Qo‘shimcha matnlar o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka

undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Darslikning tushuntirish matni – o‘quv materialini tushunishga va chuqurroq o‘zlashtirishga mo‘ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta‘lim oluvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug‘atlar, ramzlar va ko‘rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma‘lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo‘lishi kerak.

Darslikning tajribaviy – amaliy matnlarida – fan o‘quv materialini o‘zlashtirishda va mustaqil tarzda bilim olishda bilim oluvchi bajaradigan amaliy faoliyat usullari, aniq ma‘lumotlar olish uchun nazariy bilimlarni qo‘llash tamoyili va qoidalari, asosiy tadqiqot usullari tavsiflanishi; masalalar, mashqlar, tajriba va eksperiment usullari bayon qilinishi lozim.

Darslikdagi mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar matniga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘tilgan mavzularning mustahkam o‘zlashtirilishini ta‘minlash;
- ta‘lim oluvchilarni bilim olishga qiziqtirishni rivolantirish;
- fikrlash faoliyatini rivojlantirish, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirish;
- ta‘lim oluvchilarning amaliy topshiriqlarni bajara olish imkoniyatlarini inobatga olish;
- tasdiqlarning aniqligi va tushunarlilik, yagona namunaga mos kelishi.

Darslikdagi bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish materiallari matnidagi nazorat savollari ta‘lim oluvchilarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Darslikdagi informatsion – uslubiy ta‘minot – bu ushbu fanga oid asosiy va qo‘shimcha o‘quv manbalari, elektron ta‘lim resurslari hamda uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi.

Darslikdagi qo‘shimcha ma‘lumotlar matniga mazkur darslikdan foydalanish tartibi, o‘quv materialini o‘ranishga tegishli elektron vositalar (multimedia, virtual stendlar, animatsiyalar va h.k.) va ulardan foydalanish tartiblari kiradi.

O‘quv qo‘llanma – bu darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o‘zlashtirishni

ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr.

Keyingi paytlarda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bu borada elektron o'quv adabiyotlarini yaratish o'zining ijobiy pedagogik samaralarini bermoqda. Bunda elektron kitoblar (multimedia kitoblar, yarim media kitoblar, gipremedia kitoblar, intellektual kitoblar, telemedia kitoblar, kibernetik kitoblar), elektron nashr, elektron ta'lim resurslari, elektron uslubiy qo'llanma, elektron forumlar, elektron shakldagi o'quv – uslubiy materiallar, elektron o'quv nashri va shu kabilarning ahamiyati beqiyos. Quyida ular tavsiflarini keltiramiz.

Elektron darslik – bu an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan o'rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud dasturlarshtirilgan darsliklar. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot. Shuningdek, u muayyan fanning o'quv hajmini to'liq qamragan va masofaviy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan, bo'lib, unda materiallar (o'quv va ilmiy materiallar faqat virtual (matn) shaklida, o'quv materiallari esa virtual (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida) multimedia elementlari, ya'ni ma'lumot ikki – uch o'lchamli grafik ko'rinishida, video, animatsiya va qisman virtual (matn) shaklida, ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini ifodalaydigan shaklda yaratiladi.

Elektron kitoblarni yaratish ta'lim tizimiga CD – ROM va multimedia texnologiyalarining keng joriy qilinishi, elektron o'quv adabiyotlarining ishlab chiqilishiga va ularning ta'lim - tarbiyada samarali qo'llanishiga katta imkoniyatlar yaratish jarayonidan iborat bo'ladi.

Elektron kitoblar to'rtta yo'nalishdan iborat bo'ladi. Ular: qomusiy; ma'lumot beruvchi; o'qituvchi; imtihon oluvchi.

Elektron kitoblar axborot turlari va ularni foydalanuvchiga etkazib berish bilan shug'ullanadi. Bunda multimediali kitoblar – bu axborotlarni bitta axborot tashuvchi vositasiga jamlagan bo'lib, u matnli, ovozli, statik, dinamik va videotasvirli ma'lumotlardan tashkil topgan bo'ladi.

Yarimmedia kitoblar – bu multimedia kitoblardan farqli ravishda ma'lumotlarni etkazib berishda turli vositalarning kombinatsiyasidan foydalanuvchi kitoblar.

Gipermedia kitoblar – bu multimediali kitoblarning takomillashgan shakli bo'lib, bunda foydalanuvchi asosiy matndan tashqari turli qo'shimcha manbalarga ham (sharhlarga, atamalarning izohlariga, tuzatishlariga) murojaat qilishi mumkin.

Intellektual kitoblar – bu imtihon oluvchi kitoblarga o'xshash bo'lib, bunda ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilim darajalari maxsus testlar yordamida ularning kompyuter bilan muloqot jarayonida aniqlanadi va baholanadi.

Telemedia kitoblar – bu telekommunikatsiya vositalari yordamida masofadan o'qitishga xizmat qiluvchi kitobdir.

Kibernetik kitoblar – bu matematik modellashtirish vositalari yordamida hodisalarni va ob'ektlarni har tomonlama o'rganish va tadqiq qilishga yordam beruvchi kitobdir.

Elektron ta'lim resurslari – bu muayyan fan bo'yicha yaratilgan elektron o'quv qo'lanma, elektron ko'rsatmalar, elektron ma'lumotnomalar, lug'atlar virtual stendlar, multimediali vositalar va boshqa elektron nashrlar majmuasidir.

Elektron nashr – bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, mustaqil, video – foto va boshqa axborot ob'ektlari majmuasidan iborat bo'lib, ular elektron axborot tashuv vositalari yoki kompyuter tarmog'i orqali taqdim etishga mo'ljallangan.

Elektron o'quv nashri – bu ta'lim oluvchilar tomonidan egallashi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni ijodiy va faol ravishda o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi nashr bo'lib, u ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialini o'z ichiga oladi.

Elektron uslubiy qo'lanma – bu ta'lim – tarbiya jarayonidagi pedagogik tajribani (amaliyotni) umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim – tarbiyaviy faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatishga mo'ljallangan nashr.

Elektron o'quv qo'llanma – bu muayyan fanning o'quv rejasidagi vaqt va o'quv dasturidagi ma'lumot hajmini qisman yoki to'liq qamragan va fanni o'rganishga tegishli ma'lumotni to'liq adaptatsiya qila olgan masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallab tayyorlangan nashr.

Elektron o'quv qo'llanmalar

Multimediali elektron o‘quv qo‘llanmalar yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanishning quyidagi jihatlariga asosiy e‘tibor qaratiladi:

1. Ichki joylashgan turli bo‘g‘inlar va rangli bezaklarda gipermurojatlardan foydalanish.

2. Ma‘lumotlarni tasvirlashda turli xil rangli bezaklardan foydalanish.

3. Audio va video effektlar va ularni boshqarishning samarali metodlaridan foydalanish.

Multimedia muhitida elektron o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqish uzoq muddatli va katta mablag‘larni talab qiluvchi jarayondir. Shuning uchun ham multimediya muhitida elektron o‘quv qo‘llanmalarni yaratishning barcha bosqichlarini hamda har bir bosqichida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi bosqichlarni bajarish zarur bo‘ladi:

- tanlash bosqichida multimedia muhitida ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan o‘quv fani tanlanadi;

- tayyorgarlik bosqichida kurs matnini yozish, ko‘rgazmali va ma‘lumotli materiallarni tayyorlash, interfeys eskizlarini va o‘quv dasturining stsenariylarini yaratish bo‘ljallanadi;

- asosiy bosqichda elektron o‘quv qo‘llanmani bevosita yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi;

- yakunlovchi bosqichda elektron o‘quv qo‘llanmani testdan o‘tkazish va maqomiga etkazish ishlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda o‘quv materialining qurilmasi yoki tuzilmasi ishlab chiqiladi, shuningdek foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa mexanizmi loyihalashtiriladi. Asosiy va qo‘shimcha elementlar ajratiladi, axborotli bloklarning ierarxik tuzilmasi yaratiladi. Foydalanuvchi interfeysi, alohida bloklar va ekranlar o‘rtasidagi asosiy aloqalar ishlab chiqiladi.

Multimediali materiallarni tayyorlashda odatda ikki o‘ljamli grafikadan va “Macromedio Flash” dasturiga joylashtirilgan interaktiv tizim Web – sahifalar yaratish uchun ham qulay vosita hisoblanadi.

Multimediali elektron o‘quv qo‘llanmani yaratishda giperment, giperko‘rsatgich va ularga tasvir, kod nomi elementlarini kiritish hamda ularni o‘zaro bog‘lash maqsadida HTML – giperment tahrirlagichdan foydalaniladi.

Multimediali elektron – o‘quv qo‘llanma quyidagi afzalliklarga ega:

- multimediali elektron – o‘quv qo‘llanmada o‘quv materialining multimedia, giperment, ovoz, elektron doska shakllaridan foydalangan

holda taqdim etilishi, o'quvchilarga berilayotgan o'quv materialini chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish, dars mavzusi bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi;

- multimediali elektron – o'quv qo'llanmada berilayotgan ma'lumotlarning harakati, rang, tovush va jonli tasvirlar bilan uyg'unligi mavzuni o'rganishda monotonlik (bir xillik) ga chek qo'yadi;

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interfaol tizim vujudga kelib, bevosita aloqa o'rnatilishi natijasida o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faolligiga qarab ularni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi;

- multimediali elektron – o'quv qo'llanmada o'qish darajasi va sur'atini o'rganuvchining o'zi tanlash imkoniyati o'qitishni individuallashtirish imkonini beradi;

- multimediali elektron – o'quv qo'llanmaga kiritilgan test topshiriqlari va o'z – o'zini tekshirish uchun savollar o'quvchini o'z – o'zini tez va samarali baholashga va zaruriyatga qarab, tuzatishlar kiritishga imkon beradi;

- olingan bilimlar o'quvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Elektron pochta – bu axborot almashish xizmatini ko'rsatish vositasidir. Undan foydalanuvchi har qanday o'quv muassasasi va hattoki o'z uyida terminal orqali kerakli manzilni ko'rsatgan holda axborot jo'natish mumkin yoki qabul qilib olish mumkin. Buning uchun axborot kompyuterda yuboriladi, u erda esa tegishli manzilning elektron qutisiga fayl jo'natiladi.

Elektron pochta orqali bosma materiallar, fotografiya, jadval, grafik ish qog'ozlari va jurnallar kerakli manzilga jo'natiladi. Bunda asosan axborotlar (xat - xabarlar)ni uzatish va qayta ishlashning elektron usulidan foydalaniladi.

Axborot uzatishning ushbu imkoniyatidan ta'lim oluvchilar, masofaviy ta'lim bilan shug'ullanuvchilar samarali foydalanishi mumkin.

Elektron forumlar – bu internetning xalqaro tarmog'i va elektron pochtalardan foydalanib o'tkaziladigan seminarlardir. Seminarining moderizatori ishtirokchilarga materiallarni beradi. Uning mazmun – mohiyatini tushuntiradi, so'ng savol beradi yoki mavzu mazmunini muhokama etadi. Seminar ishtirokchilarini material bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi, o'z xulosalarini chiqaradi. Har bir ishtirokchi muhokamada ishtirok etadi. Muhokama natijalari asosida xulosalar

chiqariladi. Xulosalar asosida seminar qatnashchisi to'g'ri, yakuniy javobni oladi. Bu esa olgan bilimlarni mustahkamlashga ta'sir etadi.

Ta'lim mazmuni tashkil etuvchi barcha meyyoriy hujjatlar ta'lim mazmuni samarali tashkil etishga xizmat qilmog'i lozim.



Mavzuni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar

1. Didaktika tushunchasining mohiyati?
2. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlari haqida ma'lumot bering?
3. Ta'lim mazmuni haqida taqdimot tayyorlang
4. O'quv rejasi va uning mazmuni tushuting?
5. Ta'lim jarayoni mohiyati,
6. Ta'lim qonuniyatlari va prinsiplari.
7. Darsliklar va unga qo'yilgan talablar
8. O'quv adabiyotlari va ularning turlari
9. Elektron darsliklar va unga qo'yilgan talablar
10. Elektron ta'lim vositalari va ular haqida nimalarni bilib oldingiz?



Mavzuga doir teslar.

1. Darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr

- a) O'quv qo'llanma
- b) Elektron darslik
- c) O'quv uslubiy majmua
- d) Darslik

2. Darslik – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singidirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr?

- a) O'quv qo'llanma
- b) Elektron darslik
- c) O'quv uslubiy majmua

d) Darlik

3. Ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya?

a) Ta'lim shakli

b) Ta'lim maqsadi

c) Ta'lim mazmuni

d) Ta'lim jarayoni

4. "Barchani barcha narsaga o'qitishning universal san'ati" degan fikrlar muallifi?

a) Pestalotse

b) Gerbart

c) Komenskiy

d) Ushunskiy

5. Ta'lim mazmuni tashkil etuvchi asosiy hujjatlari?

a) O'quv rejasi

b) O'quv dasturi

c) Darslik

d) Barcha javoblar to'g'ri

V-BOB. TA'LIMNING TASHKILY SHAKLLARI, METOD VA VOSITALARI



Tayanch atamalar

Ta'lim, ta'lim turi, ta'lim shakli, ta'lim, vositalari, ta'lim metodlari, ta'lim jarayoni, dars, dars maqsadi, noan'anaviy darslar, individual, texnologik xarita, darsning tuzilishi, dars bosqichlari.

5.1 Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha.

Ta'lim shakli (ta'lim shaklini tashkil etish) - bu ta'rif, oldindan o'rnatilgan tartib va rejim bilan tartibga solinadigan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri.

Jahon pedagogikasi tarixida ta'limni tashkil etishning xilma-xil shakllari ma'lum. Ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi va asta-sekin o'limi rivojlangan jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liq. Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishda o'z izini qoldiradi.

Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim kishilik jamiyati rivojining dastlabki davrlaridayoq katta rol o'ynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan. Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish. Ularning tarbiyaviy mohiyatini ochib berish masalalariga bag'ishlangan.

Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan. Y.A. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan buyon 350 yil o'tdi. Shuncha vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib bordi.

5.2 Dars - o'qitishning asosiy tashkiliy shakli.

Ma'lim tarixida turli ta'limni tashkil etish shakllardan foydalangan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllanib kelingan machitlar huzuridagi maktablarida o'quv mashg'ulotlari asosan ruhoniylar tomonidan tashkil etilib, ta'lim guruhli yoki yakka tartibda amalga oshirilgan. XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) ta'lim tarixida birinchi bo'lib sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. Ya.A.Komenskiyning yangi ta'lim tizimi qisqa vaqt ichida barcha mamlakatlar ta'limida o'rin oldi hozirgi davrda sinf-dars shakli ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida qo'llanmoqda.

Bir xil tayyorgarlikka ega, yoshlari teng o'quvchilarning doimiy jamoasi bilan ma'lum xona, rejim, tartib asosida o'tkaziladigan mashg'ulotga dars deyiladi.

Dars-bevosita o'qituvchi etakchiligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotidir.

Dars mashg'uloti asosan 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval asosida olib boriladi.

Darsning asosiy belgilaridan biri ilmiylikdir. Darsda o'rganiladigan bilimlar hozirgi zamon fani yutuqlarini o'zida aks ettirishi, ta'lim jarayon maqsadi hamda bolalarning real bilish imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur.

Dars ijodiy jarayon

Dars-jamoa mehnati jarayoni. Darsni ijodiy tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'tkazish bolalarda jamoa bo'lib ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zaro yordam, va bolalar o'rtasida hamkorlik o'rnatish yo'llari bilan mashg'ulotlar jamoa mehnati jarayoniga aylantiriladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan o'zining ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Muayyan yoshdagi va ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhi, rejim, dars tartibi, mashg'ulotlarni ma'lum xonada o'tkazish kabilar darsning tashqi xususiyatlari, darsning maqsadi, ta'lim mazmunini his qilish, qiziqish, anglash, tushunish uning ichki xususiyatlari sanaladi. Dars ana shu ikki

xil tashqi va ichki xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida tashkil etiladi.

5.3 Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars turlari va tuzilishi.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo‘yilmoqda:

- Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to‘g‘riligi.

- Darsning ta’limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

- O‘qitishning yaxlit dars va uning ma’lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvafiq keladigan ta’lim oluvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash.

- Mashg‘ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo‘shib olib borish.

- Ta’lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta’lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish.

- Darslarning o‘zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo‘lishiga erishish.

- Ta’lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

- Darsda ta’lim oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.

- Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.

- Darsda ta’lim oluvchilar erkinligini ta’minlash.

Darsda bilimlarning o‘zlashtirilishi, malaka va ko‘nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O‘quv materialini o‘rganishning turli vazifalari, yo‘llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko‘p turlari, uning har xil variantlari paydo bo‘ladi.

Ayni vaqtda ta’lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O‘tilgan materialni mustahkamlash darsi.
- Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish darsi;
- Takroriy-umumlashtiruvchi dars.

➤ Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir darsning qismlari bo'lishi mumkin. Misol uchun ta'lim muassasalarida eng qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;
- yangi bilimlarga bog'liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta'lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo'ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Muayyan dars turi bilan ish ko'rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Didaktik usullar ta'lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o'zgarishiga, ta'lim metodlarining o'zgarishi ham dars tuzilishining o'zgarishiga olib keladi.

Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o'zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi. Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakl va metodlarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, turli darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog'liqdir.

Darslar didaktik maqsadi, darsni tashkil etish maqsadi, darsni o'tkazish mazmuni va usullari, o'quv jarayonining asosiy bosqichlari, darsda hal etiladigan didaktik vazifalar, o'qitish usullari, o'quvchilar bilimini tashkil etish yo'llari asosida tasniflanadi.

Ushbu yondashuvga muvofiq quyidagi besh turdagi darslar ajratiladi:

- yangi o'quv materialini o'rganish darslari (1-tur);
- bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish darslari (bu ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'rganilgan narsalarni maqsadli qo'llash va boshqalarni o'z ichiga oladi) (2-dars turi);
- umumlashtirish va tizimlashtirish darslari (3-tur),
- birlashtirilgan darslar (4-tur);

➤ bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish va tuzatish darslari (5-tur).

O‘qituvchining vazifasi mantiqiy o‘zaro bog‘liq bo‘lgan darslarning aniq tizimini o‘ylab ko‘rishdan iborat bo‘lib, ulardan foydalanish unga bolalarning o‘zini o‘zi tashkil qilishni, aqliy mehnat ko‘nikma va malakalarini, uni ilmiy tashkil qilishni o‘rgatish imkonini beradi.

Bu tizimdagi har bir dars o‘quvchining o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirishi, izlanish va ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirishi uchun o‘ziga xos pog‘ona bo‘lishi kerak.

Amaldagi amaliyotda darslar tizimi aniq ko‘rsatib turibdi:

1. Dars-yangi materialni tushuntirish.
2. Talabalarning mustaqil ishi jarayonida o‘quv materialini chuqur o‘rganishga qaratilgan dars-seminarlar.
3. Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar (seminar) darslari yoki masalalar yechish, mashqlar bajarish va h.k.
4. Mavzu bo‘yicha dars-testlar;
5. Darslar-jamoaviy tayyorlangan ijodiy topshiriqlarni himoya qilish.

5.4 O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning reja-konspekti va texnologik xaritasi.

Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog‘liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o‘ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o‘quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo‘la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta‘minlovchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta‘minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko‘zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga o‘qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o‘z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo‘lajak mashg‘ulotning algoritmlari, samaradorligi bog‘liq bo‘yalgan omillar holatlarni hisobga olishni ta‘minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmi amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va

layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

Dars ishlanmasi (reja konspekt) – o'qituvchi uchun tuzish majburiy bo'lgan hujjatdir.

Dars ishlanmasi – o'qituvchi ijodkorligini aniqlovchi omil. Dars rejasi – darsni pedagogik, didaktik va uslubiy jihatdan rejalashtiruvchi, loyihalashtiruvchi hujjat. U shunchaki rahbariyatga ko'rsatish uchun tuzilmaydi. Uni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'qituvchining bir soatlik darsdagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini boyitish, ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat. Dars ishlanmasi o'qituvchining ijodiy mehnati mahsuli bo'lib, uning bilimi va mahoratini ko'rsatuvchi oynadir. Shu bois, uni tuzishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik kerak. Bir marta maromiga yetkazib tuzilgan dars ishlanmasi o'qituvchi uchun uzoq yillar davomida xizmat qilishi mumkin. Bundan dars ishlanmasi – qotib qolgan (dogma), degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Dars ishlanmasini yildan yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi dars uslublarini qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilanib turilishi lozim.

Yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini joriy etilishi va ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning, kompyuter, yangi axborot texnologiyalari va texnik vositalarning qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Dars ishlanmalari uchun tayyor qoliplar yo'q. Chunki jonli dars jarayonini hech

qanaqa qolipga solib bo‘lmaydi. U turli xil sharoitlarda turlicha tuzilishi mumkin.

Shunday bo‘lsada, o‘qituvchilarga dars ishlanmasini quyidagi tarx asosida tuzishlarini tavsiya etamiz:

Dars ishlanmasining tuzilmasi:

1. Dars mavzusi.
2. Dars maqsadlari.
3. Shakllantiriladigan kompetensiyalar.
4. Darsda foydalaniladigan ma’lumot manbalari, o‘quv uslubiy adabiyotlar va elektron resurslar.
5. Darsda ishlatiladigan zarur texnik vositalar va jihozlar.
6. Dars shakli.
7. Dars turi.
8. Dars metodlari.
9. Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti.
10. Dars borishining qisqacha tafsiloti.

Dars ishlanmasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Darsning texnologik xaritasini, zavodga tuproq shaklidagi chinni xom ashyoni topib kelishdan tayyor piyolagacha bo‘ladigan barcha texnologik jarayonlar ssenariysiga qiyoslash mumkin.

Texnologik xaritaning tuzilishi oson emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogik, psixologik, xususiy metodika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p metodlar, usullarni bilishi kerak bo‘ladi. Har bir darsning rang–barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

Darsning texnologik xaritasini qanday shaklda tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o‘qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi,

chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Texnologik xaritaning o‘quvchi–talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta’limning markaziga olib chiqadi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchi–talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogik va o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o‘quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo‘llanilishini taqozo etadi. Ular juda xilma-xil bo‘lib, biz ulardan ba’zilar xaqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni o‘tkazish tartibi haqida uslubiy ko‘rsatma beramiz. Ushbu metodik ko‘rsatmada keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba-o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

5.5 Ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari.

Yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars o‘tish ta’limning o‘ziga xos modellaridan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy dars – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir.

O‘quv materiali yangi va ancha murakkab bo‘lganda, an’anaviy dars – ko‘p hollarda ta’lim jarayonining birdan-bir metodi bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, an’anaviy darsda ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi. Shu bois ba’zida an’anaviy darsni markazida o‘qituvchi turgan o‘qitish usuli deb ham atashadi. Markazda o‘quvchi bo‘lgan o‘quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlariga tayanadi.

An’anaviy dars o‘tish modelida ko‘proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda

an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib keladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari

1. Kirish.

- o'tgan materialni takrorlash
- dars maqsadini tushuntirish
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish
- rang-barang misollar imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish
- mavzudan cheklashmaslik
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish
- o'quvchilarning tushunuvchanlik darajasini tekshirib borish
- teskari aloqani ta'minlash.

3. «Teta – poya» mashq.

Biror misol (yoki masalani) o'quvchilar bilan qadamba-qadam hal qilish va tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq.

O'quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq.

O'quvchilar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajariladi.

6. O'quvchilar tushunarlik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

Noan'anaviy dars - bu "noan'anaviy tuzilishga ega bo'lgan eksrompt o'quv mashg'uloti". Ta'limning noan'anaviy shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamoaviy mehnat shakllaridan foydalanish;
- Mavzuga qiziqish uyg'otish;
- Mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- Talabalar faoliyatini faollashtirish;
- Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarning o'zlari qiziqarli materialni qidiradilar;

- O'qituvchi va talabalar o'rtasida yangi munosabatlarni shakllantirish.

Noan'anaviy darslardan ko'zlangan maqsadi pedagogikaning asosiy qonuni - ta'lim faoliyati to'g'risidagi qonunni amalga oshirishga olib keladigan yangi uslublar, shakllar, usullar va o'qitish vositalarini ishlab chiqish.

Nostandart darslarning asosiy vazifasi umumiy madaniy rivojlanish; shaxsiy rivojlanish; talabalarning bilim motivlari, tashabbusi va qiziqishlarini rivojlantirish; o'rganish qobiliyatini shakllantirish; kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishlardan iborat.

Noan'anaviy darsning belgilari

Yangi joyning elementlarini olib yuradi.

Dasturiy bo'lmagan materiallardan foydalaniladi.

Tashkil etilgan jamoaviy faoliyat individual ish bilan birlashtirilgan.

Darsni tashkil etishda turli kasb egalari jalb etilgan.

Talabalarning hissiy yuksalishiga ofis dizayni, AKTdan foydalanish orqali erishiladi.

Ijodiy topshiriqlar bajarilmoqda.

O'z-o'zini tahlil qilish darsga tayyorgarlik ko'rish davrida, darsda va undan keyin amalga oshiriladi.

Darsni tayyorlash uchun talabalarning vaqtinchalik tashabbuskor guruhi tuziladi.

Dars oldindan rejalashtirilgan.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Pedagogik muloqot o'rnatish uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji tug'ildi.

Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir. Lotinchadan "inter"- o'zaro, "akt"- muloqot, yaqinlikdir. Interaktiv usullardan foydalanishdan maqsad shuki, darslarni qiziqarli, sermazmun, eng muhimi samarali qilib o'tkazishdir. Bunda o'quvchining bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi va o'quv jarayonining maxsuldorligi ko'payadi. Ma'lumki yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o'tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishlash, o'ylab ko'rish, muhokama qilib chiqish, yordamchi vazifalar bajarishi kerak.

Hozirgi paytda pedagoglarning asosiy vazifasidan biri talabada mustaqil shug'ullanish malakasini xosil qilishidir. Interaktiv usullardan foydalanilganda, talabaning barcha psixik jarayonlari idrok, ong, diqqat, xotira, sezgi, aql, tasavvur, tafakkuri ishga tushib, muammoni yechish uchun izlashga, qidirishga, fikrini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bunda

materialni uzlashtirishga bo'lgan extiyoj, mayl ortib boradi va natija xam samarali buladi. Interaktiv usullar amaliy mashg'ulot vaqtida o'tkazib, ma'ruza bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, aniqlashtirish mustahkamlash va rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

O'qitishning noan'anaviy shakllari shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o'rganish
- modellashtirish
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib ularni boshqacha qilib markazda o'quvchi turgan ta'lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod. Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining	
Afzalliklari	Kamchiliklar
<ul style="list-style-type: none"> - O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelish. - O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi. - Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi. -O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi. -Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi. -O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi. -O'z-o'zini baxolashning o'sishi. -O'quvchilarning predmetning mazmuniga o'qitish 	<ul style="list-style-type: none"> - Ko'p vaqt talab etilishi. - O'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi. -Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda xam o'qituvch rolining past bo'lishi. -“Kuchsiz” o'quvchilar bo'lganligi sababli “kuchli” o'quvchilarning xam past baxo olishi. - O'qituvchining o'zi xam yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishning talab etilishi

<p>jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.</p> <p>-Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi.</p> <p>-Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni xam rivojlantirish.</p> <p>-Muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.</p>	
--	--

5.6 “Ta’lim metodlari” tushunchasining mohiyati.

Metod (yunoncha «metohodos» yo‘l) maqsadga eltuvchi yo‘lni ifodalaydi.

Ta’lim metodi ta’lim jarayonida shaxsni ta’limi, tarbiyasi, rivojlanishi vazifalarini hal qilishga yo‘naltirilgan, o‘zaro aloqador faoliyat yo‘lidir, deb ta’rif beradi V. A. Slastyonin.

R.G. Lembergning fikricha, ta’lim metodlari faoliyat singari ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, pedagogik jarayonda subektsubekt munosabatlarini o‘rnatadi.

M. M. Pistrakning ta’kidlashicha, «Ta’lim metodi—bu o‘qituvchi qo‘lidagi qurol, bu o‘qituvchi harakati yo‘lidir».

P. N. Shimbirevaning yozishicha, «ta’lim metodi —bu yo‘l, u yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni bilim o‘zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi».

M. N. Skatkinning ta’kidlashicha, «ta’lim metodi bu—o‘quvchini bilimni o‘zlashtirishga yetaklovchi yo‘lidir».

I. Ya. Lerner «ta’lim metodi—bu o‘quvchilarni o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo‘li»dir deb ta’kidlaydi.

Yu.K.Babanskiy «ta’lim metodi» — bu ta’lim, tarbiya, rivojlanish vazifalarini hal etish bo‘yicha o‘qituvchi va o‘quvchining aloqador faoliyati yo‘lidir» deb ta’kidlaydi.

Ta’lim metodi —bu o‘qituvchining o‘quvchilarni o‘quv materialini o‘zlashtirishga, turli didaktik vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan, o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo‘lidir” deb ta’kidlaydi I. F. Harlamov.

G.M.Kodjaspirovaning ta'kidlashicha, «ta'lim metodi — ta'lim mazmunini o'zlashtirilishini, o'quvchilarni aqliy qobiliyatlarni rivojlanishini ta'minlovchi, o'qituvchi va o'quvchining ketma-ket, o'zaro aloqador harakatlari tizimidir.

Ta'lim metodini uch xil belgi xarakterlaydi. U ta'lim maqsadini, o'zlashtirish yo'llarini, ta'lim subyektlarini o'zaro bog'liqlik harakatlarini aniqlaydi.

Ta'lim metodi—bu ta'lim vazifasini hal qilishga yo'naltirilgan, o'qituvchi va o'quvchini birgalikdagi faoliyatidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiytarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir.

Umuman, ta'lim metodlarining majmuyi — atrofdagi voqelikni bilishning yo'li deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zlashtirishning o'zidir. Ta'lim nazariyasi o'qitish metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

Metod strukturasi o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida xatti-xarakatlari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;

- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

- nazorat va o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish usullari;

- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarini va tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

5.7 Ta'lim metodlarining tasnifi. Ta'limning zamonaviy vositalari.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rga nishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Ta'lim nazariyasida ta'lim metodlarini tasnif etishga oid har xil qarashlar mavjud. Ba'zi olimlar ta'lim metodlarini bilish manbalariga ko'ra tasnif etishsa, ikkinchi guruh mutaxassislar o'qituvchi faoliyati xususiyatidan kelib chiqishgan, uchunchi guruh mutaxassislar o'quvchi faoliyatini inobatga olishgan.

Y.I.Perovskiy, N.M.Verzulin, Y.Ya.Golant metodlarni og'zaki, ko'rgazmali va amaliy turlarga ajratishgan.

M.A.Danilov va B.P.Yesipovlar esa metodlarni: bilimlarni o'rganishga oid metodlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari, ijodiy ishlash metodlari, bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari turlariga ajratishgan.

M.N.Skatkin va I.Ya.Lernerlar ta'lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratishgan: izohliko'rgazmali metodlar, qayta eslashga oid standart metodlar, muammoli bayon metodi, evristik metod, ilmiy izlanish metodlari.

Yu.K. Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:

- bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T. A. Iina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K.Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

- yangi bilimlarni berish metodlari (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza);

- yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yin, mashqlar;

- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

- mustaqil ish.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.



Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.


Pedagogik amaliyotda ko'p miqdorda ta'lim metodlari to'plangan. Ma'lumotlarni qabul qilish manbalariga va didaktik vazifalariga ko'ra

pedagogikada ta'lim metodlarining bir qancha klassifikatsiyalari mavjud. Ko'p tarqalgan o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyati tuzilmaviy elementlariga asoslangan ta'lim metodlari klassifikatsiyasi hisoblanadi:

- og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar;
- reproduktiv va izlanish metodlari, induktiv va deduktiv metodlar;
- mustaqil ish metodlari;
- nazorat va o'zo'zini nazorat metodlari.

Ta'lim metodlari tizimida metodlar quyidagi turlarga bo'linadi





Ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan sinf doskasi va bo'rdan tortib, elektron hisoblash mashinalarigacha bo'lgan, o'quvchi talabalarga ma'lumotlarni chuqur anglashga yordam berishga yo'naltirilgan materiallar o'qitish vositalarini anglatadi.

Ko'rib turganimizdek bu materiallar turlicha bo'lib, avvalo, ularning o'ziga xos xususiyati, ta'limtarbiya jarayonidagi o'rni bo'yicha farqlash lozim. O'qitishning didaktik vositalari yangi ma'lumotlarni o'qituvchi tomonidan bayon qilish, o'quvchilar tomonidan esa o'zlashtirishning eng qulay manbai hisoblanadi.

Didaktika fanida o'qitish metodlari va o'qitish vositalarining o'zaro bog'ligi, biri birisiz mavjud bo'lolmasligi va ko'zlangan maqsadga erishishning qiyin bo'lishi qayd etib o'tiladi. Chunki, o'qitish metodlari, o'quvchitalaba erishmoqchi bo'lgan fan cho'qqisiga ko'tarilishining yo'li bo'lsa, o'qitish vositalari mana shu yo'lda o'quvchi va o'qituvchiga suyanchiq bo'ladigan, yo'lni shamchiroq singari yoritadigan «kompas», «xarita» sifatida ishtirok etadigan qurol hisoblanadi. Mabodo shu qurol bo'lmasa, yoki o'tmas, ishga yaroqsiz bo'lib qolgan bo'lsa unda muddaoga erishish qiyin kechadi. Shuning uchun ta'lim-tarbiyada o'qitish vositalari aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisadir. Ma'lumki, tabiat hodisalari, jamiyatda ro'y beradigan voqealar inson ongi orqali o'zlashtirilganda odam va tabiat, jamiyat o'rtasida qandaydir aloqa o'rnatiladi. Mana shu aloqa rolini ta'limda o'qitishning didaktik vositalari bajaradi. Shunga asosan o'qitish, o'qitish jarayonini «inson–o'qitish vositalari –muhit (ob'yekt)» kontekstida izohlash pedagogikada qabul qilingan. O'quv-tarbiya jarayonida bu vositalardan keng foydalanish

o'qitishning mukammalligini, ishonchliligini kuchaytirib, o'rganuvchilarning ob'yekt voqealarin tushunib etishini oshiradi va bilim sifatini yaxshilaydi.

Ta'lim jarayonida o'qitish metodlarini va vositalarini tanlash ko'plab ob'yektiv va subektiv omillarga bog'liq:

ta'lim qonuniyatlariga va prinsiplariga;

insonni rivojlanishi, tarbiyasi va ta'limi maqsadiga;

aniq ta'limiy tarbiyaviy vazifalarga;

ta'lim motivatsiyasi darajasiga;

aniq o'quv predmetini o'qitish metodikasi xususiyatlariga;

material mazmuniga;

u yoki bu materialni o'zlashtishga ajratilgan vaqtiga;

o'quv material miqdori va murakkabligiga;

o'quvchilarni tayyorgarlik darajasiga;

o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlariga;

o'quvchilardagi o'quv ko'nikmalarini shakllanganligiga;

mashg'ulot turi va tuzilishiga;

o'quvchilar miqdoriga;

o'quvchilarni qiziqishiga;

o'quv jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi hamkorlikka; moddiy texnik ta'minotiga;

pedagog shaxsi xususiyatlariga.

Ta'lim nazariyasida o'qituvchilarni amaliy tajribalarini umumlashtirish va o'rganish asosida o'quv-tarbiya jarayonlarida ta'lim metodlarini tanlashga oid yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ta'lim metodlarini tanlash:

— o'quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish, ta'lim berish, ma'lumotli qilish umumiy maqsadlariga;

— o'quv predmeti va mavzu mazmuniga;

— aniq o'quv predmetini o'qitish metodikasi xususiyatlariga;

— aniq bir darsni maqsad va vazifasiga hamda mazmuniga;

— materialni o'rgatish uchun ajratilgan vaqtga;

— o'quvchilarni yosh xususiyatlariga hamda ularni bilish imkoniyatlari darajalariga va o'quvchilarni tayyorgarlik darajalariga;

— o'quv muassasasini moddiy, uslubiy ta'minlanganligiga;

— o'qituvchini xususiyat va imkoniyatlariga, nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga, uslubiy, kasbiy mahoratiga, shaxsiy sifatlariga bog'liq.

Yuqoridagi mezonlarga ko'ra o'qituvchi darsda u yoki bu metodlardan foydalanadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha bering.
2. Dars va uning tiplari haqida ma'lumot bering.
3. Darsga qanday talablar quyiladi?
4. Darsning reja konspekti.
5. Darsning texnologik kartasi.
6. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllariga nimalar kiradi?
7. Ta'lim metodining mohiyati nima?
8. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi mohiyatini tavsiflang.
9. Sizningcha qaysi ta'lim metodlari klassifikatsiyasi asosiy hisoblanadi?
10. Ta'lim vositasi qanday vazifalarni bajaradi?
11. Ta'lim vositalari qaysi asoslarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi?



Mavzuga doir testlar.

1. O'qituvchining o'quvchilar bilimlarini chuqur, ongli va mustaqil egallab olishlariga qaratilgan va o'quvchilar bilish faoiyatini boshqarishni ta'minlaydigan faoliyat usullari uima deb yuritiladi?

- A. O'qitish qoidalari
- B. O'qitish jarayoni
- C. Ta'lim metodlari
- D. O'qitish tamoyillari

2. Ta'lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ularning bilish imkoniyatlari bilan bog'liq usul qanday usul deyiladi?

- A. O'yin mashqi
- B. Og'zaki mashq
- C. Yozma mashq
- D. Individual mashq

3. Ta'lim jarayoni asosini qaysi tarkibiy qismlar tashkil etadi:

- A. Ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli

B. O'quvchini o'quv-bilish faoliyati, ichki ziddiyatlari, o'qituvchi faoliyati

C. Yangi bilimlarni bayon qilish, mustahkamlash

D. Aralash, amaliy va tajriba ishlari

4. Davlat standarti nima? Ta'limning:....

A. Zarur va yetarli darajasi

B. O'quv yuklamalarini me'yorga keltirilishi va ularning hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari

C. O'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablari

D. O'quv yuklamalarini me'yorga keltirilishi

5. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari qaysilar?

A. ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

B. umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi, akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriylik, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqlik;

C. ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

D. barcha javoblar to'g'ri

Tayanch atamalar

Korreksion pedagogika, inkluziv ta'lim, anomal bolalar, sensorlar, difektologiya, maxsus pedagogika, ruhiy kamchilik, jismoniy nuqson, diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-proflaktika

6.1 Korreksion pedagogika - pedagogika fanining tarmog'i sifatida.

Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «korrektio» tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.


Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion- profilaktik faoliyatlar bilan birqatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.



Korreksion (maxsud) pedagogika
(defektologiya — yunoncha defectus —
nuqson, kamchilik, logos — fan. ta'limot) —
rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka
davolovchi va tarbivalovchi fan

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagogik yondashuv asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775—1838-

yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856—1926-yillar) katta hissa qo'shdi.

Frantsuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Sjmon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asosch hisoblanadilar.

6.2 O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish.

O'zbekiston respublikasida 2020 yil 23-sentyabrda ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 11 bob 75 moddadan iborat bo'lim har bir bob ta'lim jarayonining ma'lum bir sohasiga bag'ishlangan. Mazkur qonun orqali ta'limdagi munosabatlar tartibga solib, turiladi, boshqariladi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 3-bobi ta'lim shakllari va turlariga ba'g'ishlangan bo'lib, ta'lim tizmi, ta'lim turlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularning faoliyati bilan bog'liq masalalar, ta'lim shakllari va ularning mazmuni nima bag'ishlanganligi bilan ajralib tutadi. Mazkur bobda anomal bolalar, inkluziv ta'lim korreksion pedagogika sohalariga ham bo'g'liq moddalar bo'lib ular orqali ta'lim tizimida anomal bolalarning ta'lim olishlari uchun shart sharoitlar, imkoniyalar va davlatni roli va o'rni haqida bayon qilingan.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 15- moddasida O'zbekistondagi ta'lim shakllari haqida aniq ma'lumot berilib, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy), dual ta'lim, oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish, inkluziv ta'lim, eksternat tartibidagi ta'lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash masalalariga e'tibor qaratilib keyingi moddalarda ta'lim shakllarining har biri izohlangan.

Qonunning 20-moddasida inkluziv ta'lim haqida bayon qilinib, anomal bolalar va ularning ta'lim olishari uchun davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, ruhiy va tayanch organlarida nuqsoni bo'lgan

bolalar va ularning ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar va qulayliklarni yaratib berishga har bir ta'lim muassasalarining o'z teng imkoniyat yaratib berishlari lozim. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi¹².

Inklyuziv ta'limni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va nazorat qilib boriladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat- bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakatlar yig'indisi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, etarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos — noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarifii qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

¹² <https://lex.uz/docs/-5013007>

6.3 Anomal bolalar va ularni klassifikatsiyalash. Inklyuziv ta'lim va uning o'ziga xosliklari.

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi. psixik funktsiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funktsiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofda gilarining uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

O'tgan asrning 60—70-yillarida respublikada korreksion pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967-yili Nizomiy noniidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion —tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlaryaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» — o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir.

Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Itimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va

kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Rehabilitatsiya jarayonida kasallik oqibalida buzilgan funktsiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Rehabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» — moslashish) — anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korrektsion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish — murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar bilan korrektsion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korrektsion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korrektsion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni rehabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korrektsion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo‘qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo‘naltirilgan bo‘lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o‘zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Hozirgi kunda respublika olimlari defektologlari ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko‘rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o‘rganmoqdalar va izlanishlar olib borilib samarali yutuqlarga erishmoqdalar.



Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Anomal bolalar deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekistonda ammalga oshirilyotgan ta‘lim jrayonida anomala bolalar uchun qanday imkoniyatlar yaratilmoqda?
3. O‘zbekistondagi inklyuziv ta‘lim ahvoli haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Korreksion pedagogika oid ma‘lumotlar asosida krassvord tuzing?
5. T-jadval asosida anomal bolalardagi ruxiy holarni taqqoslang?
6. Reabilitatsiya jarayonlari haqida so‘zlab bering?
7. Ta‘lim tizimida inklyuziv ta‘limning ahvoli haqida ma‘lumot bering?
8. Bugungi kunda jahon mamlakatlardagi inklyuziv talim haqida mustaqil ish tayyorlang?
9. Inkluziv ta‘lim haqida video rolik tayyorlang?
10. “Barcha ta‘lim olish huquqiga ega” mavzusida insho yozish?



Mavzuga doir testlar

1. Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya qachon bo'limi qachon tashkil etildi?

- a) 1967-yilda
- b) 1875 yilda
- c) 1997 yilda
- d) 1997 yilda

2. Adaptatsiya so'zining ma'nosi?

a) (yunoncha «adapto» — moslashish)
b) (yunoncha «compensatio» — o'rnini to'ldirish, tenglashtirish)

- c) (yunoncha tuzatish)
- d) Barcha javoblar noto'g'ri

3. Korressiya so'zining lug'aviy ma'nosi qanday?

a) (yunoncha «adapto» — moslashish)
b) (yunoncha «compensatio» — o'rnini to'ldirish, tenglashtirish)

- c) (yunoncha tuzatish)
- d) Barcha javoblar noto'g'ri

4. Yunoncha «compensatio» so'zidan olingan bo'lib, o'rnini to'ldirish, tenglashtirish ma'nolarini bildiruvchi so'z?

- a) Kompetansiya
- b) Konsepsiya
- c) Korreksiya
- d) Adaptasiya

5. Inklyuziv ta'lim haqida “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning nechanchi moddasida belgilangan?

- a) 15 moddasida
- b) 20 moddasida
- c) 5-moddasida
- d) 3- moddasida

VII-BOB. TA'LIM MENEJMENTI ASOSLARI



Tayanch atamalar

Boshqarish, menejment, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv metodlari, boshqaruv uslublari, pedagogik kengash, metodika kengashi, metodika birlashmasi, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish, metodik xizmat ko'rsatish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.

7.1 Ta'lim menejmenti tushunchasi. Ta'lim tizimini boshqarish prinsiplari.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

«Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxonalar va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib etganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment o'quv predmeti sifatida 1881-yilda amerika kollejlari Djozef Varton tomonidan o'qitila boshlangan. Bugungi kunda olimlar menejment ijtimoiy tashkilotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini ifodalashini ta'kidlamodalar. Dunyoda tan olingan amerikacha, fransuzcha va yaponcha menejment maktablari mavjud.

Amerikacha boshqaruvda — tashabbuskorlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, tashkilotchilik, ishchanlik;

Yaponcha boshqaruvda — har bir xodimga g'amxo'rlik, ishlab chiqarishning ijtimoiy xavfsizligi, shakllanish istagi, ichki go'zallik;

Fransuzcha boshqaruvda—boshqaruv tizimini shakllantirish uchun insoniy madaniyat, yuqori darajadagi aloqadorlik madaniyati, milliy, tarixiy, madaniy an'ana elementlaridan foydalanish.

Menejmentning asosiy prinsiplarini quyidagilar tashkil etadi:

- maqsadga yo‘naltirilganlik va uzluksizligi;
- ilmiylikni san‘at elementlari bilan uyg‘unligi;
- markazdan boshqaruvni o‘z-o‘zini boshqarish bilan uyg‘unligi;
- xodimlarni individual xususiyatlarini hisobga olish;
- huquq va mas‘uliyat birligini ta‘minlash;
- doimiylik va ketma-ketlik;
- harakatlarni nazorat qilish va boshqarish;
- shaxslararo munosabatlarni qonuniyat sifatida hisobga olish.

Pedagogik menejment — bu: birinchidan; pedagogik tizim sifatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan boshqaruv prinsiplari, metodlari, shakllari va texnologik usullari yig‘indisini, ikkinchidan, pedagogik jamoa va o‘quvchilar faoliyatini ilmiy boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik menejment xususiyatlari ta‘lim menejeri mehnatining natijasida, mehnat qurolida, mahsulotida, mehnat predmetida ifodalanadi.

Ta‘lim jarayoni menejeri mehnati predmeti u boshqarayotgan odamlar faoliyatidir.

Mehnat xomashyosi bu - o‘quv tarbiyaviy jarayon to‘g‘risidagi ma‘lumot.

Mehnat quroli - so‘z, nutq.

Ta‘lim jarayoni menejeri mehnati natijasi menejment ob‘yektini, ya‘ni o‘quvchilarni ta‘lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik darajasidir. Pedagogik menejment pedagogik tizimni rivojlanishining samaradorligini oshirishga yo‘naltiriladi.

Pedagogik tizimni boshqarishda quyidagi prinsiplarga asoslaniladi. Boshqaruv prinsiplari - bu boshqaruvda amal qilinadigan asosiy talab va qoidalardir. Prinsiplar boshqaruv qonuniyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruvni demokratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish;
- boshqarishni tizimlilik va yagonaliligi;
- boshqarishda markaz va hudud uyg‘unligi;
- boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg‘unligi;
- boshqaruvni ilmiy asoslanganligi;
- boshqarishda ma‘lumotlarni to‘liqligi va haqqoniyligi.

7.2 “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim tizimini boshqarish masalalari.

Ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda (2020), ya’ni ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarida aks etgan. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun respublikamizda ta’limni boshqarishning davlat organlari tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida, O‘zbekistonda ta’lim sohasini boshqarish Respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan.

Xalq ta’limi Vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi O‘zbekiston Respublikasida ta’limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi.

Xalq ta’limi vazirligining mahalliy oiganlariga xalq ta’limi viloyat boshqarmalari, shahar, tuman bo‘limlari kiradi. Xalq ta’limi bo‘limlari mahalliy hokimlik tasarrufiga kiradi va unga bo‘ysunadi. Koraqolpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, xalq ta’limi viloyat j boshqarmalari, shahar va tuman bo‘limlari ikki tomonlama —

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga va tegishli ravishda Koraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashiga, viloyat, shahar, tuman hokimliklariga bo‘ysunadilar.

Ular maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta’minlash uchun ko‘maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o‘rinbosarlarini tayjnlash ham kiradi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya’ni, vazirliklar va xalq ta’limi bo‘limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o‘rganadi. ta’lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi. ilg‘or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi. kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlaydi. maktab direktori va o‘qituvchilaiga yordam ko‘rsatadi.

Ta’lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o‘rta ta’lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o‘tkaziladigan maktab jamoasining konferentsiyasi jamoatchilik boshqaruvining yuqori organi hisoblanadi. Konferentsiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning

Ustavi qabul qilinadi, o‘qitish qaysi tilda olib borilishi aniqlanadi va hokazo. Konferentsiyalar oraliqida o‘z-o‘zini boshqarishning yuqori organi vazifasini maktab kengashi bajaradi. Maktab kengashi bir yilda 4 marta chaqiriladi.

Davlat ta‘lim muassasalari bilan bir vaqtda nodaviat ta‘lim muassasalarining faoliyat ko‘rsatishi ham ta‘limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

7.3 O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy o‘rta ta‘lim haqida”gi Nizomi.

Umumiy o‘rta ta‘limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumiy o‘rta ta‘limning o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bilan uzviy aloqadorligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy o‘rta ta‘lim haqida”gi Nizomi 2017-yilda Vazirlar Mahkamasining 140-sonli qarori qabul qilingan.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘limni tashkil etish va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining faoliyatini amalga oshirish tartibi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Nizomdan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining maqsadi qilib davlat ta‘lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta‘lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro‘yobga chiqarish ekanligi belgilangan. Shuningdek, Umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchilarga bilimlarning zarurini o‘qitish, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbga yo‘naltirishga va ta‘limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berishdek maqsadar ham nazarda tutilgan.

Nizomda umumiy o‘rta ta‘limning vazifalari qilib belgilab berilgan. Jumladan umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga o‘quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta‘minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish, o‘quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o‘z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish, ta‘limning uzluksizligini va izchilligini, umumta‘lim muassasalari o‘quv dasturlarining o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional ta‘lim

muassasalari o'quv dasturlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarni hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish, professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek o'quvchilarni yuqori malaka talab etmaydigan kasblarga tayyorlash kabi azifalar belgilab berildi.

Belgilangan vazifalar va maqsadni bajarish umumta'lim muassasalari, o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratib beradi. Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomida umumiy qoidalar, umumiy o'rta ta'limning maqsadi va vazifalari, umumiy o'rta ta'limni tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, umumta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilish, o'quvchilar sog'lig'ini muhofaza qilish, pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, umumiy o'rta ta'limni boshqarish, moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti, yakuniy qoidalar kabi boblari bo'lib, ularda umumiy maktab faoliyatining barcha jabhalari o'z ichiga olingan va har bir masalalarni bajarish yuzasidan aniq ko'rsatmalar berilgan.

7.4 Pedagog kadrlar malakasini oshirish. Pedagog kadrlar attestatsiyasi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash (O'zRda) — uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri, xalq xo'jaligining barcha sohasida ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni. Kadrlarning raqobatbardoshlik sifatleri hamda bilim va ko'nikmalarining zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash har bir xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuklari, yangiliklari bilan tanishish, ularni o'zlashtirish, yangi amaliy ish usullari, ilgor ish tajribalarinio'rganishdan iborat ilmiy nazariy hamda amaliy tayyorgarlik jarayoni hisoblanadi. Malaka oshirish va kayta tayyorlash davriyligi turli mutaxassislar hamda rahbar xodimlar uchun turlicha bo'lib, 2—5 yilda 1-marta, zarur hollarda bundan qisqa muddatlarda o'tkaziladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash universitetlarda, malaka oshirish institutlarida qamda professional qayta tayyorlash huquqiga ega bo'lgan o'quv markazlarida amalga oshiriladi. Mazkur jarayon ishlab chiqarishdan ajralgan, qisman ajralgan va ajralmagan holda bo'lishi mumkin. Uning shakli Malaka oshirish ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim dasturining murakkabligi e'tiborga olingan holda va buyurmachining u bilan tuzilgan shartnomasi asosidagi ehtiyojlariga muvofiq ravishda belgilanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muddati turlicha bo'lib, har bir holda qo'yilgan maqsad hamda vazifalarga muvofiq belgilanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasasi o'quv jarayonini maqsadli tashkil etish, ta'lim shakli, uslublari, texnologiyasini qo'llash orqali tinglovchilarga ta'lim dasturlarini o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitlar yaratadi. Mazkur dasturlar malaka oshirish ta'lim muassasalari tomonidan buyurtmachi ehtiyojlarini, shuningdek, qo'shimcha kasb ta'limi dasturlari mazmuni oldiga qo'yilgan davlat talablarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va amalga oshiriladi.

Mutaxassislarni professional malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayoni yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi. Attestatsiyani o'tkazish tartibi ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli davlat organlari tomonidan belgilanadi. O'quv rejasining barcha talablarini bajargan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilar Malaka oshirish va qayta tayyorgarlikdan o'tganligi haqida belgilangan namunadagi diplom yoki sertifikat oladilar. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zR Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida 2021 yil 243-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinib, tartib belgilab berildi.

7.5 Maktab - pedagogik tizim va boshqarishning ob'yekti sifatida.

Maktabga rahbarlik qilish va uni boshqarish O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi to'g'risidagi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi..

Maktabni davlat jamoatchilik asosida boshqarish, xalqchilik, oshkoralik, o'z-o'zini boshqarish prinsiplari mintaqa xususiyatlarini hisobga olib boshqariladi. O'quvchilar, maktab xodimlarini birlashtiruvchi maktab jamoasi o'z vazifasini ota-onalar, mahalla

qo'mitalari, keng jamoatchilik bilan mustahkam hamkorlikda amalga oshiradi.

Maktabni boshqarish maktab pedagoglar kengashi tomonidan jamoani o'z-o'zini boshqarish va bevosita rahbar tomonidan tasdiqlangan maktab Nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

Maktab konferensiyasi maktabning o'z-o'zini boshqarish asosiy bo'g'inidir. Konferensiyalar oralig'ida esa maktab kengashi oliy organ hisoblanadi.

Maktabning o'quv tarbiya jarayonini va uning joriy faoliyatini maktab Nizomida belgilab berilgan direktor boshqaradi.

O'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasb mahorati va ijodkorligini o'stirish maqsadida maktab pedagoglar kengashi, pedagog xodimlarni birlashtiruvchi jamoa tuziladi.

Pedagoglar kengashi raisi pedagog xodimlar jamoasi tomonidan saylanadi. Uning ish tartibi maktab Nizomida belgilab beriladi.

Bolalar, o'smirlar va yoshlar jamoat tashkilotlari matabda o'z Nizomlari asosida amaldagi qonunchilikka muvofiq faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagoglar jamoasi, maktab rahbariyati va bolalar, o'smirlar hamda yoshlar jamoat tashkilotlarining munosabati o'zaro hurmat, ishonch, ma'muriy va hamkorlik asosida quriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoida, yo'l-yo'riq va talablar asosida maktabni ilmiy asosda to'g'ri boshqarish – maktab rahbarlari, maktab o'qituvchilarining mutaxassisligi bo'yicha tashkil etiladigan metod birlashmalarning rahbarlari, maktab kengashi va konferensiyasining rahbarlari, o'qituvchilar va sinf rahbarlarining maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslarini, boshqarish bobidagi ilg'or pedagogik tajribalarni qanchalik darajada egallab olganliklariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umumiy ta'lim maktabi – ta'lim-tarbiya muassasasidir. Uning rahbarlari zimmasiga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, inson shaxsini hozirgi davrning g'oyalari ruhida tarkib toptirish jarayonini boshqarish vazifasi yuklatilgan.

Jamiyatda har bir xo'jalik tizimi va ishlab chiqarish o'chog'i ikki tizimchaning: boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimchaning birligidir. Masalan, korxonada tizimida direktor boshchiligidagi zavod boshqarmasining butun boshqarma apparati boshqarish tizimiga kiradi.

Maktab ichki boshqariuv tizimini tashkil qilishda ham ana shu qoidalarga asoslaniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganimizda maktab

ichki boshqaruv tizimida ham boshqaruvchi (maktab ma'muriyati, kasaba uyushmasi tashkilotlari) va boshqariluvchi tizimchalar mavjud. Masalan, maktab ichki boshqaruv tizimida direktor boshliq, uning o'quv, tarbiya va xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosarlari boshqariluvchi tizimchasiga kiradi.

Boshqariluvchi tizimcha esa o'z yo'lida bir qancha boshqarish manbalariga bo'linadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Maktabning o'quv-moddiy va texnikaviy bazasiga taaluqli ishlar;
2. Maktabni o'qituvchi va tarbiyachi hamda texnik xodimlar bilan ta'min etish, ularni joy – joyiga to'g'ri qo'yish va ular bilan ishlash;
3. Maktab jamoasi faoliyatida boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta umumiy ta'limni amalga oshirish;
4. Maktabning o'quv- tarbiya (1-11- sinflar bo'yicha) ishlari;
5. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar;
6. Maktabning metodik ishlari;
7. Sinf rahbarlari;
8. Maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan ishlar;
9. Maktab kutubxonasi ishlari;
10. Ota-onalar ko'mitasi ishlari;
11. O'quvchilarni issiq ovqat va choy bilan ta'minlash ishlari;
12. O'quvchilarga meditsina xizmatini tashkil qilish bo'yicha ishlar;
13. Qishloq joylarida (3 km) uzoqdan qatnaydigan o'quvchilarga transport tashkil qilish ishlari;
14. Maktabning moliya- xo'jalik ishlari;
15. Maktabning hamkorlikdagi ishlari. Bu hamkorlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - a) maktabning ota- onalar va jamoatchilik bilan hamkorligi;
 - b) meditsina va savdo tashkilotlari bilan hamkorlik;
 - v) otaliq va baza korxonalar bilan hamkorlik;
 - g) kitob savdosi tashkilotlari bilan hamkorlik;
 - d) tuman yoki shahararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari bilan hamkorlik;
 - y) o'rta maxsus hunar-texnika bilim yurtlari va akademik litseylar bilan hamkorlik;
 - j) maktabdan tashqari bolalar muassasalari bilan hamkorlik;
 - z) qurilish ta'mirlash tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlar va hokazolar.
16. Maktab hujjatlarini yuritish ishlari;
17. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish ishlari;

18. Maktabning pedagogik tashviqot ishlari va shu kabilar.

Mazkur mabalarni to'g'ri va hozirgi kun talablari asosida boshqarish va unga rahbarlik qilishning muhim sharti maktab ishini ilmiy asosda rejalashtirish, rahbarlar o'rtasidagi ishni to'g'ri taqsimlash, maktab ma'muriyati bilan jamoatchilik tashkilotlari o'rtasidagi ishni ham maqsadga muvofiq holda belgilash, boshqarishda rahbarlik bilan nazoratni uzviy qo'shib olib borish hamda boshqarishning samarali usul va shakllarini qidirib topishdan iboratdir.

Umumiy ta'lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan ish rejalari mavjud. Ular quyidagi rejalardir:

Maktabning ma'lum davrga mo'ljallab (bir yoki ikki besh yillik uchun) tuziladigan ish rejasi. Buni maktabning istiqbol ish rejasi deb ataladi.

Bu ish rejasi umummaktab xalq xo'jalik reja-ko'rsatkichlari asosida tuziladi. Bunda maktabning ma'lum davrga rivoji (o'quv-moddiy va texnika bazasi, maktab qurilishi, sinflar soni, o'quvchilar va o'qituvchilar soni, maktabni bitiruvchilar soni, o'quv xonalarining soni kabilar) turli raqamlar asosida ko'rsatiladi.

Maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasi maktab ish turlari asosida tuziladi. Maktabning mazkur ish rejasining mazmuni va mundarijasi xususida biz keyinroq to'xtaymiz.

Maktabning joriy ish rejasi. Mazkur reja maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan ish rejasi asosida ishlanadi. Bu reja turkumiga:

-maktab direktori va uning o'rinbosarlarining bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzadigan ish rejalari;

-maktabda fanlar bo'yicha tashkil etilgan metodik birlashmalarning ish rejalari;

-sinf rahbarlarining ish rejalari;

-fan to'garaklari va kuni uzaytirilgan guruh rahbarlarining ish rejalari;

-maktab kutubxonasining ish rejasi;

-maktab ustaxonasining ish rejasi;

-maktab ota-onalar komitetining ish rejasi;

-maktab vrachi va hamshirasining ish rejasi;

-har bir boshlang'ich va fan o'qituvchisining taqvim va kundalik darsni o'tkazish rejasi kabi rejalar kiradi.

Shuni alohida uqtirish lozimki, rejani to'g'ri tuzish bilan ish bitmaydi. Ishning muvaffaqiyati shu rejani qanday usulda, qanday

shaklda amalga oshirishga, unda belgilangan tadbirlarni hayotga tatbiq etish mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq.

Maktab rejasini amalga oshirishda quyidagilar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi:

1) maorifning yuqori tashkilotlari, xalq ta'limi bo'limlari va maktabga yaqin bo'lgan turli muassasalar bilan mustahkam aloqa o'rnatganligi;

2) boshqarish va rahbarlik ishiga bilimdon, o'ta halol, ishbilarmon va yaxshi ma'muriy qobiliyatga ega bo'lgan pedagog xodimlar jalb etilganligi;

3) xodimlar o'rtasida ish taqsimotining to'g'ri tashkil etilganligi;

4) rahbar xodimlardan tortib eng quyi ijrochigacha umumiy rejadan kelib chiqadigan shaxsiy (joriy) ish rejasini tuzib, shu asosda ish yuritishi;

5) rahbarning maktab ish rejalarining bajarilishi yuzasidan samarali hamda uzluksiz nazoratni o'rnatganligi.

Maktab rejasi ustida ishlash jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod taqdiri haqida, ularni aqlan va jismonan kamol toptirish haqida, maktab ishini rejalashtirishda o'qituvchilar jamoasining ijodiy taqdiri haqida, ziyokorlarni ma'naviy jihatdan o'stirish va ularning ilmiy, metodik va umumpedagogik mahoratini oshirish haqida o'ylash lozim. Zero, maktabda o'quv dasturlarining bajarilishi, o'quvchilar bilimining sifati, ularning tarbiyalanganlik darajasi, umuman olganda o'quv-tarbiya ishining hamma jihatlarini o'qituvchiga, uning halol mehnatiga bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktablarning ish rejalarida o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish, maktabning o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya ishining dolzarb masalalariga qaratilgan turli mavzularda seminarlar, konferensiyalar o'tkazish, maktab o'qituvchilarining pedagogik o'qishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

7.6 Maktabning ichki boshqaruvi, uning tuzilishi va vazifalari.

Maktab har qanday ijtimoiy tashkilot sifatida ochiq turdagi murakkab tizim hisoblanadi. Alohida ta'lim muassasa sifatida maktab ta'lim tizimiga tegishli. Maktabni tashqi muhit bilan aloqasi ikkitomonlama bo'lib, ya'ni maktab ijtimoiy muhitni ta'sirini sezgan holda jamiyatni rivojlanishiga o'zi ham ta'sir qiladi.

Ijtimoiy tashkilot sifatida ta'lim muassasasini boshqarishning o'zaro aloqador ikki tomonini ifodalovchi tashqi va ichki turlari mavjud.

Maktabni tashqi boshqaruv ta'lim tizimini boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi quyidagi vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi:

Ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.

Maqsad qo'yish va rejalashtirish.

Tashkil etish.

Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.

Tartibga solish.

Pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

kundalik tahlil;

tizimli tahlil;

yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o'quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma'lumot yig'ib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarning sabablarini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritiladi. Bu turdagi tahlilning predmetiga o'quvchilarning har kungi o'zlashtirishlari, intizomlari darajasi, ta'lim muassasasi rahbarlarining darsga va sinfdan tashqari darslarga qatnashishlari, maktabning tozalik holati, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tizimini o'rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta'lim metodlarini to'g'ri uyg'unlashtirish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish, o'qituvchi- larning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatlarini oshirish, ta'lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta'minlash kabilardan iborat.

Yakuniy tahlil o'quv choragi, yarim yillik va o'quv yili yakunida amalga oshirilib, asosiy natijalarga erishish yo'llarini o'rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma'lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy hamda oraliq nazorat yakunlari, fan o'qituvchilarining, sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishni rejalashtirishning quyidagi shakllari mavjud:

- muddatli (perspektiv) rejalashtirish;
- yillik rejalashtirish;
- yakuniy rejalashtirish.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so‘nggi yillarda ta‘lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo‘ljallab qabul qilinadi.

Muddatli rejada quyidagi masalalar aks etadi:

Rejalashtirilgan muddatda ta‘lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalar.

Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning yillik o‘zlashtirish darajasi muddatlari.

Ta‘lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.

Ta‘lim muassasasini pedagogik kadrlariga qo‘yilgan talablar.

Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.

Ta‘lim muassasasini tashkiliy-texnik va o‘quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko‘rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko‘lamini rivojlantirish.

O‘qituvchi va o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik rejalashtirish butun o‘quv yili hamda yozgi ta‘tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o‘quv yili davomida ta‘lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

Yakuniy rejalashtirish bir yillik rejaning aniqlangan ko‘rinishi bo‘lib, u o‘quv choraklari uchun tuziladi. Rejalashtirishning bunday aniqlangan ko‘rinishi o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar qo‘mitasi faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bunday rejalashtirish o‘qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi.

7.7 Pedagogik va metodik Kengash va uning vazifalari.

Pedagogik Kengash — ta‘lim muassasasining boshqaruv organi. Ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o‘stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko‘rsatadi. Pedagogik Kengash ta‘lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Pedagogik Kengashning asosiv vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o'tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

- ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi;

- ta'lim muassasasida o'quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi;

- pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

- ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida mc'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;

- ta'lim muassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

- o'quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;

- o'quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

- doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini berish;

- o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazish shakli va vaqtini belgilash;

- ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko'chirish va bir ikkilamchilamchi yakuniy attestatsiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish;

- ta'lim jarayonini tashkil qilish hamda ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal etish;

- chorak. yarim yillik (semestr), yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

- pedagogik Kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;

- yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'matilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig'ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi.

Metodik Kengashning faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

- ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;

- yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

- ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

- o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

- o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

- ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida qo'llash uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

- o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

- davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;

- tashqi va ichki nazorat natijalariga Davlat ta'lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

- o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

- ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongini shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

- o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar berish;

- yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

- o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

- pedagogik xodimlarning attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

- ta'lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'g'arak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

- Metodika Kengashi yig'ilishlari qarorlashtirilib, Kengashning quyidagi hujjatlari ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi.

Ta'lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumlari bo'yicha Metodika birlashmalari faoliyat ko'rsatadi. Metodika birlashmalarining maqsadi o'qituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga qo'yilgan hozirgi zamon talablarining bajarilishini ta'minlash borasida o'zaro yordamni tashkil etish, ijodiy tashabbuslarni uyg'unlashtirish va ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodika birlashmalari o'zida metodika kengashining vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga metodika birlashmalari quyidagi vazifalarni ham amalga oshiradi:

- fanlar bo'yicha taqvimiy, mavzuiy rejalarni tasdiqlashga tavsiya etish;

oraliq va yakuniy nazoratlar uchun o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash;

- ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish va ommalashtirish;

- tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

- darslarni o‘zaro kuzatishlarni tashkil qilish, natijalarni tahlil etish va mutaxassislariga amaliy yordam berish;
- ta’lim metodlarini o‘rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil etish, ilg‘or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish;
- yosh mutaxassislariga metodik yordam berish;
- ko‘rgazma va ko‘rsatmali vositalardan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalarni berish;
- fan xonalarining me‘yoriy hujjatlar talablari asosida jihozlanishini tashkil etish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida metodika birlashmalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitta, 5-6 sinflarda esa o‘quv rejasidagi alohida fanlar bo‘yicha tashkil etiladi. Agar u yoki bu fan bo‘yicha o‘qituvchilar soni uch nafardan kam bo‘lsa, u holda fan o‘qituvchilari shu turkumdagi fan o‘qituvchilari bilan birgalikda bitta metodika birlashmasiga birlashadilar, akademik litseylarda ham metodika birlashmalari xuddi shu tarzda tashkil qilinadi. Kasb-hunar kollejlarida esa kafedralarda o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha metodika birlashmalari tuziladi.

Metodika birlashmasiga ta’lim muassasasi pedagogika kengashi qaroriga asosan ijodkor va tajribali o‘qituvchilardan ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i bilan rahbar tayinlanadi. Metodika birlashmasi hujjatlariga metodika birlashmasi hisobotlar, metodika birlashmasi faoliyatiga aloqador bo‘lgan a‘zolari haqida ma’lumot, ish rejasi, yig‘ilish bayonnomalari. o‘quv-metodik hujjatlar nusxasi kiradi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Menejment tushunchasiga ta’rif bering?
2. Ta’limdagi boshqaruv jarayonlarini ko‘rgamali metodlardan foydalanib yoritib bering?
3. O‘zbekistondagi ta’lim jarayonini boshqarishni sxemaga solib tushuntirib bering?
4. Ta’lim metodlaridan foydalanib maktabdagi boshqaruvni yoritib bering?
5. Pedagogik kengan va uning vazifalari haqida nimalarni bilib oldingiz?

6. Maktab rahbariyati va ularning vazifalari haqida taqdimot tayyorlang?
7. O‘qituvchi sifatida “Maktabdagi bir kunim“ mavzusida esse yozing?
8. Maktab metod birlashmasi va uning faoliyati haqida so‘zlab bering?
9. Bugungi kunda ta’limdagi islohotlar haqida taqdimot tayyorlang?



Mavzuga doir testlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy o‘rta ta’lim haqida”gi Nizomi qachon qabul qilingan?

- a) 2017-yilda
- b) 2016-yilda
- c) 2020 yilda
- d) 2018- yilda

2. Menejment o‘quv predmeti sifatida 1881-yilda amerika kollejlarda o‘qitish boshlagan olim?

- a) Djozef Varton
- b) Djon Duyu
- c) Komenskiy
- d) Gerbart

3. Kommunikasiya — bu:

- a) kishilar o‘rtasida o‘zaro axborot almashuvidir
- b) ma’lumot va xabarlarini to‘plashdir
- c) davlat nazorati va boshqaruvi ostidagi ob’ektdir
- d) kki va undan ortiq odamlar o‘rtasidagi axborot almashish jarayoni

4. Kengash bu –

- a) bu muayyan masalani muhokama etish va oqilona qaror qabul qilish maqsadida uyushtiriladigan majlisdir.
- b) vakillik xuquqi bulsa, ma’suliyat biror ish, hatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlikdir
- c) bu qarorlarni ishlab chiqish jarayonida barcha baxsli masalalar vav turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish yoki kelishishdir.
- d) bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg‘usi, ishda, kishilarga munosabatda xalollik, to‘g‘rilik, barobarlik, sofdillik va xaqiqatgo‘ylikdir.

5. Motivasiya bu-

a. Insonni aniq maqsadlarga erishish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun harakatga undovchi amaldagi ichki va tashqi kuchlar majmui.

b. Korxonaning ishchi xodimlarni rivojlantirish bo'yicha tadbirlari majmui

c. Alohida ishchilar guruhi, ularning jamoat faoliyatidagi vazifalariga qarab taqsimlash.

d. Bu rahbar, ishchi va boshqa xodimlar orasida muayyan masalalarni xal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyatdir.

VIII-BOB. PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI



Tayancha atamalar

Pedagogika tarixi, pedagogika ta'limoti, pedagogik g'oyalar, pedagogik fikrlar rivoji, maktab-maorif tizimi, zardushtiylik ta'limoti, islom ta'limoti, xalq pedagogikasi, "Bayt ul-hikma", ijtimoiy tarixiy taraqqiyot, pedagogik tafakkur.

8.1 Pedagogik g'oyalarning rivojlanish bosqichlari.

Tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, sanoat, menejment -bularning hammasi kerak, albatta. Lekin, avvalambor tarixni bilish - bu hayotiy zarurat. Hayotni bilish, biz qaysi asrda yashayotganimizni anglash bu hammamizning burchimiz. Ya'ni hayotdan oyog'i uzilgan, real voqelikdan uzoqlashgan odam hech qachon o'z maqsadlariga erisha olmaydi. Bugun yurtimizda kechagi kunni eslmaydigan, ajdodlarni, bobolarini yodga olmaydigan odamning o'zi yo'q, desam, adashgan bo'laman. Pedagogika tarixi fanini o'zlashtirish ma'naviy-ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi inson kamoloti haqidagi g'oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etadi. Pedagogika tarixi fani - kishilik jamiyati taraqqiyotida ijtimoiy o'zgarishlari bilan bogliq va talim tarbiyaning yangi yo'nalishlari va bu yo'ldagi tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyangan holda har bir bo'lg'usi o'qituvchida pedagogik bilim, malaka, ko'nikma va mahoratni, didaktik va tarixiy asarlarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi. Pedagogika tarixi ijtimoiy fan bo'lib uning metodologik asos yosh avlodni tarbiyalash an'analarini jamiyatning taraqqiyoti bosqichidagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarni va ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan fandır. Chunonchi birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish kerak"¹³.

¹³ I.A.Karimov, Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. T.: O'zbekiston. 2015 yil 109-114 betlar

Pedagogika tarixi bo'limi o'z oldida quyidagi vazifalarni belgilaydi: Bo'lg'usi pedagogik kadrlarni asrlar jarayonida yaratilgan pedagogik g'oyalar majmuasi bilan tanishtirish;

- Bolg'usi kadrlarda tarixiy xronologik asosida ta'lim-tarbiya maqsad vazifalari bilan tanishtirish;

- Jamiyatning turli bosqichlarida ilmiy-nazariy pedagogik qarashlarni egallash;

- Turli bosqichlarda shaxs kamoloti konsepsiyasi va uni bugungi kun maktab-maorif tizimi, uning maqsad vazifalari bilan qiyoslash malakasini shakllantirish;

- Ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meroslarimiz umuminsoniy va milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish;

- Turli shakllarda ta'lim-tarbiya uslublari va vositalaxini egallash;

- Tarixiy jarayonlarda g'oyalar-maorif tizimi mazmuni, Xalq an'analarinmg o'rganish orqali talabaiarga vatanparvarlik tuyg'usmi shakllantirish.

- Pedagogika tarixi ta'lim mazmuni va zamonaviy ta'lim mavzuni, ta'lim-tarbiya sohasidagi Davlat me'yoriy hujjatlari, ularning mohiyati bilan bog'lash;

- Rivojlangan davlatlar maktab-maorif tizimi va Respublikamiz maorifini qiyosiy holda o'rganish;

- Pedagogika tarixi ilmi mazmun asosida bo'lg'usi pedagoglarning ijodiy pedagogik tafakkurini shakllantirish. Pedagogika ta'limotlar tarixi mavzusida o'tmish pedagoglarining ta'limoti bilan bir qatorda mashhur filosoflar, yozuvchi va jamoat arboblarning pedagogik qarashlari ham o'rganiladi. Pedagogika tarixiy kasbiy ahamiyatga ega bo'lishdan tashqari muhim umumiy madaniy ahamiyatga ega, chunki u talabalarda o'zlari uchun qadrdon bo'lgan predmet orqali insoniyat tafakkuri tarixi, ijtimoiy taraqqiyoti tarixi bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

Antik davrlarda ta'lim-tarbiya yoshlarga ota-onalarning yashash uchun tabiat ne'matlaridan foydalanish, uy-ro'zg'or yuritish, o'zaro va tabiatga munosabat axloqi, odobi sifatida shakllana boshalagan bo'lsa, bilimlar xajmi kengaya boshlagach, maxsus tarbiyachilarga ehtiyoj tug'ila boshlagan. Ma'lum qabila, elat, millat miqyosidagi ta'lim-tarbiya qoidalari majmuasi konsepsiyalar alohida kishilar (ya'ni kohinlar yoki oqsoqollar) tomonidan takomillashtirilgan. Shuning uchun ta'lim-tarbiya konsepsiyalari ko'p hollarda ma'lum bir shaxs (muallif)ning nomi bilan bog'lanmaydi.

Antik pedagogikda tabiatga, atrof-muhitga o‘zaro insoniy munosabatlar majmuasi bo‘lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda donishmandlik, mehnatsevarlik, ma‘naviy – axloqiy sifatlar bilan uyg‘un rivojlanishi g‘oyasi ilgari surilgan. Bu pedagogik g‘oyalarning shakllanishi va rivojlanishida zardushtiylik ta‘limoti, uning muqaddas kitobi “Avesto” (er.av.VII asr) da va qadimgi Xitoyning Daos maktabi (yer. Av. Sh asr) namoyandalir pedagogik tajribalarida aks yetgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib qadimgi Sharq va Hindiston pedagogikasida insonning ma‘naviy – axloqiy sifatleri va amaliy kasbiy faolligi bilan bog‘liq sog‘lom e‘tiqod, mehnatsevarlik, sofdillik, saxiylik, insoniylik kabi shaxsning barkamollik g‘oyalari ilgari surildi.

Islom ta‘limoti, Qur‘oni Karim va Hadislarda, shuningdek, tasavvuf ilmida ilgari surilgan zoxiriy va botiniy ilmlarning mazmun – mohiyatini, insonning ma‘naviy barkamollik sifatlarini to‘g‘ri anglash ta‘lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, antik falsafa (pedagogika)da ham Demokrit, Platon, Aristotel (Arastu)asarlarida ham zohriy va botiniy ilmlar uyg‘unlikda insonparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan edi.

Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Ahmad alfarq‘oniy asarlarida ilmiy bilish va fan uzviyligi, shuningdek, ta‘limda amaliy faoliyat ustuvorligi g‘oyalari ilgari surildi. XIII – XIV asarlarda Shayx Najmiddin Kubroning Kubroviya ta‘limotiga asos bo‘lgan o‘nta bosqichlar (tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, tavajju, sabr, murokaba, zikr, rizo)ni, ustozlar tanlagan yo‘lning shogirdlarva kamolotidagi dunyoviy ilmlarni birbiriga uyg‘un bog‘lashga bo‘lgan urinish Hazrati Abduholiq G‘ijduvoni y zikri Xufiya, ya‘ni Alloh taol tomonidan ato qilingan ilm (“ilmi laduniy”) ni egallash qoidasi va tartibini amaliy tushuntirib bersa, uning sadoqatli shogirdi Bahouddin Naqshbandiy tariqatlarida mehnatsevarlik, o‘z qo‘l kuchi bilan halol luqma topmoq ko‘ngil esa Alloh Taolo yodi bilan bo‘lmoqqa asoslangan: “Dil ba yoru dast ba kar!”, ya‘ni “Ko‘ngil yor (Alloh) yodi bilan, qo‘l esa ish bilan band bo‘lsin”, degan g‘oya butun musulmon olarniga mashhurdir.

Mirzo Ulug‘bek ta‘lim nazariyasida tadqiqot, kuzatish, umumlashtirish g‘oyasini ishlab chiqdi, bu g‘oyani amalda tadbiq qilib maktab va madrasalar, rasadxona va kutubxonalar ochdi va dasrliklar yozdi.

Umuman olganda, XV-XVI asrlarda Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar ma'rifiy va insonparvarlik g'oyalarini ilgari surishdi.

XVII-XVIII asrlarda Abulg'oziy, Nodira, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Uvaysiy, Berdaq, So'fi Olloyor asarlarida inson aqlini yuksakka ko'tardi va uning qobiliyatiga ishongan holda ma'rifiy – pedagogik g'oyalar o'z aksini topgan.

XIX-XX asrlarda Dilshod otin, Anvar otin, Ahmad Donish, Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Mahmudho'ja Behbudiy, Hamza, Abdulla Avloniy va boshqalar “usuli jadid” ya'ni “yangi usul” maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonida aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini uyg'unlikda amalga oshirish g'oyasini ilgari surishdi.

Shunday qilib, o'zbek pedagogikasi tarixi turli davrlardagi g'oyalar, ma'rifiy – pedagogik qarashlar, ta'lim-tarbiya jarayonlari asosida rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida pedagogika tarixi fani zamonaviy konsepsiyasini yaratish va yanada takomillashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, “Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari” (Safo Ochil); “Pedagogika” (R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev); “Pedagogika tarixi” (K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov); “Pedagogika tarixi” (O.Hasanboeva, J.Xasanboev, H.Hamidov); “O'zbek pedagogika tarixi” (p.f.d. prof. Asqar Zunnunovning umumiy tahrir ostida), “O'zbek pedagogikasi antologiyasi (K.Xoshimov va boshqalar) kabi darslik, o'quv qo'llanmalari, shuningdek, N.Saidahmedov, Sh.Qurbonov va R.Ahliddinovning ilmiy pedagogik monografiyalari va maqolalarida pedagogik texnologiya tarkibiy qismlari, shaxs va milliy modelning uzviyligi, DTSning ijtimoiy mohiyati bilan bog'liq masalalarning yoritib berilishi pedagogika tarixi fanida muhim ahamiyat kasb yetdi. Ular O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining tarixiy – pedagogik merosni ommalashtirishga, yoshlarda milliy g'ururni va milliy ma'naviyatni o'stirishga, shuningdek, talabalarni jahon pedagogika fani rivojlanish tarixi, qardosh hamdo'stlik davlatlari mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda.

Shubhasiz, bu o'quv qo'llanmalari pedagogika tarixi fanini o'rganishda talabalar uchun foydali bo'lib, O'rta Osiyo va Sharq Xalqlarining tarixiypedagogik merosini hamda Rossiya va Yevropa mamlakatlarida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyotini bilib

olishga imkon yaratadi. Lekin bu o‘quv qo‘llanmalari ham mazmuni va qurilishi jihatidan an’anaviy usulda yozilgan.

Ma’lumki, mustaqillik zaminida vujudga kelgan ma’naviy –ma’rifiy va ta’lim sohasidagi yangilanish markazida milliy g‘oya, miliy mafkura, kadrlar tayyorlash milliy modeli va milliy tarbiya asosiy o‘rinni egallaydi.

8.2. Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari.

Davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ma’naviy-madaniy hayoti ta’lim-tarbiya tushunchalari bilan bog‘liq. Zero, ular insonning ma’naviy-axloqiy yuksalishini ta’minlab, jamiyat taraqqiyotini tezlashishini yo‘lga quyadi. Chunonchi, tarbiya har qanday tarixiyijtimoiy davrlarda jamiyat hayoti va taraqqiyoti bilan bog‘liq holda shakllanib, takomillashib borgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, hali mehnat qilish faoliyati turlarga bo‘linmagan davrda, jamiyatdagi katta kishilar va bolalar yashash uchun kerakli oziqovqat mahsulotlarini qo‘lga kiritish jarayoniga bir xil mehnat bilan shug‘ullanganlar. Mehnat jarayonida kattalar yoshlarga o‘z mehnat tajribalarini o‘rgatishgan. Keyinchalik, hayot taqazosi bilan mehnat qurollarini tayyorlash, ulardan mehnat jarayonida foydalanish, to‘g‘onlar qurish ishlari birmuncha murakkablashganligi sababli, mehnat qurollarini yasash va ulardan o‘z faoliyatlarida foydalanishni o‘rgatuvchilarga ehtiyoj sezilgan va bu vazifa kattalarning zimmasiga tushgan.

Ular yosh avlod to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilganlari sababli, to‘plangan tajribalarini yoshlarga o‘rgatganlar, ularni hayotga tayyorlaganlar. Bunday faoliyat kattalarni ustoz maqomiga ega qilib yoshlarning tarbiya ishlari bilan shug‘ullanuvchilar deb atay boshlaganlar. Shunday qilib tarbiya – birinchi marotiba faoliyat turiga aylanib, yosh avlodni hayotga o‘rgatish, ularni anglash, tushunish sohasi bo‘lib qolgan, hamda inson faoliyati, ongini rivojlantirishning muhim omili sanalgan. Agar faoliyat (tarbiyani amalga oshiruvchi) bo‘lmaganida mamlakat va jamiyat katta avlod tomonidan to‘plangan tajribalarni yosh alodga yetkazish, o‘rgatish, metodi sifatida qoldirmaganida, har bir ijtimoiy taraqqiyot davrida yangi avlod hammasini boshidan boshlashga to‘g‘ri kelardi. Mana shunday tarzda pedagogik faoliyat maydonga keldi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma’naviy ma’rifiy hayotning muhim omili sifatida rivojlandi va davrning o‘zgarishi bilan o‘zgarib yangi ko‘rinish kasb yetib keldi.

Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot hodisalaridan shu narsa ma'lumki, pedagogika, tushunchalarining paydo bo'lishi qadimgi Yunoniston (Gresiya)ga borib taqaladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha yeramizdan oldin VII-V asrlarda bolalarning hayoti va faoliyati bilan shug'ullanuvchi erkin qullar bo'lishgan, ularni paydagoglar (yunoncha "payda"bola, gogos –yetaklayman, ya'ni bola yetaklovchini) deb aytganlar. Keyinchalik ishlab chiqarishning murakkablashishi, manifakturaning rivojlanishi, qurilish, arxitekturaning paydo bo'lishi munosabati bilan tarbiya va o'qitish ishlari bilan shug'ullanuvchilarni pedagoglar deb atay boshladilar. Shu davrda Qadimgi Yegipt, Bobil, Siriya kabi davlatlarida kohinlarni esa pedagoglar deb ataganlar.

8.3. Xalq og'zaki ijodida tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi.

O'zbek xalqining yosh avlodni ijtimoiy-maishiy hayotga tayyorlashdagi urf-odati va an'analari, ta'lim-tarbiya sohasidagi ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, ibratli tajribalari dostonlar, ertaklar, asotirlar, askiyalar, latifalar, mavsumiy marosim qo'shiqlar, naqllar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, laparlar, matallar, hikmatlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, erkalashlar, ovutmachoqlar, bekinmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldurguplar; o'yinkulgulardan iborat xalq pedagogikasida mujassamlashgandir. Shu jihatdan o'zbek xalq pedagogikasi – xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq kishilar qilib etishtirishda, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo'llagan usul, vosita va tajribalar yig'indisidan iboratdir. Chunki hali maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrdayoq qabila a'zolarining yoshlarda mehnatsevarlik, jangovarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehrshafqat, insonparvarlik hislatlarini shakllantirish va o'stirish sohasidagi aqlidroki o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida bizning davrga qadar yetib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi.

O'zbek xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar – insonparvarlik, ochiq ko'ngillilik, saxovatlilik, poklik, to'g'ri so'zlik, haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo'lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ma'rifiy shartsharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi. Shu ma'noda xalq pedagogikasi

ma'lum davrda yashagan xalq, elat, guruh madaniyati, ma'naviyati, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarining tarkibiy qismidir. Uning umumbashariylik xususiyati shundan iboratki, u demokratik yo'nalishda rivojlanadi, xalqning ezguliklari, orzu niyatlari va g'oyalari ifodalaydi.

O'zbek xalq pedagogikasidagi ilg'or g'oyalar – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma'rifatli, bilimli va kasbhunarlarini egallagan, odobaxloq qoidalarini mujassamlashtirgan, barkamol inson qilib tarbiyalashdir.

O'zbek xalq pedagogikasi urf-odat, an'ana va qadriyatlari bir avloddan ikkinchi avlodga og'zaki tarzda o'tadi, so'ngra og'zaki ijod va yozma adabiyot mahsuli – maqol, masal, topishmoq, ertak, latifa, qo'shiq, lapar, askiya, dostonlar vositasida ommalashadi. Shu sababli ham, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot, asrlar davomida yaratib kelingan xalq latifa va qo'shiqlari, lapar va askiyalari, hikmatlari, maqollar va masallar, yertaklar va dostonlarida o'zbek pedagogikasining zamini, fundamenti va yagona tarbiya vositasi bo'lib kelmoqda.

Har bir jamiyatda yashagan xalq ruhi: do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va calqqa sodiqlik g'oyalari ifodalangan, ulug'langan; otaonaning o'zaro ahilligi, ular bilan farzandning o'zaro mehruhabbi, qadriyatini, eng yaxshi insoniy fazilatlarini tarannum qilingan.

Ma'lumki, o'zbek xalq pedagogikasida farzandli bo'lish, o'z farzandini jasur, botir va barkamol inson qilib tarbiyalash alohida o'rin tutadi. Masalan, "Oltin beshik", "Ilimxon", "Olmos botir", "Dono qiz" yertaklarida va "Alpomish", "Rustamxon", "Murodxon", "Oysuluv", "Shirin va Shakar", "Kuntug'mish" dostonlarida farzand ko'rish baxtiga muyassar bo'lishlik eng yuksak insoniy orzuhavas yekanligi, u otaonaga baxtsaodat, quvonch va ma'naviyruhiy kuch-quvvat bag'ishlashi bayon etiladi.

Darvoqe, bola ko'rish va tarbiyalash baxtiga muyassar bo'lgan onalarning "alla" aytmaganligini tasavvur qilish mumkin emas. Abu Ali ibn Sino ona allasining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri – bolani sekin-sekin tebrating, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolalarning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhiyoti bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi" xalqimizda bolaning fe'l atvori, badnafas, berahm bo'lishi yoki insofli, diyonatli, mehrshafqatli bo'lishi uni tug'dirishga yordamlashgan ena (doya)ga va onaning sehrli hamda mehrli allasiga bog'liq degan naql borligi bejiz emas. Alla orqali

chaqalloqqa singdirilgan insoniy fazilatlar sog'lom avlod va barkamol shaxs kamolatida onalar va doyalarning mas'uliyati katta yekanligidan dalolat beradi.

Demak, har qanday tuyg'uning alifbosi ona mehridan boshlanishini ko'rsatmoqda. Onani homiladorlik davridan e'tiboran uni to'g'ri parvarish etish, tegishli shartsharoitlar yaratish va onaning ruhiy – fiziologik sog'lomligi tug'iljak farzand salomatligini ta'minlashiga e'tiborni qaratish lozim.

Bola qalbida tuyg'uning shakllanishi va rivojlanishi avvalo insondagi barcha yaxshi fazilatlar bilan bog'liq holda amalga oshadi. Ona va bolani bir – biri bilan bog'laydigan tarbiyaviy vosita – alla bo'lib, unda chuqur milliy ruh, ohang va mungli tuyg'u yashirinib yotadi. Ona qalbidan qalqib chiqayotgan haroratli alla o'zining hissiy – yemotsional ranglarga boyligi bilan bola ruhiyatiga ta'sir etadi. Unda bolani tarbiyalovchi, tinchlantiruvchi, dam oldiruvchi va uxlatuvchi sirli va va sehrli ohangdan tashqari, tuyg'u uyg'otuvchi ta'sir bor.

Ikkinchidan alla orqali bo'ladigan onabola muloqoti bolaning oliy nerv faoliyatining shakllanishida, ayniqsa harakat va nutq faoliyatini tarkib topishida alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, tuyg'uning shakllanishi bola o'sayotgan oilaga, ya'ni otaonasining insoniylik dunyoqarashi, mehnatsevarligi, madaniy va ma'lumot saviyasiga ham bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga har bir shaxsning jismoniy va aqliy faolligini ham belgilab beradi.

Ayni paytda tuyg'usizlik esa, shaxsdagi illatlar va qusurlarning ildiz otishini rivojlanishi bilan bog'liq holda kechadi. Demak, tuyg'u o'ta murakkab jarayon bo'lib, milliy va umuminsoniy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Xalq ko'p asrlik kuzatish va tajribalari natijasida real borliq, tabiatni anglash va o'rganish insonga sezgi a'zolari orqali beriladigan ma'lumotlar asosida shakllanishini tushunib yetdi. Ayniqsa, diqqat, sezgi, idrok, xotira, qiyosiy fikrlash kabi insondagi bilish faoliyatiga mansub hodisalarning borliqni o'zlashtirish uchun asosiy vositalar yekanligi, inson bilimi shaxsga xos individual xususiyatga egaligi va sub'yekt uchun yuzaga kelgan qulay vaziyat, sharoit bilan aloqador ravishda shakllanishi xalqqa ma'lum edi. Hayotiy bilimlarning inson umrida ko'rgani, kuzatgani va mehnat tajribalari orqali to'plab kelingani, ushbu bilimlar odamdagi sezgi a'zolari bergan muayyan ma'lumotlar bilan boyib, takomillashuvini xalq yaxshi angladi. Ayniqsa, inson o'z sezgi a'zolarini tevarakatrofni tushunish va anglab etishda eng asosiy vositalar

yekanligiga va insonning ravnaq topishiga asos yekanligiga alohida diqqat qaratdi. Sezgi a'zolari bergan ma'lumotlarga tayanish – xalqning yoshlarga olamni bilishga o'rgatish usullaridan biri bo'ldi. Shu sababli xalq pedagogikasida sezgi a'zolarining dunyoni bilishdagi xizmati haqida ko'pgina fikrlar mavjud. Ertak, naql-maqol, xalq qo'shiqlari va dostonlarda ko'zning ko'rish, quloqning eshitish, burunning hid bilish, qo'lning qattiqyumshoqni, issiqsovuqni ajratishi va boshqalar bilan bog'liq ma'lumotlar g'oyat ko'p. Ayniqsa, har bir sezgi a'zosining o'ziga xos xizmati, insonning aql, bilim egallashida o'z o'rnini mavjudligi ulug'lanadi.

Xalq pedagogikasida insondagi sezgi a'zolariga alohida diqqat qaratilishi ularning kundalik turmush tajribalari asosida sezish turlarini xillarga ajratishga, inson sezgilarining bir-biridan farqlanishini tushunishga imkoniyat yaratdi.

Xalq dunyoni bilish, undagi narsa va hodisalarning farqli va o'xshash jihatlarini aniqlashga intilish, umuman insonning bilish faoliyati avvalam bor uning ma'lum bir narsaga diqqat qaratishiga, e'tibor berib nazar solishiga bog'liq deb hisoblagan. Diqqat odamning dunyoni bilishga kirishish jarayonidagi ilk bosqich bo'lib, uni maqsad sari boshlab borishga yo'nalish beruvchi xususiyatga ega deb tushungan xalq «Odam diqqatli bo'lsa, ishi razbatli bo'ladi», «Diqqatning yuqligi, aqlning bo'shligi», «Diqqatsiz odam, aqlsiz nodon». «Diqqat bilan qarasang, so'z aytishga yararsan» kabi nasihatlar qiladi. Shuningdek, «Qirq qiz», «Shahriyor» dostonlarida har bir ishning samarali tugallanishida, ayniqsa, olamni bilishga intilib, u haqdagi tushunchalarni to'plashda inson diqqatining, ziyrakligining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Diqqat istagan narsani o'rganishga kirishish uchun aqlni ishga solishda eng zarur hodisa deb e'tirof etilgan.

Xalq og'zaki ijodi namunalari merganlik, kamondan otish, nayza sanchish, kurash, qilichbozlik, ot yoki tuyalar ishtirokidagi poyga hamda uloqning ommaviy tadbirlarning tarkibiy ko'rinishi bo'lganligi, ular vositasida yoshlarda mardlik, yepchilik, chaqqonlik, uddaburonlik, matonat kabi sifatlar tarbiyalanganligi, jangovarlik kayfiyati hosil qilinganligi to'g'risida hikoya qilinadi. Turli davrlarda yigitlarning jismoniy chiniqqanligi, ularning mard va jasur bo'lishlariga jiddiy e'tibor qaratilganligi "Alpomish" va "To'maris" dostonlarida keltirilgan quyidagi lavhalar ham isbotlaydi:

1. Balog'at yoshiga yetgan Barchinoy unga uylanish niyatida bo'lgan yigitlar oldiga shart qo'yib, otlar ishtirokidagi poygada g'olib

chiqqan, ming qadam masofada turib, yoy bilan tanga pulni mo'ljalga ola bilgan va kurash tushib to'qson alp (bahodir)ni yiqitgan yigitga turmushga chiqishini aytadi;

2. "Vaqt alla – palla bo'lganda kuyov bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabon aravaga chiqarish oldidan kurashtirib ko'rishadi (bo'lg'usi kelin-kuyovlarning kuch sinashishi o'zbeklar orasida yaqin kunlargacha saqlanib qolgan tortishmachoqning ibtidoiy shakli edi)".

3. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qadimdan "Qilich jangi", "Tuya poyga", "Tuyalar jangi", "Otliqlar poygachi", "Podachi", "Poda to'p", "Jun to'p", "Chim to'p", "Chavgon" va boshqa o'yinlardan yoshlarni jangovorlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanilgan.

O'zbek xalq pedagogikasida aqliy tarbiyaning amalga oshirilishi shuni ko'rsatadiki, bu sohada o'yin faoliyati muhim rol o'ynagan. Zero, bolalar tug'ilganidan boshlab, ularda atrofmuhitni anglashga qiziqish uyg'otishga ahamiyat berilgan. Ularga o'sgan sayin bu qiziqish ham rivojlanib borgan. Natijada, bolalarda aql, xotira, ko'p narsani bilishga havas, fikrni bir nuqtaga qaratish, mantiqiy fikrlash qobiliyati kengayib borgan, ular astasekin murakkab o'yinlarni o'ynay boshlaganlar.

Qadimda o'yin turlari, jumladan, qo'shiq shaklida, qo'z bog'lash, o'yinga da'vat etish, chek tashlash, og'iz boylash, o'rta qo'limni top, sanoq kabi tarzda bo'lgan. Qizlar juft-juft bo'lishib, kaftlarini bir-biriga urib aylanishib "Chittigul" qo'shig'ini aytganlar:

Chitti gulo, chittigul,

Hayyu chittigul.

Chittigulga gul bosay,

Bir yonini yonbosay.

Xalq pedagogikasida yigit-qizlarni yoshligidan mehnatsevarlik va kasbhunarga havas hissini tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Turli kasb egasi bo'lgan otaonalari, buva va buvilari bilim va tajribalarini bolalariga qunt bilan o'rgatdilar, ularni ustozshogird sifatida dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, ovchilik, temirchilik, misgarlik, durodgorlik, o'ymakorlik, zargarlik, to'qimachilik, tikuvchilik, tabiblik va boshqa sohada kasbkor bo'lib etishishiga ko'maklashdilar. Bunda "Mehnatingni halol qilsang, huzurini ko'rasan", "Mushkulliklardan hayot emas, faqat tadbir va mehnat qutqazadi", "Baxtli bo'lishmehnatni sevish va rohatni mehnatda ko'rishdir", "Mehnating ziynating", "Ota kasbi – davlat kasbi", "Ustoz ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar", "Avval o'rgan,

keyin o‘rgat”, “Aql qo‘lga yetkazar, hunarko‘kka”, “Ustozsiz shogirdjonsiz kesak” kabi xalq maqollari yoshlar uchun asosiy tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek Xalq pedagogikasida bolalarni mehnat tarbiyasida o‘zo‘ziga xizmat qildirish, ishontirish, qiziqtirish, nasihat qilish, maslahat berish, amalda ko‘rsatish va rag‘batlantirish usullaridan samarali foydalanish yaxshi natija bergan. Bu usullar, namunali ishlar qilgan yigitqizlarga nisbatan qo‘llangan: “Barakalla”, “Juda soz”, “Rahmat”, “Umringdan baraka top”, “Baxtli bo‘lgin” so‘zlari bilan yigitqizlarning ko‘ngli ko‘tarilgan, kuliberkalab boshi silangan va h.k.

Shuningdek, mehnat tarbiyasida ijtimoiy foydali mehnat qilishni istamagan, topshiriqni bajarmagan, dangasa ishyoqmaslarga nisbatan esa jazolash usuli qo‘llangan.

O‘zbek Xalq pedagogikasida iqtisodiy tafakkur bilan tijorat faoliyati uzviy birlikni tashkil yetshgan. Xalq iqtisodiy tarbiyaning zarurligi va mohiyatini bilgan holda, bolalarni yoshligidan tijorat (savdosotiq) ishlariga jalb etadi. Bolalar otabobolarining yonlarida bo‘lib, hisobkitobni, tarozida narsalarning og‘irligini aniqlashni, xaridorlar bilan qay tarzda muloqotda, muamalada bo‘lishni o‘rganadilar, shu zaylda ular o‘zlari ham mustaqil suratda tijorat (savdosotiq) ishlarini bilib oladilar. Natijada bolalarning yoshligidan savdosotiq ishiga jalb yettirilishi ularning iqtisodiy tarbiyasiga yordam beradi: bolalar mollarning sifatini aniqlash, bir molning boshqa moldan farqini ajratish malakasini egallaydilar.

Bozor iqtisodiy va xususiy mulk munosabatlari akssadosi Xalqimizning ming yillik hikmatu asotirlarida, rivoyatu dostonlari va yertaklarida, maqolu matallarida mavjud “Otangbozor, onang bozor...” so‘zining o‘zida qanchalar falsafiy ma’no bor, har bir tovushida bir hikmat sas jaranglaydi. Zero, “Bozor” – “Boz” degani “o‘yin” demakdir (“dorboz”, “masxaraboz” va h. k.). Axir bozor ham bir o‘yin emasmi? Molu mulkingni tikasan, goh foyda qilasan, goh – zarar – yutasan, yutqazasan...

Ilmga hech bir inson zoti birdaniga erishgan emas va erisha ham olmaydi. Inson zoti onasidan donoyu donishmand bo‘lib tug‘ilmaydi. Shu bois boladagi bilim, odob-axloq olam, tabat va jamiyat haqidagi barcha tushuncha va tasavvurlar, dunyoqarash va bilimlar amaliy faoliyat jarayonida, xilma-xil yertaklar, dostonlar, badiiy, tarixiy, siyosiy, falsafiy, iqtisodiy, huquqiy kitoblar, darsliklarni o‘qibo‘rganish, mutolaa qilish,

hayotdan saboq olish, ustozu muallimlardan ta'lim olish jarayonida hosil bo'ladi, rivojlanib, boyib, takomillashib boradi.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollar va matallar, yertaklar va dostonlarda ta'riflanganidek, ilm ma'rifatga ega bo'lishining, bola qalbini ilm nuri bilan nurlantirishning, dilini pok va musaffo qilishning asosiy sharti va bebaho ma'naviy-marifiy boyliklar xazinasini bo'lgan kitoblarni qo'ldan qo'ymay o'qishdir. Shuning uchun kitobhayot darsligi, barcha bilimlar asosi, dunyo voqeahodisalari va yelu yelatlar hayotidan hikoya qiluvchi birdanbir manba ekanligi haqida sonsanoqsiz naqlrivoyatlar, afsonalar, yertaklar, dostonlar, maqollar yaratilgan. Masalan; "Kitobsiz uyquyoshsiz kun", "Kitobinson do'sti", "Oltin yer tagidan kavlab olinadi, bilim kitobdan", "Non to'ydiradi, kitob kiydiradi", "Qush don qidirar, olim kitob", "Kiyim ustingni bezaydi, kitob aqlingni" kabi maqollarda kitobning qadriga etish ta'kidlanganligi bejiz emas.

"Ayoz", "Moxistor", "Orzusi ushaldi", "Qorasoch pari", "Kimyogar" kabi yertaklarida, dostonlarida Xalqning yoshlarni o'qitishimli qilish borasidagi qarashlari, orzuomidlari qadim zamonlardan beri umumiylikka ega bo'lib kelganligidan dalolat beradi.

Eng muhimi, hozirgi ta'lim tizimida pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarni tarbiyalash amaliyotida Xalq donishmandligining barcha taraqqiyparvar asoslaridan yanada muvaffaqiyatliroq foydalanish vash u orqali shaxsni kamol toptirish, uning ijodiy imkoniyatlarini ochish, ularda milliy va umuinsoniy qadriyatlariga asoslangan dunyoqarashni va insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir.

8.4 "Avesto" eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik.

Zardushtiylik jahon dini sifatida Markaziy Osiyoda, yana ham aniqrog'i Katta Xorazmda shakllangan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'z asarlarida o'zbeklar jahon maydonida kunikecha paydo bo'lgan xalq emasligini, bizning millatimiz, xalqimiz qo'hna Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, madaniyati, tarixi bilan yashab kelayotganini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Tarixiy ilmiy manbalarning ko'rsatishicha, "Avesto"ning dastlabki matni 1000 fasldan, 21ta nask (kitob)dan iborat bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi Xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozishicha: "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida Avestoning o'n ikki ming hukiz terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini

vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Avestoning beshdan uch (ya'ni o'n sakkiz naski) qismi yo'qolib ketdi. Avesto o'ttiz nask edi: majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi..."

Haqiqatda, pahlaviy tilidagi "Shahrixon Eron", "Dikard" (III va IV jildlarida), "Bundahshi", "Arda Virofnomak" va boshqa tarixiy manbalarda o'n ikki ming oshlangan ho'kiz terisiga oltin harflar bilan bitilgan "Avesto" kitobini Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) Eronni Bosib olgach, yoqib yuborganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, "Avesto"ning yo'q qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotni o'rta asr manbalari ham tasdiqlaydi. Masalan, Mas'udiy (vafoti 995 y.) o'zining "Murujazzihab" ("Oltin vodiy") kitobida yozishicha, Iskandar Maqduniy Istahr shahrini o'z tasarrufiga kiritgach, "Avesto" kitobidagi tibbiyot, falsafa, riyoziyot, nujum va boshqa fanlarga doir qism (matn)larni yunon tiliga tarjima qildirib, aslini olovda yoqib yuborishni buyurgan.

"Avesto"dan keltirilgan yuqoridagi dalillar shuni ko'rsatadiki, zardushtiylik dini paydo bo'lgan dastlabki paytlardanoq otashkada – ibodatxonalar qoshida maktablar tashkil etilib, kohinlar tomonidan bolalarning ta'lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Ularning ta'lim-tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan:

- a) diniy va axloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- v) o'qish va yozishga o'rgatish.

Bolalarga diniy tarbiya berish, asosan, 7 yoshdan boshlangan; o'g'il bolalar 7 yoshga to'lganda, ularga oq ipakdan tikilgan "muqaddas kuylak" kiydirish marasimini jamoa oqsoqoli, kohinlar, otaonalar ishtirokida o'tkazish rasm bo'lgan. Shu tariqa ta'lim tizimida ustozmuallimlar hamda o'quvchilar ham oq ipak matodan tikilgan chakmon ko'ylak kiyib, ustidan 72 xil rangdagi harir ipakdan to'qilgan belbog' bilan bellarini bog'lab yurishlari shart bo'lgan. Qish paytlarida ham asosiy libos ustidan "sidra", ya'ni shu kiyimni kiyish odat tusiga kirgan. O'g'il bolalar bunday "muqaddas ko'ylak" yoki "sidrapo'shlik" udumini bajarish marosimi paytida kohin ustoz muallim bilan bir safda quyoshga qarab sajda qilib turishgan. Kohin muallimga qo'shib bolalar ham muqaddas "Avesto"dan ezgulik va yaxshilik ma'budasiga madadkor kuchlarni ulug'lovchi qasamyodlarni takrorlashgan: "men zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga tantanali va'da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi ishlarga ishonaman" . Zardushtiylik marosimi

mashg'ulotlaridan so'ng esa bolalarga sovg'alar ulashilgan. Bunday mashg'ulotlar bir kunda Quyosh charaqlab turgan vaqtda besh marta o'tkazilgan. Mashg'ulotlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – bolalar qalbida yoshlikdan dunyodagi barcha yaxshilik va yezguliklarning bunyodkori, Oliy tangri AhuraMazdaga e'tiqodni mustahkamlash, insonlar boshiga jamiki yomonliklar va yovuzliklarni soluvchi AxuraManu (Ahriman)dan nafratlanish hissini tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Sipiytmon Zardusht esa, “muallim – kohinlarning burchlari bolalarga ilmlarni yaxshilik yo'sini ila o'rgatib, yaxshi bilan yomonni ajrata oladigan qilish, to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir. Kimdakim, aqlu farosat bilan yomonlikka qarshi kurashsa, u AhuraMazda yo'lini tutgan bo'ladi”, deydi.

Shu tariqa Zardusht “Avesto”ning “Yasht”larida bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida halol niyatni singdiradigan ustozmuallimlar peshvosi sifatida madh qilinadi: “Zero, Sipiytmon bu dunyoda Yazdon ta'limotiga quloq tutadigan yagona odamdir. Faqat ugina “Mazda” va “Osha” surudlarini odamlar ongiga singdiradi. Shuning uchun unga komil aql va burro nutq berilgan.

Zardushtning Oliy Tangri AhuraMazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: “Noshud, yomon muallim o'quvchi qalbidan xunarmandchilikni yo'qotar yekan, Ey Yazdon, yomon ustozdan o'zing asra” .

“Avesto”dagi ta'lim-tarbiya tizimida bolalarning zardushtiylik diniy e'tiqodini mustahkamlashga va ma'naviy kamolotini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Birinchi navbatda, bolalarga zardushtiylik dini asoslari, AhuraMazdaga iltijo va murojaatlaru farzlar, Zardusht o'gitlari puxta o'qitilib, kalom bad'e asoslariga suyangan holda “Gohlar” maxsus yodlattirilgan. Ikkinchidan, ehtiyoj va talablardan kelib chiqib, bolalarga riyoziyot, xandasa, falakiyot, tarix, falsafa, huquqshunoslik, gigiena, tabobat va boshqa fanlardan puxta saboq berilgan. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, himoya qilish va suhbatmuloqat uslublaridan keng foydalanilgan. Dars jarayonida o'quvchilardan o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash, hamisha yesda tutish talab qilingan, egallangan bilimni sinash maqsadida o'quvchilarning bilim saviyasi muntazam baholanib borilgan.

Ko'rinadiki, zardushtiylik ta'limotida ilm-ma'rifatning kuchiga qattiq e'tiqod qilingan va jamiyat hayotida ham oqibat natijada ilmu hikmat yutib chiqadi, deb hisoblangan. “Avesto”da yuqorida keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, qadimgi ajdodlarimiz bolalarning faqat

benuqson tug‘ilishiga va chaqaloqligidan jismoniy tarbiyasiga jidiy e‘tibor beribgina qolmasdan shuningdek, ularning aqlan yetuk bo‘lishiga, ya’ni ilmi bo‘lishiga, hikmat o‘rganishiga, ma’naviy sof bo‘lishiga, yaxshilik va yezgulik xislatlarini egallashlariga ham bevosita g‘amxo‘rlik qilishgan. Qisqasi, bolalarda axloqiy, aqliy, jismoniy, jinsiy xislatlarni, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, vatanparvarlik, rostgo‘ylik, saxiylik fazilatlarini tarbiyalashga jiddiy e‘tibor berilgan . Jismoniy va mehnatsevarlik tarbiyasidan nazarda tutilgan asosiy maqsad bolalarni jangovar harb ishiga va mehnatsevarlikka tayyorlashdan, jismonan zabardast qilib, mehnatda chiniqtirishdan iborat bo‘lgan. O‘g‘il bolalarga kurash tushish, otga suvliq solish, uni egarlash, mol boqish, urchitish va tug‘dirish, tuyaotlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, yaylovlarda suruvni o‘tlatish, chorvani yirtqich hayvonlar va qaroqchilardan muhofaza qilish uchun 50dan ziyod harbiy qurolni ishlata bilish malakasini egallash majburiy bo‘lgan. Ularga yana chavandozlik va o‘ttiz ikki xil harbiy hunar o‘rgatilgan. Shuningdek, “Avesto”da qiz bolalar tarbiyasiga ham alohida e‘tibor qaratish lozimligi ta’kidlanadi: “O‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o‘rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Chunki ular o‘zlari tug‘ilgan xonadonda ota ro‘zg‘orini tartibga solib, uyga ziynat berib yursalar, jufti haloli uyiga borgach, kelajak nasl, ya’ni farzandlari tarbiyasi, ta’limi bilan mashg‘ul bo‘lmoqlari lozim bo‘ladi”. Shu tariqa, qiz bolalar uchun yungdan urchuq bilan va charxda ip yigirish, matolar to‘qish, liboslar tikishdan tashqari, o‘g‘il bolalar bilan kurash tushish, chavandozlik, qlichbozlik qilish, qalqon tutib, o‘zini raqibidan himoya qila bilish, otda har xil g‘ovlardan sakrab o‘tish, suvda suzish, uzoqqa yugurish, nayza irg‘itish, kamondan o‘q otish va boshqa jismoniyharbiy malakani egallash majburiy bo‘lgan. Ana shundan so‘ng qizlar – 15 yoshidan o‘g‘il bolalar – 16 yoshida oqsoqol boshchiligida jamoa oldida maxsus imtihondan o‘tkazilgan. Natijada balog‘at yoshiga yetgan qizlar ro‘zg‘or yuritishni o‘rganib, “kadbonu”, ya’ni “uy bekasi”, yigitlar esa, “kad xudo” ya’ni “oila boshlig‘i” bo‘lish, cho‘pon cho‘lig‘ini olib, ot surish, tuya minib yurish huquqini qo‘lga kiritganlar . “Avesto”da qayd etilishicha, o‘sha davrlarda yerkaklar bir nechta xotin olish huquqiga ega ekanlar. Erkaklar roppa-rosa 16 yoshidan boshlab uylanishgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo‘lgan .

Bu davrda ta’lim-tarbiya tizimining sinfiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli, diniy, axloqiy va harbiyjismoniy tarbiyani amalga oshirish barcha tabaqadagi kishilarning farzandlari uchun majburiy

bo'lsada, ammo o'qish, yozish, hisoblash (sanash)ni, davlatni boshqaruv asoslarini, ya'ni huquqshunoslikni, harbiy hunarni zodagonlarning bolalariga saroy va ibodatxonalar qoshidagi maktablarda tajribali ustozmuallim kohinlar va mashhur lashkarboshilar puxta o'rgatishgan.

Zardushtiylik ta'limotining axloqiy omillarini "ezgu fikr", ya'ni fikrlar sofligi, "ezgu kalom", ya'ni so'zning sobitligi, "ezgu amal", ya'ni amallarning insoniyligi, tashkil etadi. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan har bir kishi butun hayoti davomida ana shu uch axloqiy aqidani qalbiga jo qilmog'i zarur. Shundagina uning qalbiga haddan ziyoda pokiza ruh madadkor bo'ladi.

Demak, zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, yaxshi tushuncha, yaxshi fikr, yezgu niyat, latif so'z – yaxshi ishning mujassamligi, deyilganda, faqirlarga mehribonlik, insonparvarlik, kishiga isnod keltiradigan ishlardanbirovga hasad qilishdan, o'g'rilik, talonchilik, o'zgarlar molini o'zlashtirishdan, zinoga berilishdan, birovning dilini og'ritishdan, hayvonlarni, ayniqsa, yaxshi, nasldor itlarni o'ldirishdan o'zini tiyish va bergan so'zining ustidan chiqish, lafziga sodiq qolish, savdosotiq va bitimlarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldanchilik va xiyonatdan holi bo'lish va hokazo illatlar tushinilgan.

Zardushtiylik, axloqiy ta'limotda qayd qilinishicha, olamdagi yovuzlik va yomonliklar odamlarning imonsiz va diyonatsizligidan kelib chiqadi, ularni bartaraf etish – odamzodning istiqboldagi vazifasi bo'lib, imonli va diyonatli kishilar bularni bartaraf etishda faollik ko'rsatgusidir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, milodiy yeraning VVI asrlaridan boshlab, Qora dengiz bo'ylari va Dunay sohillaridan to janubiy Sibir va Mo'g'uliston yerlarigacha, Volga bo'ylari va O'roltog'i yetaklaridan Afg'onistongacha, shuningdek, Oltoy o'lkasidan Yettisuv va Markaziy Osiyo yerlarigacha turli Xalqlar va qabilalarni birlashtiruvchi Buyuk Turon xoqonligi (yoki Ko'k Turk Xoqonligi – "ko'k" bu o'rinda "osmoniy", "muqaddas" ma'nolarini anglatadi) shakllandi. Buyuk imperiya goh ma'naviy yuksalish, goh tanazzul davrlarini boshdan kechirib, to milodiy yeraning VIII asri boshlarigacha mavjud bo'ldi. Bu davrda harbiy demokratiya qonunlari asta-sekin barqaror davlatchilik qoidalariga aylana bordi, umumturk adabiy tili va maxsus turkiy yozuvi hamda ta'lim tizimi ishlab chiqilib, boy tarixiybadiy asarlar dunyoga keldi. Jumladan, "O'g'uznoma", "Kultegin bitiklari", "Tunyo'quq bitigi", "Bilka qog'on bitigi" singari tarixiybadiy asarlar o'sha davr ajdodlarimiz tafakkur tarzi, orzuarmonlari, ma'naviy ma'rifiy kamolot darajasini aks yettiradi. Ta'kidlash joizki, ushbu bitiktoshlardagi muhim mavzu Vatan

va millat, mustaqil davlatchilik, yelyurt tinchligi va odoblighi, Xalqning yaktanligi, davlat ishlarini adolatli yuritish va yosh avlod ta'lim-tarbiyasi g'oyalaridir. Bu g'oyalar bitiktosh mualliflari Yo'llug' tigin, To'nyo'quq va boshqalar qalbida yuksak yehtiroslarni tug'dirgan vva bu tug'yon ularni o'qigan bugungi yosh avlod diliga ham bundan XII asr burun qanday bo'lsa, xuddi shunday kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Zero, turkiy xalqlarning butunligi, yaktanligi, yurtboshining oqilligi va tadbirkorligi, bahodir (alp)lar shiddati va shijoati bugungi kunimizda ham yosh avlod uchun ibrat va namuna bo'lgulikdir.

Shuningdek, eng qadimgi Turk xoqonligi davriga oid yana bir yozma yodgorlik "Irg bitigi" ("Tabirnom")da turkiy xalqlarning turmush tarzi, axloqiy munosabatlari bilan bog'liq yaxshilik va yomonlik tush ta'birlari tarzida bayon etiladi.

Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi yozma yodgorliklarimiz "Avesto"dagi yezgu fikr, yezgu qalam, yezgu amal birligi, ilm va iymon uyg'unligi, turkiy bitiktoshlaridagi matnlarda ifodalangan ajdodlarimizning turmush tarzi, axloqiy qiyofasi, qayg'uquvonchi, shodligi, orzuistaklari, o'z mustaqilligi uchun kurashish, insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va axloqodob xislatlari, ilmsevarlikka intilishlari ma'naviy qadriyatlarimiz va milliy pedagogika taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyatga egadir.

8.5 Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya taraqqiyoti

IX-XI asrlar sharq uyg'onish davrining dastlabki bosqichi bo'lib, bu davrda arab halifaligida yuz bergan ijtimoiysiyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir yetdi. Ana shu madaniy ko'tarilish butun Arab halifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu Uyg'onish jarayoni IX asrdan boshlab XV-XVI asrlargacha davom yetdi.

Arab halifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri halifalikning Bag'dod, Damashq, Halab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa Xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb yetdi. Halifalik yemirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish halifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.

Xalifa Horun ar Rashid va uning o'g'li al-Ma'munning hukumronlik davrida Bag'dodda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlik uyi») (hozir

Akademiya ma'nosida) tashkil topadi. Mazkur Akademiya ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida kutubxonasi tashkil etiladi. Akademiya 819-833 yillari yanada rivojlangan. Akademiya ikki rasadxona bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi bu ilm markazi, o'z navbatida, Sharq va g'arbda ilm fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa al-Ma'munning ilmfan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, halifa al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. IX asr boshlaridan halifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Marvazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan. Al Ma'mun halifalik taxtiga o'tirgach u olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Bayt ul-hikma» — Donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining antik davrlar madaniyati bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana astasekin tiklanib, natijada ilmfanning yetuk siymolari etishib chiqib boshlaydi. Bular barchasining birbiriga qo'shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va taraqqiy etadi.

Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkaz va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining madaniy yuksalishiga olib kelgan asosiy sabab feodal munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilgani bo'ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida Arab xalifaligiga bo'ysungan mamlakatlar xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va natijada turli madaniyatlar hind, Movarounnahr, Eron, Arab, Misr, grek yunon rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir biriga ta'sir etib borishi katta ahamiyat kasb yetdi. Haqiqatan ham bu davrda iqtisodiyot taraqqiy etdi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik rivojlandi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop yekilib, ularning tolasidan mato to'qildi. Movaroun nahrda, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoroning to'qimachilik mahsulotlari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'larni ortib bordi.

Pireney yarimorolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yangi sahifalarini ochdi. Bu jarayonning, ayniqsa, Ovrupo uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina Ovrupo madaniyatining rivojiga ta'sir yetibgina qolmay, balki umuman, Ovrupolik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida matematika, falsafa, astronomiya, tabiiyot, tibbiyot, xulqodob, turmushtarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'sir yetdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi halifalikning yemirilishi hamda madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta, madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilardi. Rasmiy hujjatlar arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilardi. X asr o'rtalariga kelib, fors tilida ham ish yuritila boshlandi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarakatrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan. Kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy munozaralar o'tkazganlar.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan.

Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Saljuqiylar davrida Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizomul mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan.

Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizomul mulk boshqarar edi. U hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi (1091-1092 yillar). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi. Nizomul mulk maorifni rivojlan tirishda katta xizmat qiladi. 1067 yili Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri uning davrida taqvimning isloh qilinganidir.

XI asrda Xorazrda ilmfan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'mun II o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Majlisi ulamo» «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl alMasihiy, tabib Abulxayr Hammor kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining o'rni beqiyosdir. Lekin tojtaxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi Uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi.

Movarounnahrda ilmfan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiyaxloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi

Uyg'onish davri deb nom olgan IX-XII asrlarda IX-XII asrlarda yashab, barakali ijod qilgan buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy, ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Kaykovuslarning ko'pgina asarlari o'z davrida va hozirgi kungacha dunyoning ko'pgina tillarga tarjima qilinib o'rganilayotgan bo'lsa, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Hakim at-Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi islom olarnida tan olingan ulamolarimizdan qolgan boy ma'naviy

qadriyatlar bugungi taraqqiyotimizga poydevor bo'lib xizmat qilayapti. Ularning boy ilmiy va ma'naviy merosi hozirgi davrda ham insoniyatning ma'naviy olarnini boyitishga xizmat qilmoqda. Ana shunday boy, bebaho tarixni bilmaslik, o'rganmaslik, targ'ibot tashviqot qilmaslik mumkin emas.

Sharq allomalari tomonidan qoldirilgan ma'rifat, madaniyat va ma'naviyatni bugungi yosh avlodga o'rgatishning yo'llari, vositalari, shakllari va usullarini ishlab chiqish lozim. Buyuk mutafakkirlarning komil inson, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid ta'limotlari milliy kamolotning bugungi va yertangi kunning istiqbollarini ta'minlashga qaratilgan.

Yosh avlodning ongi, dunyoqarashi, ma'naviyati, madaniyatini shakllantiruvchi ta'lim-tarbiya azalazaldan o'zbek xalqi farovonligini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Shunday yekan, bo'lajak mutaxassislarni Sharq mutafakkirlari hayoti, faoliyati, ijodi bilan tanishtirish, ularning shaxs ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, ta'limotlari, yondashuvlaridan foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

8.6 Temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri XVI asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi. Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va O'rta Osiyoda Sharq o'yg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fanga hissa qo'shgan Amir Temur farzandlari, nabiralari, avlodlari: Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Hindol Mirzo, Gulbadanbegim va boshqalardir.

Bir so'z bilan aytganda, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo'lgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy yuksalish davri bo'ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur o'tmishda Turon deb atalmish davlatning iqtisodiy va madaniy qudratini

yuksaklikka ko'tarib, uni Ovrupa va Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga yerishdi. Amir Temurning Ko'ragon xon kuyovi, Qutbiddin zamona peshvosi, Abulmansur zafarmand, g'alaba qozonuvchi, Sohibqiron yulduz, baxtli burjlarida tug'ilgan kabi unvonlari bo'lgan. Buyuk saltanat sohibi Amir Temur «Kuch adolatdadir» degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan. Uning tamg'asi naqshi «Rostidurusti» («To'g'ri bo'lsang qutulasan») yoki «Haqgo'y bo'lsang najot topasan» degan ma'noni bildiradi.

Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda, butun O'rta Osiyoda madaniy rivojlanish, dunyoviy ilmlarga qiziqish kuchaygan davrda yashagan, ijod yetgan. O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan ulug' siymolardandir. U 1394 yil 22 martda tug'ilgan. Otasi Shohruh Mirzo Amir Temurning uchinchi o'g'li bo'lib, Xuroson hukmdori, ma'rifatli, ilmfanga qiziqqan shoh edi.

Ma'rifatparvar ota-ona o'z farzandlari Ulug'bekning tarbiyasiga alohida e'tibor berib, jismonan sog'lom, aqlzakovat, axloqodob va ilmda barkamol bo'lib etishiga harakat qildilar. Ulug'bekni o'z davrining bilimdoni va tajribali murabbiylari tarbiyalab savodini chiqardilar, uni diniy va dunyoviy ilmlarning asosi bilan tanishtirdilar. Ulug'bek arab va fors tillarini mukammal o'rgandi, ko'p vaqtini kutubxonada mutoala qilish bilan o'tkazadi.

Mirzo Ulug'bek 1424yilda Samarqandda Obirahmat arig'i yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduali Birjandiy, Mansur Koshiy, Maryam Chalabiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan Rasadxonasida sayyoralar sirini o'rgandi. Natijada Ulug'bek 1018 ta yulduzning holati va harakatini aniqlaydi, astronomiyaga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb ataluvchi astronomiya jadvali tashkil etadi.

Ulug'bekning astronomiya maktabi o'z davrining akademiyasi («Dorul ilm») bo'lgan va O'rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojiga katta ta'sir qilgan. Bu maktab dastavval bundan 225 yil muqaddam mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1669-1778) tomonidan ye'tirof etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'ona hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, akaukalar, tog'ajiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Ilmga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin Muhammad Bobur barcha Temuriy shahzodalar kabi o‘z dunyoqarashidagi bilimlar asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi.

«Bobur Hindistonga kelgandan keyin davlatning ijtimoiy hayotida katta siljish yuz berdi va yangi hayotni boshlab bergan san‘atga, ilm ma‘rifatga, arxitekturaga toza havo baxsh etgan, madaniyat va ma‘naviyatni barcha sohalarini bir-biriga tutashtirib bergan buyuk shaxsdir» deb yozgan edi Javaharlar Neru.

Boburning ilmiy ma‘naviy, tarixiy, adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda XIXXX asrda Georg Kerr, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Sale, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, V. Zohidov, Ya. G‘ulomov, R. Nabiev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa‘y-harakatlari katta bo‘ldi.

Bobur o‘zining ma‘lum va mashhur asarlari bilan ma‘rifatni Xalq orasiga yoyishga, ilm va jamoat ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga intildi. Tarix, adabiyot, ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma‘naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Alisher Navoiy yosh avlodning ilm hunar egallashini va eng yaxshi insoniy fazilatlarga ega kishilar bo‘lishini orzu qiladi. Uning ta‘lim-tarbiya sohasidagi fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari markaziy o‘rinda turadi. Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak va qadrlidir.

Alisher Navoiy bolaning voyaga etishida, kamol topishida tarbiyaning kuchqudratiga alohida e‘tibor beradi. Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm fanning ahamiyatini yoritib berar yekan, ilmni qorong‘ulikni yorituvchi chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta‘riflaydi.

Kishilarning pok qalbli, rostgo‘y, adolatli bo‘lishi Navoiyning buyuk armonidir. Navoiyning ta‘kidlashicha, to‘g‘ri va chin so‘zlagan kishilar mo‘tabar, pok ko‘ngilli, xalq nazdida ishonchli va obro‘li bo‘ladilar. Haqiqiy inson to‘g‘ri so‘zlashi va to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy xislatlari, go‘zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxtsaodatini ta‘minlash yo‘llari xususidagi g‘oyalarni ifoda etadi. Allomaning to‘liq ismi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad bo‘lib, u 1414 yilning 7 noyabrida Jom shahrida tavallud topgan. Abdurahmon Jomiyning oilasi keyinchalik Hirot shahriga ko‘chib o‘tadi. Bu davrda Xurosonda Shohruh Mirzo hukmronlik qilar, Hirot shahri esa eng yirik

madaniy markazlardan biri sanalardi. Yosh Nuriddin Abdurahmon maktabga juda erta qatnay boshlagan. Uning otasi o'z davrining ziyoli kishilaridan biri bo'lganligi uchun o'g'lining bolalikdan bilim olishiga kata e'tibor bergan.

Jomiy asarlarida yetuk inson tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy sifatlar har tomonlama asoslangan holda berilgan bo'lib, bugungi jamiyatimizning bosh muddaosi bo'lmish komil inson tarbiyasini amalga oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Jomiy o'zining «Silsila tuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonidagi «Sevimli aziz farzandimga nasihat» bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyosiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Shuningdek, «Nasihat» bobida yoshlikning qadriga etish, elga manfaat keltirish, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, do'stlarga mehribon va sadoqatli bo'lish, baxillikdan hazar qilib yehson tomon yuz tutish, kitobga ulfat bo'lib, uni beminnat ustoz bilish, ma'rifatga oshno bo'lib, manmanlik va takabburlikdan saqlanish, va'daga vafo qilish, muloyimlikni pesh qilib donolar nasihatidan bahramand bo'lishni uqtirib o'tadi.

Jaloliddin Davoniy 1427 yilda Eronning Kazarun viloyatiga qarashli Davon qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidanoq ilm-fanga ayniqsa, fiqhshunoslikka qiziqadi va boshlang'ich maktabni qishlog'ida bitirgach Sherozga kelib, madrasada yirik olimlar qo'lida tahsil oladi. Keyinchalik Sheroz shahrining qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, madrasada mudarrislik qiladi. Ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi. 1502yilda Kazardi shahrida vafot etadi va Davon qishlog'iga dafn qilinadi. Tadqiqotchi olimlarning xabar berishicha Eron, Iroq, Hindiston, O'rta Osiyoning ko'p shaharlarini kezib, olimlar bilan uchrashadi, ular bilan falsafaning turli muammolari bo'yicha bahs yuritadi.

Maryam Mirhodiyning (Tehronlik tarixchi olim) aytishicha «Davoniy yuksak qobiliyat egasi» bo'lgan u o'zining topgan butun boyligini ilmfan ravnaqi yo'lida sarflangan. Jaloliddin Davoniyning ilmiy merosi juda boy bo'lib, o'sha davr olimlari orasida yozgan risola va asarlari ko'p fanlarni o'rganish uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. J.Davoniy asarlari Xuroson Movarounnahrda ham tarqalib bu yerda turli ilmiy yo'nalishga ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatdi. Davoniyning eng katta yirik asari «Axloqi jaloliy» asari bo'lib, bu asar 1470-1478yillar orasida yozilgan. Bu asar 1839-yilda olim V.F.Tompson tomonidan ingliz

tiliga tarjima qilingan. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, qo'lyozmasi dunyoning juda ko'p kutubxonalarida mavjud. Asarni J.Dovoniy G'arbiy Eron hokimi, Oq qo'yinlilar sulolasi vakili Uzun Hasanga bag'ishlagan.

«Odamlar birlashib, bir-biriga yordamlashganda boshqalar to'g'risida chinakamiga qayg'uradi, o'zaro yordam va aloqa o'rnatilganda adolatning sinalgan yo'llari paydo bo'ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi».

8.7 XVII asr va XX asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.

Movarounnahrda bir yuz ellik yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi XVI asr boshlarida inqirozga uchradi. Uning o'rniga Shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Shayboniixon (1451 —1510) Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga qay darajada harakat qilgan bo'lsa ham, uning o'limidan so'ng o'zaro kurashlar avj olib ketib, oqibatda bu hududda uch xonlik, Buxoro va Xiva, XVIII asr oxiriga kelib esa, Qo'qon xonligi tashkil topdi.

Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatilishiga erishildi. Jumladan, Hindistonda shoh Akbar, Sharqiy Ovrupoda Ivan Grozniy bilan xalqaro munosabatlar o'rnatildi.

Abdullaxon atrofiga yozuvchi, shoir va olimlarni yig'ib, ularga homiylik qildi. Shoirlar orasida Mushfiqiy o'z madhiyalari, lirik she'r va hajvlari bilan shuhrat topdi. Buyuk muarrix Hofiz Tanish Buxoroda «Abdullanoma» nomli katta tarixiy kitob yozdi.

Bu davrda tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy «Dastur aliloj», Muhammad Yusuf «Tahqiq al-humayyot», «Zubdat ul-kahholin» asarlarini; shoir va adiblardan Muhammad Solih, Majlisiy, Hasan Nisoriy, Binoiy, Vosifiy, Ubaydiy, G'oyibiy Samarqandiy barakali ijod qildilar.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasa, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalarga oid ilmiy nazariy bilimlar o'rgatilgan. Buxoro amirligida XVII-XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab maktablar faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohidaalohida maktablarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktablari masjidlar, madrasalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida tashkil etilgan bo'lib, masjid imomi yoki madrasani tugatgan ziyoli kishilar o'qtuvchilik qilgan. Qiz bolalar maktablari badavlat kishilar yoki o'qituvchi ayo'llar uylarida tashkil etilgan, qizlarni otinoyi, otinbibi, bibiotin, bibihalifa deb atalgan ayol o'qituvchilar o'qitishgan.

O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, «Haftiyak» kitobini o'qish o'rgatilgan. O'quvchilar Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor asarlarini, «Chor kitob» ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktablarida uyro'zg'or tutish, pazandachilik, odob axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq ahamiyat berilgan.

Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti hisoblangan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab 7-12 yil davom etgan. Buxoro amirligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa bo'lgan. Madrasada arab, fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. O'qish «Avvali ilm» deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi o'qitilgan. Fiqh kursi majburiy kurs hisoblangan.

Madrasani bitirganlardan mudarris, mutavali, qozi, imomlar, fan arboblari, shoirlar etishib chiqqan. Ulardan Boborahim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy Namangoniy, Faziyl Namangoniy, Shavqiy Namangoniy, Sayido Nasafiy, Abulg'ozil Sofiy Olloyor, Dilshodbarno, Uvaysiy, Muhammad Mir Olim Buxoriy, Abulg'ozil Bahodirxon ana shunday ilm sohiblaridandir.

XVI-XVIII asrning birinchi yarmi Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgan emasdi. Bu davrda tarix ilmi o'ziga xos o'rinda turadi. Xiva xoni Abulg'ozilxon tarixshunosligi maktabiga asos solgan.

Abulg'ozil Xorazmda ilm-fanni, madaniyatni taraqqiy ettirish maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar, tarixnavislar, adibu xattot va boshqa kasb egalarini to'pladi. Abulg'ozilxon fan va madaniyat tarixiga ikki muhim asari «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» bilan o'chmas nom qoldirgan. Abulg'ozilxonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o'z asarlarini oddiy xalq uchun turkiy tilda yozgan. Shuning uchun ham ayrim olimlar uning asarlarini yangi o'zbek tili yozma yodgorligi deb hisoblashgan.

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida So'fi Olloyor (asli ismi Oллоhyor) mashhur bo'lib, uning asarlaridan maktab va madrasalarda o'quv qo'llanmalari sifatida keng foydalanilgan.

So'fi Olloyor «Siroj ulojizin», «Sabot ulojizin», «Murod ulorifin», «Najot ultolibin» kabi asarlarni yaratgan. «So'fi Olloyor» nomi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan «Sabot ulojizin» asari maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitiladi. Unda islom dinining asosiy aqidalari bayon etilgan. Ular insoniy fazilatlar, badiiy hikmatlar tarzida ifodalanadi.

Kitobda ilgari surilgan masalalar oyatu hadislarga muvofiq yozilgan. Asar fors va arab tilini bilmagan oddiy xalq uchun mo'ljallab yozilgan edi.

Barcha madrasalarda majburiy fan sifatida «Qur'on», «Tafsir», «Odob as solihin», «Maslak ul muttaqin», «Sabot ul ojizin», «Kimyoi saodat», «Hadis» o'qitilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ayo'llar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'qimishli, ma'rifatli, ziyoli ayo'llar tomonidan ko'plab maktablar tashkil etilgan va u otinlar maktabi deb nomlangan.

Markaziy Osiyoda otinlar maktabining asoschilaridan, ayollar ta'limida katta xizmat qilgan, o'ziga xos maktab yaratib shuhrat qozongan otinlardan biri Jahon otin Uvaysiy (1779-1845) hisoblanadi.

Jahon otin Uvaysiy Marg'ilon shahar Childuxtaron mahallasida, Farg'ona tumani, Arsun qishlog'ida 1780 yilda tug'ilgan. Uning otasi Qaynar devona yoki Devonai Qalandar deb yuritilgan. (Uning ismini Siddiqbobo deb ataganlar). Onasining ismi Chinnibibi edi. Ularning Uvaysiydan tashqari Oxunjon hofiz degan o'g'li ham bor edi.

Uvaysiy oilasi o'z davrining ilg'or va marifatli oilalaridan edi. Otasi kosibchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo'lib, maktabdorlik qilgan va mahalla ahli qizlarini o'qitgan.

U 1796-97 yillarda onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab halfalik va keyinchalik mustaqil ravishda otinlik qilgan. Jahonotin o'z maktabida ta'lim tarbiya sohasida o'ziga xos ilg'or usullarni qo'llashga harakat qilganligini ko'ramiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, XIX asr sharoitida maktablarning aniq bir ta'lim tizimi haqida gapirish bir oz qiyin.

Bu davrda asosan maktablarning, ya'ni ta'lim muassasalarining quyidagicha boshlang'ich maktablar tuzilishiga ega ekanini kuzatamiz:

Maktablar:

a) o'g'il bolalar maktablari — o'g'il bolalarga diniy ta'lim-tarbiya beradigan boshlang'ich maktablar;

b) otinoyi maktablari — qiz bolalarga islom qoidalarini o'rgatadigan va boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar.

Madrasalar o'g'il bolalarga diniy ta'lim beruvchi oliy ta'lim muassasalari yuqorida sanab o'tilgan ta'lim o'choqlari (otinoyi maktablaridan tashqari) vaqf daromadlaridan kelgan mablag' hisobiga ta'minlanardi.

Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edilar.

O'quvchilar ham sinflarga bo'lib emas, balki bolalar o'qitiladigan kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga bo'lib o'qitilgan.

Domla yoki Otinoyi darsni berilgan vazifani o'qitib ko'rish va yangi topshiriq berishdan boshlar edi. Hech bir domla yoki otinoyida o'ziga xos ishlar, umumiy o'quv darsligi yo bo'lmasa o'quv uslubi bo'lmas edi.

Uvaysiy o'z maktabida qizlarga boshlang'ich ta'lim berar ekan, Jahon otin ularning zehni o'stirishga katta ahamiyat beradi. Otin o'z shogirdlariga savod o'rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab sharq she'riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo'stoniga yetaklaydi.

Tajribali murabbiya o'zining muammo san'ati orqali shogirdlari zehni o'stirishga harakat qilgan. Xuddi ana shu she'riy topishmoqlar orqali qancha qancha yosh qablarga ziyo oqib kirgan. Oltmish yildan ko'proq umr ko'rgan Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uning qo'lyozma devonlari O'zbekiston fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon Davlat pedagogika universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Shoira devonining qo'lyozmalarini aniqlash, ommalashtirish va tadqiq etishda akademik A. Qayumov, professor X. Razzoqov va E.Ibrohimovalarning xizmatlari kattadir.

Jahon otin Uvaysiy o'zbek pedagogikasi maktablari tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan buyuk shaxs desak adashmagan bo'larniz.

U o'zining maktabdorlik va ijodiy faoliyati bilan yoshlar ta'limida yuksak o'ringa ega. Uvaysiyning ma'rifiy faoliyati ayo'llar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati, qobiliyatli qizlar bilan ish usullari alohida o'ringa ega. U o'z davrining yosh talabalariga hayotga muhabbat tuyg'ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli so'zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chistontopishmoq usullarini yaratishni o'rgatgan. Shuning uchun ham Uvaysiy ijodiy merosini o'rganish va uni hozirgi davr maktablar ta'lim-tarbiya tizimi mazmuniga kiritish muhimdir.

Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim» asari Xorazm adabiy muhitini tarixini ko'zdan kechirsak, badiiy ijod sohasida Abulg'oziy Bahodirxon boshlab bergan ishlar XVII asrdan keyin yanada rivojlandi, keng quloq yoydi, an'anaga aylandi. Shu an'anani yuksak pog'onaga ko'targan Munis Xorazmiy katta iste'dod egasi: buyuk shoir, adolatgo'y tarixchi olim, mohir tarjimon va noziktab xattot sifatida el orasida shuhrat topdi, e'tibor qozondi.

Shermuhammad Munis Xorazmiy Xorazm adabiy muhitida ustozlik maqomida turadigan mutafakkirlardan biridir. Ijodkor sifatida mo‘tabar mavqega sazovor bo‘lgan. Munis haqida tazkiralarda tarixiy va badiiy asarlarda ma’lumotlar yetib kelgan. Ahmad Tabibiyning «Majmuat ushshuaro», Laffasiyning «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» tazkiralarda Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida Munis ehtirom bilan eslanadi.

Munis haqidagi dastlabki ilmiy maqola Rahmat Majidiy tomonidan yozilgan. Shoir asarlari, faoliyati A. Bobojonov, V. Zohidov, V. Abdullaev, J.Sharipov, A. Murodov, N. Jumaevlarning tadqiqotlarida tahlil va talqin etilgan.

Xiva shahriga tutash Qiyot qishlog‘idagi Avazbiy oilasida 1778 yili bo‘lajak xorazm faxri, ulug‘ shoir Munis Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li tavallud topdi. Uning padari buzrukvor Avazbiy mirob fan va madaniyat qadriga etadigan, ijod ahlini hurmat qiladigan, ma’rifatparvar inson bo‘lgan. Shul bois u o‘g‘li Shermuhammadning ilm va ijod bilan bog‘liq barcha orzu umidlarini ro‘yobga chiqarishda shaxsan o‘zi boshqosh bo‘ldi.

Shermuhammad boshlang‘ich ta’limni qishlog‘idagi maktablardan birida oldi. Keyin o‘qishni Xiva madrasalarida davom ettirdi. Ilm sirlarini o‘sha davrdagi mashhur ustoz Saideshonxo‘jadan o‘rgangan. Shermuhammad o‘qish jarayonida, olim va shoir Hasanmurod Qori Laffasiyning xabar berishicha, arab va fors tillarini puxta o‘rgangan hamda xattotlik san’atini egallagan.

Munisdan bizga katta meros qolgan. Shoirning 10000 baytga yaqin she’riy merosi mavjud. Devonida gazal, muxammas, ruboiy, tuyuq, qita, qasida, chiston, kabi o‘ndan ortiq mumtoz janrlarda bitilgan asarlari jamlangan. Munis hayoti davomida ikki devon tuzgan. Birinchisi 1804-1805 yillarda jamlangan. U “Ilmda ilk devon” nomi bilan yuritiladi. Ikkinchisi 1813-1814yillarda jamlangan bo‘lib, «Munis ul ushshoq» deb nomlangan. «Munis ul ushshoq» devoni debocha bilan boshlanadi. Unga shoirning 8446 bayt asari kiritilgan. Ushbu devonning 10 dan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida shakllanadi.

Tarixchi olim sifatida Munis «Firdavs-ul iqbol» (Baxt bog‘i) asarini Xiva xonlari tarixiga bag‘ishladi. Unda 1812 yilgacha bo‘lgan davr yoritilgan, keyingi voqealar esa Munisning jiyani Ogahiy qalarniga mansubdir.

Munis shariyatida chuqur ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tibor qaratiladi. Asarlarida jamiyatdagi mehr oqibat, insof, adolat, do'stlik, go'zallikni, anglash kabi insoniy fazilatlarini sog'inish tuyg'ularini ifodalaydi. Ularni avaylashga va zamondoshlar yuragidagi mudroqni uyg'otishga intiladi. Hayotning mazmun mohiyatini chuqur idrok qiladi:

Ma'rifatparvarlik Munis shariyatining yetakchi g'oyalaridandir. «Savodi ta'lim» risolasi uning bu boradagi xizmatining salmoqli qismini tashkil etadi. Garchi bu asar asos e'tibori bilan xattotlik ilmiga oid bo'lsada, unda Munisning ustoz Ibn Xonjib haqida, yozuvning madaniyat taraqqiyotidagi o'rni, xususan, husnixat ta'limi va umuman, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qimmatli fikrlari mavjud. Shoir asarning yozilishi sabablari, tarixi haqida asarning o'zida ma'lumot beradi. Yozuv san'atiga bag'ishlangan «Savodi ta'lim» she'riy asari 1804 yil dekabr oyida yozib tugatilgan.

Asarning hajmi 352 misradan iborat. Uni shartli ravishda 3 qismga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi muqaddima qism. U 18 ta kichik bobdan tarkib topgan. Ularda hamd, nat va risola nazmining sabablari, qalam tarifi, xat tarifi, yozuv asboblarning qulayligi, yaxshiligi, ularni tayyorlash mahorati kabi masalalar yoritilgan. Ikkinchi asosiy qism. U 22 ta kichik bobdan iborat. Ularda arab harflarini yozish yo'llari, usullari va mahoratiga e'tibor qaratiladi. Uchinchi xotima qism. Unda risola tarixi bitilgan. Uning toliblar ko'ngliga ilm rag'batini uyg'otishga xizmat etishi muallif tomonidan orzu qilinadi.

Shoir va tarixchi olim Munis Xorazmiyning she'riy asarlarida ham, tarixiy kitoblarida ham ma'rifatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. U barchani mardlik va jasoratga, ilm-fan rivojiga hissa qo'shishga da'vat etadi. Munis endigina ijodi gullab yashnagan bir paytda, ya'ni 1829 yilda vabo kasaliga chalinib vafot etadi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy haqida bizgacha juda oz ma'lumot yetib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma'lum bo'lgan «Odob as solihin» asarining o'ziyiq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy 1740 yilda Qoshg'arda kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan va 1843 yilda u shu yerda vafot yetgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning «Odob as solihin» («Yaxshi kishilar odobi»), «Zubdat al masoyil» («Masalalarning qaymog'i»), «Dur al muzoxir» («Ko'makdoshlarning durdonasi») hamda «Tazkirai xojagon» («Xojalar tazkirasini») nomli asarlari yetib kelgan.

O'zida shaxs va uning tarbiyasini yo'lga qo'yish masalalarini aks yettiruvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq Q'oshg'ariy tomonidan turkiy tilda «Odob as solihin» («Yaxshi kishilar odobi»), «Zubdat as masoyil» («Masalalarning qaymog'i») nomli asarlar yaratildi. «Odob as solihin» asari 5 marta, 1889 hamda 1901yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istanbul shahrida qayta nashr etilgan.

Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g'oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi xulq odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma'lumotlar berishga xizmat qiladi. «Odob as solihin» asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va axloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo'lga qo'yishdagi o'rni va roli borasida batafsil so'z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob assolihin» asari muallifning o'zi ta'kidlaganidek, muqaddima va 7 bobdan hamda har bir bob 4 fasldan iborat.

Muqaddimada asarning maqsadi ifoda etiladi, ya'ni insonga yaxshi xulq egallash zarurligi ta'kidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi. Asarning yozilishidan ko'zda tutilgan maqsad borasida so'z yuritilar ekan, insonning ijobiy xulq-atvoriga ega bo'lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g'oya insonlarning ijobiy xulq-atvoriga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil yekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g'oya mohiyatini sharhlar yekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy xulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi.

Birinchi bob salomlashish, ko'rishish, qo'l olishish hamda ruxsat so'rash qoidalari to'g'risida ma'lumotlar berishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur bob to'rt fasldan tashkil topgan.

Ma'lumki, Sharq xalqlarida biror kimsa birorta uyga kirganda u yerga ruxsatsiz kirib boravermay, ma'lum urfodat qoidalariga rioya qiladi. Ana shu qoidalarning eng muhimlari deb, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy har bir odam kelganligini bildirish (yeshikni qoqish yoki

yo‘talish), ovoz berilgandan so‘ng kirishga ruxsat so‘rash va so‘ng kirish kerakligi bayon etiladi.

Ikkinchi faslda esa salomlashish odobining o‘n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Shunda savol berish va javob masalasida hozirgi paytda ham yuz berayotgan munozarali fikrlarga nuqta qo‘yilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, adabi avvalikki mo‘min kishi kelsalar, xoh oshno va nooshno, salom berisgaydirki, salom bermak sunnatdir, javob fayz ayndur, deydi.

Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo‘l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan yeshiklarni mahkamlab yopish, idishlarning og‘zini berkitish, o‘rnidagi ko‘rpato‘shaklarni bir bora qoqib yozish, o‘choqdagi olovni hamda chiroqni o‘chirish, uxlaydigan o‘rnini yumshoq qilmaslik, o‘ng qo‘lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, ushbu qoidalarning ahamiyati ularga rioya qilmaslik natijasida ro‘y bergan noxush voqealar misolida ochib beriladi.

Libos kiyish qoidalari ham xulq-odob qoidalarning tarkibiy qismi sanaladi. Bunda eng muhimlaridan kishi imkon darajasida kiyinishi lozimligi, qulayligi va yoshi, jinsiga, joyiga, fasliga mos bo‘lishi, uni toza tutish, yaxshi libos kiyganda manmanlik qilmaslik, kiymaydigan ortiqcha liboslaridan muhtojlarga in‘om qilish kabi tavsiyalar hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi bayon etiladiki, bu odob qoidalariga inson har bir daqiqada rioya yetshi zarur.

Suhbatning yaxshi niyatlarga boy hamda beg‘araz bo‘lishi muhim sanaladi. Muayyan mavzularda tashkil etilayotgan suhbat (bahs-munozara)ga tanning tozaligiga erishgan, shuningdek, og‘iz va tishlarni tozalagan holda pokiza libos bilan tashrif buyurish, suhbat ahlining birbirlariga hurmat va iltifot ko‘rsatishlariga erishish, ulug‘larga e‘tiborini qaratish, o‘tirish qoidalariga rioya etish, ahli suhbat kirganda va chiqqanda o‘rindan turish va ulug‘larni yuqoriga o‘tkazish, beadab so‘zlar, yomon xatti-harakatlar hamda noo‘rin jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo‘lish, ularni izzat qilish, aksa kelsa og‘zini to‘sib, past ovozda, engil aksa urish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, ularga beminnat xizmat ko‘rsatish, do‘st va notanishlarga bir xil ochiq chehra, go‘zal xulq va odob bilan muomalada bo‘lish, akaukalar, opasingillarning xatosini kechirish hamda ularning aybini yuzlariga solmaslik, agar joiz bo‘lsa, ularga boshqalarning e‘tiboridan chetda nasihat qilish, suhbat jarayonida ishtirok etayotgan biror kishining yomon qiligi yoki qabih fe‘liga baho bermaslik, zaruriyat yuzaga kelgan holda uni suhbatdan

chetlatish chora-tadbirini ko‘rish va hokazo kabi odob-axloq qoidalariga rioya etish har bir kishining insoniy burchi ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Mazkur o‘rinda quyidagi fikrlar ilgari suriladi: uylanadigan yigit nikohdan oldin o‘zi uylanmoqchi bo‘lgan qizni ko‘rmog‘i, uylanadigan qizning bokira bo‘lishi, shuningdek, to‘rt narsa: umrda, qomatda, molda va nasabda yerdan past va uch narsa: husnu jamolda, xulq (odob)da hamda iffatda erdan yuqori bo‘lishi zarurligi muallif tomonidan alohida ta’kidlanadi. Bu fikr turmushda tinch totuv oila qurish masalalarida isbotlangandir.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy «Odob assolihin» asarida, kasal holini so‘rash, ta’ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Bu narsalarni har bir kishining bilishi muhimdir.

Bemor holini so‘rash qarindosh urug‘, qo‘ni qo‘shni, yoru birodar, shuningdek, do‘st uchun farz yekanligi, bemorning millati va diniy e‘tiqodidan qat’i nazar, uning yoniga ochiq yuz bilan kirish, unga ko‘ngilni ko‘taruvchi so‘zlar bilan murojaat qilish, bemor oldiga bashang kiyinib yoki kir libosda bormaslik, bemor yotgan xonaga kulib kirib, uning bosh tomoniga yaqin o‘tirish, ko‘p so‘zlanishib bemorni to‘liqtirib qo‘ymaslik, qo‘lni peshonasiga qo‘yib hol so‘rash, bemorni kun yoki kunora kelib to‘liqtirib qo‘ymaslik, bemorning ko‘ngli tilaydigan narsalarni so‘rab surishtirib, ularni topib kelish, ammo bemorning muolajasida uni harom narsalardan saqlash, bemor oldida ko‘p o‘tirmaslik, agar bemor oldida uzoq vaqt qolish zaruriyati yuzaga kelsa, uning ko‘ngliga yoqadigan, xush keladigan so‘zlar yoki hikoyatlardan so‘zlab o‘tirish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg‘u beradi.

Asarda musibat odoblari haqida bayon etiladiki, bularni bilish ayniqsa yoshlarga zarurdir.

Biron mo‘minning vafoti haqidagi xabarni eshitilganda ahli musibatga ta’ziya ado etiladi. Bu dafndan oldin yoki keyin ham bo‘lishi mumkin. Ta’ziya bildirish uch kungacha joiz, undan so‘ng makruh deyiladi. Tobutni olib chiqib ketayotganlar sukut saqlashlari lozimligi, ayollar tobut ko‘targan yerkaklarga hamroh bo‘lib, yeshikka chiqmasliklari, boshiga musibat tushgan kishilar yig‘ilganlarida ovozni baland qilib, fig‘on chekmasliklari, mayit dafn etilgach, har kim o‘z ishiga ketishi, bir yerda yig‘ilib o‘tirmasliklari kerakligi, yig‘ilish uyushtirish uchun turli tadbirlarni izlab topish va ularni o‘tkazish bid‘at yekanligi, biroq qo‘niqo‘shni, qarindoshurug‘, yoru do‘stlarning turli taomlarni tayyorlab, boshiga musibat tushgan kishilarning xonadonlariga yuborish odamgarchilikning muhim ko‘rinishlaridan biri yekanligi ta’kidlanadi.

So'ng qabr ustida g'isht va tosh hamda boshqa narsalarni qo'yish, qubba va imorat qilishni bid'at sanalishi ta'kidlab o'tiladi. Shu o'rinda olimlar qabrlar odobiga ham to'xtalib o'tadi. Yana qabristonni tonggi ziyorat qilish ko'proq yerkaklaga mansubligi, otaona qabrlarini xotinlar ham ziyorat qilsa, man etilmasligi ta'kidlanadi. So'ng qabristonlarni oyoq osti qilmaslik kabi odob to'g'risida gapirib o'tiladi.

Asarda ziyorat, mehmondorchilik odobi haqida ham ko'pgina ibratli gaplar yozib qoldirilgan.

Asarda ziyofat uyushtirish va mehmon kutish odobi borasida ham ko'pgina ibratli fikrlar bayon etiladi. Xususan, mehmondorchilik odobi yuzasidan quyidagi fikrlar ifoda etiladi: mehmondorchilikka kishining boyligi, mavqei yoki mansabiga qaramay, hammaning baravar chaqirish, oila a'zolarini ham ajratmaslik, mehmon ning izzathurmatini joyiga qo'yish, lekin uch kundan so'ng ortiqcha takalluf ko'rsatmaslik, dabdaba qilmaslik, mehmon uchun uyni ortiqcha bezamaslik, lekin ozoda va toza ko'rpato'shaklardan foydalanish, dasturxon tuzashda isrofgarchilikka yo'l qo'yimaslik, dasturxonga taom qo'yilganda avval mezbonning taomga qo'l uzatishi, mehmondan oldin taomdan qo'l tortmasligi, mehmonga nisbatan ortiqcha takalluf qilavermaslik, imkoni bo'lsa, lazzatli va latif taomlar tayyorlab mehmonning ko'nglini olish kabi qoidalarning mohiyati ochib beriladi.

Asarda mehmon tomonidan xonadon sohiblariga nisbatan ko'rsatiladigan hurmat borasidagi qoidalar yuzasidan ham fikrmulohazalar bayon etiladi. Xususan, ziyofat yoki mehmondorchilikka chaqirilganda, u xoh faqir, xoh ulug' martabali kishi bo'lsin, albatta, chaqirilgan xonadonga borishi zarurligi, zolim, axloqsiz, ikkiyuzlamachi hamda xurofotchi kishilar ziyofatga chaqirganda esa bormaslik kabi odobaxloq qoidalariga rioya etish nihoyatda muhim yekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Yettinchi bobda eng zaruriy safar qoidalariga to'xtalib o'tiladi. Safar qilishni olim uch qismga bo'linadi: farz, fazilat, muboh (ruxsat etiladigan). Bundan safar farzining o'zini besh bo'g'inga bo'ladi: jihod, hajji farz, ota va ona chaqirig'iga binoan, raddi mazolim (zulmni qaytarish uchun) va beshinchi ilm olish uchun safar qilish.

Safar mubolini ham ikki bo'g'inga bo'ladi:

1) o'z manfaati yo'lida, o'zgalardan biror narsani ta'ma qilmagan holda uyushtirilgan tijorat safari. Agar kim tijoratda faqat moldunyo ortirish maqsadida bo'lsa, unda bu tijorat safari ham unga ziyon yetkazadi, deydi olim.

2) ma'naviy tafarruj (ko'ngil ochish) maqsadida safar uyushtirish. Ba'zida bunday safarlarning ham joizligi ta'kidlanadi. Ammo safarlarning barchasida ham ayollarga albatta mahrami haromlik qilishi zarur, deb hisoblaydi.

So'ng olim safarlarning foydalari haqida og'iz ochadi, unda safar qilgan kishi birinchidan, g'amanduhdan forig' bo'lishi, ikkinchidan tirikchilik uchun sarmoya yig'ish, uchinchidan ilm olish, to'rtinchidan, to'liq odob va axloq o'rganish, beshinchidan, ulug' kishilarning suhbatlaridan bahramand bo'lish mumkin deyiladi. Olim safarning ba'zan mashaqatlari ham bo'lishi mumkin degan savolga yoshlarga chaqimchi va hasadchilar orasida tirik yurgandan ko'ra, safar mashaqatlari afzalroqdir, deb to'g'ri xulosa chiqaradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan «Odob assolihin» asari jamiyat a'zolari, shu jumladan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar har bir inson tomonidan o'rganilishi va kundalik turmushda qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan xulqodob qoidalarining majmui sanaladi. Shuning uchun Sharq pedagogikasi tarixida «Qobusnoma» kabi bu asar ham, o'z o'rni, o'z mavqeiga ega. Bu asarni bobmabob o'rganish yosh avlodning kamol topishida foydalaniladigan bebaho xazinadir, deyish joiz.

8.8 O'zbekistonda 1917-1990 yillarda ta'lim tizimi va pedagogika

Markaziy Osiyo zaminida Temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin, bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi. Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda sobiq imperiya o'rnida 3 ta xonlik Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari bo'lib, bular o'rtasida nizo kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra Qozog'iston orqali 1864yilda Turkmaniston, Chimkent, Avliyo otani, 1865yilda Toshkentni zabt yetdilar. 1867yilda Yettisuv viloyati, 1868 yilda Samarqand, 1876 yilda Farg'ona viloyati Rossiya qo'lga o'tdi. 1876yil 19 fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi to'g'risida buyruqqa imzo chekdi. 1885 yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma yerlari Rossiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada

Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi. 1875-yil Turkistonda Xalq maorifi haqida qonun ye'lon qilindi, unga binoan general gubernatorlik tasarrufida o'lka o'quv yurtlari boshqarmasi tashkil etildi.

Tadqiqotchi olim Y. Abdullayevning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatilishicha Markaziy Osiyoda, jumladan, Turkiston o'lkasida mahalliy maktablarning xususi yati, ta'lim-tarbiyaning mazmuni uni tashkil etish usullari o'sha davr tarbiyasi maqsadiga mos bo'lgan. 1876-1917-yillar oralig'ida Turkiston o'lkasida turlicha ta'lim muassasalari borligi haqida ma'lumot beradi. Maktablar mahalliy xalq mablag'i hisobiga tashkil etilgan musulmon diniy maktablari, maktab (xona) eski maktab, qorixona (Qur'onni o'quvchilar maktabi), madrasa, «Yangi usul» maktablari (usuli jadid), boshqaruvchi tizim xalq ta'limi maktablari, umumrus tipidagi maktablar, umumiy ma'lumot maktablari (boshlang'ich, kuchaytirilgan tipdagi va o'rta), kasb maktablari, tub aholi uchun maktablar rus-tuzem maktablari va bilim yurtlari, rus tilini o'rgatish kurslari, ovrupoliklar uchun mahalliy til kurslari.

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar faoliyat olib borgan. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bunday maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

Maktabda o'g'il bolalarni «Domla» deb ataluvchi o'qituvchi (odatda machitlar imomlari) dars berganlar. Qizlarni esa savodxon ayollar (Toshkentda otinbibi, Buxoroda bibi halifa yoki bibi otin, Xivada yedtibibi) dars berishgan. Savod chiqarishda harflarni hijjalash (arabchada hijo bo'g'in) usulidan foydalanilgan. Savod chiqarish uch bosqichda: I bosqichda arab alfavitidagi harflarni yod olishdan boshlangan. Undan keyin kalimai shaodat yod olingan. Bunday o'quvchilarni odatda taxtaxonlar deb atalgan.

«Chor kitob» 4 bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim haqxudoning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisida iydone'tiqodni anglash, uchinchi bo'limda rivoyatlar bahs etilgan. Shuningdek, Xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilar edi. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo'lar edi. Ular o'qishni tamomlab, olgan

bilimlarini savdosotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo'llar edilar, ba'zilar qo'shimcha ta'lim olib, xattotlik kasbi bilan shug'ullanar, ba'zilar madrasaga kirib o'qishni davom ettirardilar.

Oliy diniy maktab bo'lgan madrasada o'rta asrga oid diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o'tilardi. Uning o'quv rejalari vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turgan. Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan: birinchi bo'limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob arab tili va qonunchilik o'rgatilar edi. Bu bo'lim talabasi 910 yil o'qigan.

Ikkinchi bo'limda qonunchilik, ilohiyot, (qonunchilik), mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati, kalom o'qitilgan. Unda 78 yil o'qishgan.

Uchinchi bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug'ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo'lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba'zi domlarning xotinlari otinoyilar qizlarni ham o'qitish bilan shug'ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab va forstojik tillarida olib borilardi.

Eski maktablarda ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi maktablarning ta'siri ostida ba'zi yeski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi, litografiyada bosilgan alifbelar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilindi, qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birga yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayotida muhim rol o'ynadi.

Umuman olganda Turkiston o'lkasida 1905-1906yillarda 5290 ta maktab bo'lib, ularda 70955 talaba ta'lim olgan.

Bu davrga kelib mahalliy fuqaro bolalaridan ilmi kishilar tayyorlash maqsadida Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy Feruz (1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo Rahmonquli qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug'ullandilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904yilning 10noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo'shaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo'shaev 1906-1907 o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar

maktabini ham tashkil yetdi. Feruz unga homiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag' ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo'shaevning turmush o'rtog'i Komila Qo'shaeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909yilga kelib, Feruz qo'li ostidagi madrasalar soni 130 taga yetib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xiva ziyolilari orasida nufuzli o'rinni egallagan ma'rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelishi maqsadida safarga jo'natadi. Safardan qaytgach, Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o'quv dasturi hamda rejasiga riyoziyot, tarix, jo'g'rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik kabi fanlarini o'qitish kiritildi. Mashg'ulot jarayonida Sharq mutafakkirlari Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa'diy Sheroziy, Mashrab, So'fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari ham o'rganildi.

«Litografiya» yunoncha so'z bo'lib «Litos» tosh va «grafos» yozaman degan ma'noni bildiradi. Bu atama o'zbek tilida toshbosma tarzida qo'llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Forobiyning «Nisobus sibiyan» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Hayrat ulabror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul ushshoq» devoni, Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'janing «Devoni Xolis» to'plarni, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o'nlab asarlari nashr etilgan.

Rus muhojirlari Turkiston general gubematorining farmoniga binoan o'lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.

Tarixchi olim I.Y.Tursunov ning «Istiqlolga intilgan qalblar nidosi» nomli asarida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

O'lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, Rus-tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» yeski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha aholi

ro'yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar 99,5 % savodsiz;

Qirg'izlar 99,4 % savodsiz;

Turkmanlar 99,3 % savodsiz;

O'zbeklar 98,4 % savodsiz;

Qozoqlar 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Ayni vaqtda chor hukumati rus bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o'z oldiga ruslashtirish maqsadini qo'yar edi. Bu kabi maktablarning ochishdan maqsad musulmon bolalarga rus tilini o'rgatish edi. Shu maqsadda birinchi Rus-tuzem maktablari ilk bor Toshkent shahrining Shayxontahur dahasida 1884yilning dekabrda ochildi. Aslida «Tuzemes» degani ruscha o'zbekcha lug'atda «mahalliy Xalq», «tub aholi» degan ma'noni anglatadi.

Maktabni boshqaruvchi va rus tili o'qituvchisi V.P. Nalivkin «musulmon yozuvi» o'qituvchisi mulla Solixoja Kichkina Xo'janov edi. Rus-tuzem maktablarida odatda asosan mahalliy xalqning o'g'il bolalari tahsil olishgan. Lekin ruslar uchun maxsus maktablari bo'lmagan joylarda ayrim rus o'g'il va qiz bolalari ham birga qo'shib o'qitilgan.

Turkiston o'lkasining Rus-tuzem maktablarida o'qitish jarayoni o'n oy, ta'til esa ikki oy davom yetgan. Mashg'ulotlar birinchi sentyabrdan boshlanib may oyining oxirida tamomlangan. Iyun va iyul oylari ta'til oyi hisoblangan. Rus-tuzem maktablariga o'quvchilar qat'iy aniq bir vaqtda, ma'lum tartib qabul qilinib, madrasalardagi kabi sinflarga bo'lib o'qitilgan. O'quv yilining maktabga qabul qilingan o'quvchilarning soni 2030 ta bo'lishiga qaramay, ular bir sinf deb hisoblanib, bitta kitobni o'qishgan va bir xil xatni yozishni mashq qilishgan. O'quv yilining oxirida bolalar ikkinchi sinfga o'tishgan. Shundan so'ng ular uchinchi sinfga, keyin esa to'rtinchi sinfga o'qish tamom bo'lgandan so'ng maktab rahbarlari, mahalla mulozimlari oldida imtihon topshirib guvohnoma olishgan. Maktabga qabul qilinish yoshi 15 yoshdan oshmasligi kerak edi.

Turkistonning 1880 yilda Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Markaziy Osiyodagi Rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo'ldi. Turkiston o'lkasidagi viloyatlarda (Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona) Rus-tuzem maktablarining o'sib borishi quyidagicha bo'lgan:

Yillar	Rus-tuzem maktablari soni	O'quvchilar soni	
		O'g'il bolalar	Qizlar
1870	1	29	
1874	2	69	
1884	3	110	
1886	4	116	
1889	17	374	
1891	22	418	8
1894	23	527	3
1896	28	698	3
1898	32	1171	
1900	35	1471	
1901	45	1579	
1904	57	1830	104

Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatildi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870 yillardan ochila boshladi. 1876 yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) yerlar va xotinqizlar gimnaziyalari. 1879yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham yerli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1/3 o'rin ajratilgan edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmas edilar, natijada ancha qiyinchilik hosil bo'lar edi. Shuning uchun rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmaguncha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazildi edi, chunki maktablar kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilardi edi.

Toshkentdagi gimnaziyada dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rgatishdan ozod qilinardi edi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining

yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u yeski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitilar edi. Otaonalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 yilda Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun Rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyati uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va uslubi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuzilar edi. (bu maktablarda ba'zan rus bolalar ham uchrab qolar edi).

Namangan yaqinida bir qishloqda 6 yil yashagan va o'zbek tilini yaxshi o'rganib olgan V.P.Nalivkin, bu maktabda birinchi bo'lib o'zbek tilini o'qitgan edi. U sinash uchun ochilgan Rus-tuzem maktabining birinchi o'qituvchisi edi. V.P.Nalivkin seminariyada 1890yilgacha dars berdi. Dars chog'ida Nalivkin bo'lajak o'qituvchilarga faqat o'zbek tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki ularda o'lkani o'rganishga ham havas uyg'otgan edi. Seminariyada o'qib chiqqanlar orasida Rus-tuzem maktablarida ishlashga tayyor bo'lgan va bu ishni sevib qolganlar anchagina edi.

1879 yilda Toshkentda Turkiston muallimlar seminariyasi ochildi. Bu seminariya maktablari rus boshlang'ich sinflari uchun o'quvchilarga ona tilidan muallimlar tayyorlab berishi lozim edi. XIX asrning 80 yillari o'rtalaridan boshlab seminariya Rus-tuzem maktablari uchun ham muallimlar tayyorlashga ham kirishdi. Mahalliy tilni o'rganish majburiy qilib qo'yilganligi Toshkentdagi bu seminariyaning xususiyatlaridan biri bo'ldi. Seminariyada V.P.Nalivkin o'zbek tilida dars bera boshlagan birinchi o'qituvchi bo'ldi. 1887 yilda Nalivkin tuzgan lug'at va grammatika risolasi nashr etildi. Bular tilshunoslik tarixida o'zbek tiliga doir birinchi qo'llanma edi.

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Jadidizm (arabcha «jadid» so'zidan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qaramaqarshi turgan oqim, ya'ni «usuli qadim» diniy ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimchilar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi

Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimchilar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o‘lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o‘z faoliyatini davom yettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 5060 yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g‘ijduvonlik domla Fozil, Mo‘minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori yekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o‘zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni kiritadi:

Qur’ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o‘zlari erkin fikr yuritsinlar.

Birovning birovga ko‘rko‘rona yergashishi qat’iy mann qilinsin.

Madrasalarda Qur’oni karim, Hadisi sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o‘tilsin.

Arifmetika, tarix, jo‘g‘rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o‘qishga qarshilik ko‘rsatilmasin.

Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko‘zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo‘lgan o‘sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o‘qitishni shart qilib qo‘ydilar. Biroq qadimchilar va amirning kuchli ta’ziqi natijasida ta’qibga uchraganlar. Uning maslakdoshlaridan ko‘pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va’da berdilar.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlaka chiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiymadaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli yeski tuzum, yeski turmush, yeski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi, ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o‘z taqdirlarini o‘zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo‘yishlari mumkin edi.

Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905yil to'ntarishi sodir bo'ldi. Bu to'ntarishdan maqsad jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyorida katta yermulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokazolar edi. Birinchi rus to'ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyolik taraqqiyparvar ziyolilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo'shildilar. 1907yil Eron burjua to'ntarishi, 1908yil Turkiya burjua to'ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb yetdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan Xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Jadidlar 1906 yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr yettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma'nosi ham «yangi» demakdir.

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo'lgan o'zbekning yagona jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874yil 10 martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tavallud topdi.

Mahmudxo'ja 67 yoshlarida o'qib xatsavod chiqargach, otasi uni qori qilish maqsadida Qur'onni yodlata boshladi. Mahmudxo'ja Qur'onni yod olgach, qorilik bilan qanoatlanmay 15 yoshlaridan tog'asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishdi. Bu yerda u «Qofiya», «Shahri mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar al vakoya», «Hoshiya» va hisob ilmini ham o'rganadi. Mahmudxo'ja o'quvchilar orasida ibratlisi hisoblangan, o'tkir zehni va o'qishga havasi balandlardan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy otasi vafot yetganidan so‘ng o‘qishni tark etib, kasbkorlik qilishga majbur bo‘ladi. Samarqand muzofati «Chashmi ob»da endigina qozi bo‘lgan tog‘asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik xizmatida ishladi. Bu yerda ikki yil xizmat chog‘ida, qozixonona ishlari bilan keng tanishdi. Ish yuritish, huquqqa xos hamda muftilikka tegishli barcha yumushlardan xabardor bo‘ldi. U ikki yildan so‘ng «Qibud» bo‘lisiga o‘tib mirzolik qiladi va tez orada muftilikka ko‘tariladi. 1916yilgacha shu yerda ishlaydi.

Behbudiy makkaga borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘radi, arab tilini o‘rganadi, islom nazariyalari bilan tanishadi. Hajni yetuklik imtihoni deb biladi va nihoyat 27 yoshida Makkada bo‘lib, Hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonunqoidalari, maktabda o‘tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilishi, unga qanday asbobuskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta‘minot masalalari va boshqa ko‘p jihatlarini G‘aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o‘rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta‘minlashda ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxonona, qiroatxonona, o‘z hovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o‘z hovlisiga ko‘chirib keldi.

1918yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho‘rosi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari yetib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog‘ini yanada kengaytiradi. O‘quv rejalari tuzish, yangi darsliklar yaratish, o‘qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarini rivojlantirib yuboradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtarasi tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhali jo‘g‘rofiya umroniy» («Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtarasi jo‘g‘rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Amaliyotchi islom» va hokazo kitoblari darslik sifatida o‘qitilgandi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o‘qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: «Maktab ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqich ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to‘rt yil. Birinchi yilida: forsha va arabcha yozuv hamda o‘qishni o‘rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o‘rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozma o‘qimoqni to‘liq o‘rganganlar. Ikkinchi

yilida: xaftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilida esa Kalomu sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi.

Maktabning ikkinchi bosqichi rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston», turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil arab tili, rus qozixona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab, saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi maktab degan aqidaga amal qilardi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazetasi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Humyat», «Oina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjimon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi matbuot sahifalarida yuzlab maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ushbu maqolalar asosan tahsil va ta'limning taraqqiyotiga bag'ishlanardi. Masalan: «Tahsil oyi», «Ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi xususida», «Majlis imtihon», «Tarix va jo'g'rofiya», «Samarqand kitobxon islomiya», «Samarqand kitobxona va matbaaxona», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadida» kabi chiqishlarida yangi usul maktablari, uning ahamiyati o'qitish tizimlari, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning nafi, ma'rifatga rag'bat, komil insonning tarbiyasi haqidagi muhim ma'rifiy fikrlarni o'qish mumkin edi.

Behbudiy ta'lim va tarbiya hamda uning muammolari to'g'risida boy pub lisistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji

millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat ozodlik erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh yetar», «Yoshlarga murojaat», «Vatan parvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» va boshqalar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohidada katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. «Kitobatul atfol» («Bolalar maktubi») asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan namunalar kiritilgan. Shahodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o'rganishdan ta'lim beradi hamda namunalar ham keltirilgan. Volostnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o'rgatilgan. Yosh va kattalarga mo'ljallangan 36 sahifalik to'plam Respublikamizga davlat maqomi berilgan, mustaqillik qaror topayotgan damlarda bu kitob nazariyma'rifiyigina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'l keladi. Kitobning maqsadi ham shunga qaratilgan.

Behbudiy Turkistonda etishtirilayotgan mahsulotlar arzon baholarda Ovrupo bozorlariga olib ketilayotganidan achinadi. Bizda ham Ovrupo bozorlarida savdosotiq qiladigan mutaxassislarning etishib chiqishlarini istaydi: «Turkiston mevasi... donasi, toshi, tufrog'i... va nemuslari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dollari kelib oz bahoga olib ketar. Mehnatni biz qilarmiz, foydani ular ko'rar». Shuning uchun deydi, Behbudiy: «Ovrupa ila savdo qilaturgon kishi avvalo zamona ilmi o'qimog'i lozim. U millat taraqqiyotining ma'naviyati ham tarbiyasi, ham iqtisodi, ham ma'rifati» deb qaradi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini o'ylar yekan, millatimizning taraqqiyoti borasida turli yo'llarni qidiradi. Boylarga ham murojaat yetdi: «Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, faqir va yetimlarning o'qimog'i uchun vaqf (stipendiyalar) tayin qilur. Butun Turkiston o'n boy yelinda ming so'mdan bersa, 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamonaviy) bir pansionli va nahorli mukammal maktab bino bo'lur, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur». Agar shunday bo'lsaki, o'n yillar orasida bizda yaxshiyaxshi o'qimishli muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar etishib chiqardi, deb umid qiladi.

Behbudiy ijodiy faoliyatidagi bosh masala Turkistonda maorif taraqqiyotidir. U «dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebahra millat, boshqa millatlarga paymol bo‘lur» degan shiorga sodiq harakat qildi.

Mustamlaka Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun yeski maktabni isloh qilishni zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos soldi.

Behbudiyning g‘oyalari milliy pedagogika tarixga qo‘shilgan ulkan hissadir. Uning pedagogik fikrlari faqat u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qiladi.

Turkistonda jadidlar harakatining rahbarlaridan biri Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li Turkiston tarixida milliy maorif va madaniyat, ijtimoiy siyosiy sohada tub burilish yasagan shaxsdir.

U o‘z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon Xalqlari milliyozodlik harakatining Toshkentdagi «Sho‘roi Islomiya», Qo‘qondagi «Turkiston muxtoriyati» tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

Munavvar qori 1901—1904yillarda qirimlik do‘sti Rasm Keshod yordamida Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi, ayni vaqtda maktabda imomlik ham qiladi. 1906yilda esa yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o‘z uyining tashqari hovlisida davom yettiradi, oradan ko‘p vaqt o‘tmay maktab uchun ikki xonalik qo‘shimcha bino qurdiradi. Qisqa muddat ichida bu maktab dovrug‘i ortadi, bolalar soni ko‘payib ketadi. Natijada qori akaga hammahalla bo‘lgan Buvaxon to‘ra Poshshaxon o‘g‘lining tashqi hovlisida maktabning ikki sinfli sho‘basi ochiladi. Bu yerda 1, 2sinflarni bitirgan bolalar o‘qishni Munavvar qori hovlisida davom ettirganlar.

1913—14 o‘quv yilida maktabda yuqori sinflar (5 va 6sinflar) ochila boshlaydi. To‘rtinchi sinfdan rus tili ham o‘quv fani sifatida o‘rgatiladi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o‘zgarish yasab bo‘lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi. Munavvar qori farzandlarining taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas’uliyat borligini ta’kidlaydi. Munavvar qori maktab o‘qituvchilarining qiyofasini tavsiflab, aksar o‘qituvchilar — badxulq, zolim, bolalarni kaltaklashadi, ya’ni «Muallim afandi qo‘lida zo‘r bir tayoq, qaysi bolani boshi harakatdan qolsa, ushbu tayoq shu bolani boshida o‘lur. Ammo o‘qug‘on o‘qumag‘on ila hech kimni ishi yo‘q. Boshni qimirlatib o‘tursa, kifoya qilur. Hattoki o‘tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarni tayoqini ostida vafot qilmoq ham voqe’ o‘ldi. Bu tariqa zolim va badxulq, johil muallimlarni tarbiyasida o‘skan bolalardan nima umid qilmoq kerak»... Munavvar qori o‘qitishning bunday yaramas usuli qanday oqibatlariga olib kelishi haqida

kuyunib yozadi: «... boshqa viloyatlarda xat bilmayturgʻon kishi yuzdin oʻn boʻlsa, Turkiston viloyatida yuzdin toʻqsondir». Bunga bois maktabda oʻqitiladigan dars va kitoblarning usul (metodika) jihatidan maqsadga muvofiq emasligi, muallimlarni pedagogik talablarga javob berolmasligi kabilardir deydi.

Munavvar qori maktab tartib qoidalariga qatʻiy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qoʻpol muomalada boʻlishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan. U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh juda demokratik va insonparvarlik ruhida boʻlishi lozim, deydi.

Munavvar qori ziyoli yoshlarni chet yelga yuborishni, u yerda ilmfanni oʻrganishni targʻib qiladi. Masalan, u 1916yili Toshkentda yigʻilishda nutq soʻzlab shunday deydi: «Oʻzbek ziyoli bolalarining Germaniyaga yuborib oʻqitishga juda muhtojmiz, bolalar oʻqib, ilm tahsil olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar».

Munavvar qori 1909yili Ubaydulla Xoʻjaev, Abdulla Avloniy, Toshpoʻlat bek Norboʻtabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilarga, oʻquvchilarga yordam koʻrsatadi va bu bilan cheklanmaydi, u Rossiya va Turkiyadagi oliy oʻquv yurtlariga talabalar yuborish bilan ham shugʻullandi. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda shu jamiyatning yordami bilan Mirmuhsin Shermuhammedov Ufadagi «Oliya» madrasasida oʻqigan. Munavvar qori 1906yil sentyabrda «Xurshid» jurnalini nashr yettirib, oʻzi muharrirlik qiladi. Bu jurnal oʻzbek Xalqining koʻzini ochishga, fikriy uygʻonishga, oʻz haququqini tanishiga xizmat qilgani uchun oq poshsho malaylari tomonidan tezda yopib qoʻyildi. Keyinroq u «Najod», «Surat», «Haqiqat», «Turon» gazetalarida bosh muharrir boʻlib ishladi. U matbuotni yelni gʻaflat uyqusidan uygʻotuvchi buyuk kuch, madaniyat va maʼrifatga chorlovchi qudratli vosita, haqiqat koʻzgusi, deb qaradi. U Turkistonning mustamlakaga aylanishi, millatning inqirozga uchrashi sabablarini ochib beradi: «Bu zamondan yuz yildan ziyodroq muqaddam zamondan boshlab ohistaohista millat devorlarining har tarafiga rahna paydo boʻldi. Munga sabab ulamo va ulamolarimizning oʻz nafslari rioyasida harakat qilmoqlari boʻldi. Podshoh va xonlarimiz boʻlsa, millatga qilgan xizmatlari tanho xotin olmoq va kuchuk urushtirmoq va begʻayrat va behaqqoniyat dindor kishilarni badargʻa qilmoq va tutib oʻldirmoq boʻldi. Millat nima va shariyat nima bilmadilar. Shuning uchun millat devorining rahnalari tobora ziyoda boʻldi».

Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, u ko'p ulug' adiblarning asarini mutolaa qilgan. Munavvar qorining yangi usul maktabida, 1908 yil sentyabrida o'quvchilarning imtihoni bo'lib, imtihonga o'z bolalarining yutuqlaridan quvonish uchun ota onlar tashrif buyurishadi. Yig'inda 200 dan ortiq odam yig'ilganligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Tartibni nazorat qilib turish uchun kelgan mirshab va Shayxontohur mahalla oqsoqoli qatnashgan. Yangi usul maktablariga, umuman olganda, salbiy munosabatda bo'lgan, ularning faoliyatini kuzatib, nazorat qilib turgan, Turkiston chor hukumatining ma'murlaridan biri N. Sayfi majburan tan olib «Ular bolalarga foydali ma'lumotlar va bilimlar bermoqda va ularning ongini o'stirmoqda. Yangi usul maktablari o'quvchilari o'zlarining fahmli, ongli ko'rinishi bilan jur'atsiz, qo'rqqoq, tortinchoq yeski maktab bolalaridan, ayniqsa, Toshkentda ajralib turadi».

O'sha davr jadid maktablarida dunyoviy fanlarni o'qitishga katta e'tibor berilgan. To'rt yillik yangi usuli jadid maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, odobnoma, arab, fors tillari o'qitilgan. Munavvar qori o'zi ochgan maktablar uchun 1910yilda o'quv dasturi tuzgan. Bu dastur ixcham va namunaviy bo'lganligi uchun ko'pchilik jadid maktablari o'qituvchilari undan o'z ish faoliyatlarida foydalanganlar. Dasturda har bir sinf uchun o'qitiladigan fanlarning haftalik soatlari alohida bo'lib ko'rsatib berilgan. Dasturdan jadid maktablarining yana bir afzallik tomoni maktabda o'qitish, fanlarni o'zlashtirish ning tezlashtirilganligi ko'rinadi. 4 yillik boshlang'ich jadid maktablaridan 56 yil yeski maktabda o'qitilgan asosiy diniy fanlar o'rganilgan va qo'shimcha ikki baravar ko'p miqdordagi dunyoviy darslar o'qitilgan. Munavvar qori jadid maktablari o'quvchilari uchun diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha ko'plab darsliklar yozgan. Dasturda ko'rsatilgan darsliklardan tashqari «Sabzazor» (She'riy to'plam), «Yer yuzi» (Jug'rofiya), va «Tarixi islomiya» nomli darsliklarni ham tayyorlagan va ular maktablarda o'qitilgan.

Umuman, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqlol uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida shuhrat qozondi.

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek Xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmandto'quvchi oilasida dunyoga keldi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiysiyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi. Butun faoliyati davrida u o'z Xalqiga xizmat qiladigan komil insonni etishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy o'zbek xalqning san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagog hisoblanadi.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv asbobijozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyimkechak, oziqovqat, daftarqalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochdi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinfdars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan yeski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo Xalqlari madaniyatini, ilmfanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z Xalqini ilmli, madaniyatli bo'lishga chaqirdi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o'ziga xos o'ringa ega; «Birinchi muallim» 1917yil to'ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» ilmaxloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatlardan qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosir Hisravning «Saodatnoma», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ulqulub», Ahmad Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari shaklidagi o‘ziga xos tarbiyaviy asardir.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur», — deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega.

O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya’ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta’rif berdi. Tabiiy bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badan tarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4. «Axloq tarbiyasi» haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi.

«Tarbiyaning zamoni» bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: otaona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi.

«Alhosil tarbiya bizlar uchun yo hayotyo mamot, yo najotyo halokat, yo saodatyo falokat masalasidir» deb uqtiradi, Abdulla Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir Xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan — uy, bog‘cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog‘lom qilib o‘stirishda otaonalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o‘qituvchilarning faoliyatlariga alohida e’tibor beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur»¹.

Ayni zamonda muallif ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq yekanini ham ta’kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi birbiridan ayrilmaydurgan, birining vujudibiriga boylangan jon ila tan kabidur» deydi.

«Aql, deydi Avloniy, — insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. ...insonni hayvonlardan so‘z va aql ila ayir mishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida o‘ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergan insonlarning aqlidur». Avloniy insonga va uning aqliga ana shunday yuksak baho beradi. «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir. Agar aqlingni qo‘li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo‘llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko‘p bo‘lsa, bahosi arzon bo‘lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur».

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilib ilm to‘g‘risida bunday deydi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...». Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, «Bizlarni jaholat, qorong‘ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosi butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘lidir».

Abdulla Avloniy o‘tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasbhunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to‘g‘ri kelmaydigan ishlar bilan shug‘ullanayotganini ko‘rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo‘ymaslikka undaydi. Boylikni o‘tkinchi bulutga o‘xshatadi.

Avloniy intizomni inson xarakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi manba, deb biladi hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta’kidlaydi: «Intizom qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar. Har bir millatning taraqqiysi va toliysi ishlarini vaqtida, nizomdan chiqarmay tartibi ila yuritilmoqg‘a bog‘liqdur... Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o‘zlari parishon bo‘lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari yerda, o‘zlari tinch va rohatda o‘tkarurlar»¹.

Vatan tuyg‘usi eng insoniy va eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas, uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq u bilan faxrlanmoq kerak. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi:

«Har bir kishining tug‘ulib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sg‘on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan histuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan — uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas...

Biz turkustonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi, arablar ArAvestonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, yeskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi», — deydi Avloniy.

Abdulla Avloniy 1920yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o‘lka bilim yurtida, so‘ngra xotinqizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U Xalq maorif institutida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1924—29yillarda O‘rta Osiyo Davlat universitetida (SAGU) va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qilish bilan birga ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek Xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab va pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Abduqodir Shakuriy 1875yilda Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ildi.

Shakuriy yeski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o'qishga kirdi. Shakuriy o'zbek va tojik tillarida yozgan tarjimai hollarida rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o'qitish usullari bilan tanishligini qayd qiladi. Shundan keyin yosh muallimda o'z Xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo'ladi.

Shakuriy do'stlari yordamida Qo'qon shahriga boradi va u yerda o'n kun davomida yangi maktabdagi o'qisho'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, bu yangi usullarni o'zi ochgan maktabda qo'llay boshlaydi.

Shakuriy dastlab maktabda o'quv jihozlarini o'zgartiradi. U ustalarga parta va doskalar buyuradi. Shu asosda birinchi marta o'z qishlog'i Rajabaminda 1901 yilning kuzida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. U davrlarda darslik va qo'llanmalar bo'lmaganligi sababli Shakuriy harflarni doskaga yozib qo'yar, o'quvchilar esa shuni o'z daftarlariga ko'chirib yozar edilar. Shuningdek, u qisman tatar tilida yozilgan kitoblardan ham foydalanar edi.

Shakuriy o'z xotiralarida tatar pedagogi Abdulxodiy Maqsudiyning «Muallimi avval», «Muallimi soniy» kabi darsliklaridan o'z vaqtida foydalanganligini ko'p martaba yeslaydi.

Chor hukumatining mahalliy amaldorlari bu maktabning ochilishiga rasman qarshi bo'lib, uning o'quv dasturini qattiq nazorat qilardilar. Ular maktabda o'tiladigan diniy darsliklarga hech qanday to'sqinlik qilmas, ammo dunyoviy fanning o'qitilishidan tashvishlanar edilar.

Shogirdlarining aytishicha, Shakuriy qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan yagona globusni faqat maxsus vaqtda sinfga olib kirar, boshqa vaqtda esa yashirib qo'yar yekan.

Shakuriy maktabida tojik va o'zbek bolalari birga o'qitilar edi. Bu yerda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o'zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar o'qitilar edi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni ozarbayjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham o'qitilar edi. Shakuriyning tarjimai holidan aytilishicha, bu maktabning to'liq dasturi bo'lgan.

U vaqtlarda maktablarda Qur'oni karim o'qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida ham diniy kitoblar o'qitilar edi, chunki hech bir otaona Qur'on yoki biror diniy kitob o'qitilmagan

maktabga bolalarini bermas edi. Shuning uchun maktablarda «Haftiyak» ham asosiy o‘qish kitoblaridan biri hisoblanar edi.

Tatar pedagogi Maqsudiy o‘z maktabi uchun darsliklar tuzganda, arab tili qoidalari va alfavitini o‘qitishga alohida e’tibor bergan. Shakuriy ham o‘z maktabida bunga rioya qilgandi. O‘qitishdagi bu usul yeski maktablardagi o‘qitish usullariga qaraganda savod chiqarishni ancha engillashtirar edi.

Shakuriy o‘z o‘quvchilar uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u otaonalar oldida o‘quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirar edi, otaonalar esa o‘z bolalarining qisqa muddat ichida xatsavodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma’lumotga ega bo‘lganini ko‘rib hayratlanardilar.

Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, O‘rta Osiyodagi boshqa ma’rifatparvar kishilarning diqqatini jalb yetdi.

Jumladan, o‘zbek adabiyotining asoschisi, buyuk shoir, dramaturg va pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktab bilan juda qiziqqan. U 1909 yilda Shakuriy ochgan maktabini ko‘rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o‘qish o‘qitish tartibi va imtihon natijalari Hamzada yaxshi taassurot qoldiradi. Hamza va Shakuriy birbirlari bilan do‘stlashib, ko‘p yillar davomida xat yozishib turadilar.

Shuni qayd etish kerakki, Shakuriy faqat o‘qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o‘z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o‘z mablag‘lari hisobiga nashr qildirgan. Chunki, tojik va o‘zbek bolalarini tatar tilida yozilgan darsliklar bilan o‘qitish katta qiyinchiliklar tug‘dirar, bu darsliklar bolalar uchun uncha tushunarli emas edi. Shuning uchun, u o‘quvchilarga ularning ona tilida darsliklar yaratish zarur, deb hisoblardi.

Shunday bir sharoitda Shakuriy bolalarning o‘z ona tilida o‘qish kitoblari, darsliklar yaratish zaruriyatini yaxshi tushunadi. U bolaning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma’lumot berishni ko‘zda tutib, ana shunday darsliklar tuzishga kirishadi. Birinchi navbatda, alifbeni Shakuriyning o‘zi tuzdi. «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbariyati»), deb atalgan bu kitob yaxshi qog‘ozda nasta’liq xati bilan yozilgan edi. Shakuriyning shogirdi, yozuvchi Rahim Hoshimning aytishiga qaraganda, bu kitobda so‘zlar bo‘g‘inlarga ajratib ko‘rsatilgan, kitob oxirida o‘qish uchun kichikkichik material berilgan yekan. Shakuriy ko‘p yillik pedagog faoliyati natijasida bolalarni o‘qitishda «tovushharf» metodi (har bir tovushni alohida harf

bilan yozish)ning qulay va oson yekanligini aniqladi va 1913 yilda uning rahbarligida o'z shogirdlaridan va Samarqandning mashhur pedagoglaridan biri Ismatulla Rahmatullaev tovushharf usuli asosida yangi alifbe tuzdi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilindi. Bu kitob arab harfida tojik tilida yozilgan bo'lib, u ko'p yillar davomida savod chiqarishda eng yaxshi o'quv qo'llanmasi sifatida qo'llanib kelindi. Kitobning kirish qismida tez va osonlik bilan savodli bo'lish masalasiga oid metodik maslahatlar beriladi.

«Alifbe ta'limi» Ismatulla Rahmatullaevning 10—12 yillik ijodiy ishlari va uning ustози Abduqodir Shakuriyning ko'p yillik amaliy faoliyatining natijasida yaratildi. Ular ko'p yillar davomida boshlang'ich ta'limning turlicha metodlarini qo'llash, o'z tajribalari, shuningdek yangi usuldagi o'qisho'qitish usullari va ko'pdanko'p alifbe kitoblarini o'rganish, umumlashtirish asosida bu kitobni tuzdilar. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, taxminan 90 ta dars uchun mo'ljallangan.

Shakuriy tomonidan 1907yilda yozilgan ikkinchi kitob «Jome' ul hikoyat» («Hikoyalar to'plarni»)dir. U qayta tuzatilib, to'ldirilib, 1911yilda ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang'ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xresto matiyadir.

Yetmish ikki betli bu kitobning matni nafis qog'ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 ta kichikkichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 ta she'riy parcha berilgan.

Kitobning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan ibortaki, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob «Zubdat ul ash'or» to'plarni bo'lib, unda ko'p shoirlarning she'rlari berilgan.

Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi she'rda shunday deyiladi:

— Ey muallim, maktabing taraqqiyot topib, sernur bo'lsin, yaxshi noming to abad dunyoda mashhur bo'lsin. G'ayrat qil, toki biz olimu dono bo'laylik, axir, bir savtiya usulining sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil. Har fandan bizga o'rgat, biz bahramand bo'lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta'nahaqorat yetsalar ham g'am yema. Albatta, dushmanlar sharmsor bo'lurlar!

O'sha davrdagi qiyinchilik va to'sqinliklarga qaramay, Xalqning bu sodiq do'sti, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy butun kuchquvvatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga sarf qildi, katta g'ayrat, zo'r havas bilan yangi usul asosida o'qisho'rgatish tartiblarini o'rgandi, savodga o'rgatishning eng qulay va oson usullarini tanlab oldi, yangi usul maktablari uchun darslik va qo'llanmalar tuzib nashr qildirdi.

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o'z rahbarligida xotini muallimalik qilar edi. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlaydi.

Demak, u Samarqandda yangi usuldagi maktabning targ'ibotchi va tashkilotchilaridan biri edi. Bu ishda u hech qanday moddiy manfaatni ko'zda tutmas va ayni choqda hech kim unga moddiy yordam bermas edi.

Abduqodir Shakuriy 1917 yil to'ntarishiga qadar o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullandi. 1917 yilda Samarqand shahrining bir guruh ilg'or kishilari A.Shakuriyning pedagogik faoliyatining 15 yilligini nishonladilar.

1921 yilda Samarqand shahridagi 13maktabga mudir qilib tayinlandi. U bolalarni tarbiyalash, o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdi, ko'p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi vazifalarida ishladi.

Samarqand maktablariga Shakuriy birinchi bo'lib, mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

1923-yilning boshlarida «Pravda» gazetasi mamlakatimiz bo'yicha eng namunali ilg'or maktab hamda mohir va tajribali o'qituvchilar uchun tanlov ye'lon qildi. 1923yilning 8- iyulida gazetada shu tanlov natijalari ye'lon qilinadi. Ana shu o'qituvchilar tarkibida respublikadagi maktab o'qituvchilaridan A.Shakuriy bor edi. Boshqa ilg'or o'qituvchilar qatorida uning nomi ham «Pravda» gazetasining qizil doskasiga kiritiladi hamda pul mukofoti topshiriladi va Shakuriy haqida bir yaxshi maqola e'lon qilinadi.

Bundan ko'rinadiki, ma'rifatparvar pedagog Shakuriy yangi usuldagi maktablar tashkil qilishda, o'qisho'qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o'qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab etishtirishda xizmatlari juda ko'p bo'lgan va gazeta tahririyati tomonidan yuqori baholangan.

1925 yilda A.Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o‘z mablag‘lari hisobiga to‘rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi.



Mavzuni mustahkomlovchi savol va topshiriqlar.

1. Pedagogika ta’lumotlari tarixi mavzusidan foydalanib klaster metodi orqali darvlashtiring?
2. Pedagogik g‘oyalarning shakllanishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Pedagogika taxiy davrlashtirishni T-jadval metodi oqrali oritib bering?
4. “Avesto” va zardushtilik davridagi ta’lim tarbiya haqida nima deya olasiz?
5. Sharq uyg‘onish davri allomlarining ilmiy merosini qiyosiy tahlil qilib bering?
6. Amir temur va temuriylar davridagi ta’lim haqida esse yozing?
7. XVII-XIX asr ta’lim tarbiya tizimi haqida so‘zlab bering?
8. Rus Bosqini arafasida xonliklare va amirlikdagi ta’lim, maktab, ilm-fan ahvoli haqida taqdimot tayyorlang?
9. Rus tuzem maktablari va ularni ahvoli haqida so‘zlab bering?
10. Jadid ma’rifatparvarlarining ta’limtarbiya haqida qarashlarini qiyosiy tahlil qilib bering?



Mavzuga doir testlar

- 1. Pedagogika tarixi fani nimani o‘rgandi?**
 - a) Qadimdan hozirgacha tarbiya, maktab, pedagogika nazariyati taraqqiyotini
 - b) Jamiyatdagi ma’rifatni
 - c) Ta’lim dasturlarini
 - d) Fan va madaniyat tarixini
- 2. Eng qadimgi madaniy yodgorliklarni o‘rganishda tayaniladigan uch asosiy manba?**
 - a) Xalq og‘zaki ijodi ashyolari
 - b) Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi
 - c) Arxeologik topilmalar
 - d) Barcha javoblar to‘g‘ri
- 3. Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari?**

- a. Tarbiya yagona jarayon.
- b. 6 yoshdan bolani muallimga topshirish.
- c. Bolaga jamoada ta'lim berish afzalligi.
- d. Hamma javoblar to'g'ri


4. Alisher Navoiyning qaysi asarida pedagogik qarashlar haqida ko'proq yoritilgan?

- a. "Farhod Ba Shirin"
- b. "Mahbub-ul-qulub"
- c. "Sabbai Sayyor"
- d. "Hayratul-Abror"

5. Abdulxodiy Maqsudiyning qalamiga mansub darsliklarini belgilang?

- a) «Mual limi avval»,
- b) «Muallimi soniy»
- c) Odoobi avval
- d) A va b javoblar to'g'ri

IX-BOB. JAHON PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI



Tarixiy taraqqiyot, Yunoniston ta'limi, Afina ta'limi, Sparta ta'limi, diniy ta'lim, dunyoviy bilimlar, pedagogik fikrlar, pedagogik fanlar, dunyoviy fanlar, didaktik asarlar, universitet, universitet ta'lim jarayoni, rivoyatlar, sinf dar tizimi, Yan Amos Komenskiy, pedagog olimlar, ta'lim tizimi, jahon ta'lim tizimi, xalqaro tashkilotlar, Yunesko, Yunesef,

9.1 Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida tarbiya va maktab.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy tuzum quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi hamda moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda katta hissasini qo'shdilar.

Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va Xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Masalan, Xitoyda qog'oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etildi, Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topildi.

Eramiz boshlanishidan oldin O'rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurildi. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo'li» ochildi. Natijada O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta'sir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi.

Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda yerta rivojlandi.

Yunoniston uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo'tabar shaharlari Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (bosh shahri Afina)dir. Bularning har qaysida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo'ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta)da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250 mingdan ko'proq aholiga hukmronlik qilardi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog'lom bo'lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilar edi. Ta'limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablari-dagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi:

«O'qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va engish ilmini o'rgatishni ko'zda tutar edi».

Spartada ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da, ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday qulni oldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yol bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar, bolalarni savol-javob jarayonida aniq va lo'nda javob berishga o'rgatgan. Yigitlar 18—20 yoshga yetganda «Yefebalar» o'spirinlar guruhida harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki yerkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo'riqlab, qullarni itoatda saqlashini ta'minlar hatto jangga ham qatnashardilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar, qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada yeramizdan ilgarigi V—IV asrlarda madaniyat gullab yashnadi. Fan, me'morchilik va haykaltaroshlik rivoj topdi.

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini, Afinada eng ko'rkam va barkamol inson(ideal) hisoblangan.

Bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zgor ishlariga o'rgatilar, chunki xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas edi.

Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha «grammatist» (savod o'rgatish ma'nosida) yoki «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu xususiy maktablarda o'qish pullik bo'lgan. Shuning uchun kamxarj fuqarolarning bolalari ushbu maktablarda ta'lim ololmagan.

Maktablarda «didaskol» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar. (Men o'qitaman, degan ma'nodagi «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika» — ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borar edi, bunday qul pedagog deb atalgan («pays» - bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so'zlardan olingan). Grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilar edi, o'qishda harflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalangan va ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblagan. Kifarist maktabida adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklomatsiyalar o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin palestra («kurash maktabi») deb atalgan o'quv yurtiga o'tar, bu yerda ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanardilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurashish, disk va nayza uloqtirish, suvda suzish kabilar. Palestrada o'qish tekin bolgani uchun yoshlarning ko'pchiligi shu yerda o'qish bilan cheklanib qolar edi. Badavlatroq oiladan bolganlari esa palestrani tugatgach gimnasiyga (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilar, tahsilni tugatganlar davlat boshqaruviha qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo'lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bolgan yoshlar Yefeblar qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirardilar.

Aholining ko'pchilik qismi bolalarni maktablarda o'qita olmaganligi sabab ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor ota-onalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Bu davlat tomonidan qonunlashtirilib qo'yilib bechorahol

tabaqaga mansub ota-onalar o'z bolalariga biror kasbni o'rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to'g'risida moddiy g'amxo'rlik qilishdan ozod etilgan.

Qadimgi Yunonistonda pedagogik nazariyalarning tug'ilishi

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining tug'ilishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot(Sakrat). (eramizdan avvalgi 469-399-yillar) O'zining ijtimoiy kehb chiqishiga qaramay (Suqrot haykaltaroshning o'g'li edi) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o'z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyu(mlarning fizik holatini bilib bo'lmaydi, odamlar faqat o'zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar, faylasuf bo'hshi bilan birga ajoyib notiq ham edi. Keng maydonlarda so'zga chiqar, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishga undar edi. Bu «Suqrot metodi»(Yevristik) nomi bilan fanga kirgan.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. Baxs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb uqtiradi faylasuf.

Aristotelning yozishicha, Suqrot mavjud haqiqatdan umumiy tushunchalarga o'tish haqidagi induktiv ta'limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlash haqidagi ta'limotni yaratgan. Suqrotning yetika sohasidagi asosiy tezislari quyidagilardan iborat: yezgulik bilimdir, donishmandlik, ya'ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning ta'biricha, aql bilan axloq o'rtasida ziddiyat bo'hshi mumkin emas. Ulug' faylasuf tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qollarida bo'lmog'i kerak deydi.

Suqrot davlat boshqaruvining monarxiya, tiraniya, aristokratiya, pohtiya va demokratiya kabi shakllarini tanqid qilgani uchun ayblanib, o'hm jazosiga hukm qilinch o'z ixtiyori bilan zahar ichgan.

Aflotun(Platon) eramizdan ilgari (424-347-yillari) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur - idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob'ektiv idealizm nazariyasining asoschisi «g'oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Aflotun olamni hodisalar dunyosi va g'oyalar dunyosi deb ikkiga boldi. Uning fikricha g'oyalar abadiy va o'zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g'oyalar olarnining soyasidir, xolos.

Afina aristokratiyasining namoyondasi bo'lgan Aflotun, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil etishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar. Uning tasavuridagi ideal davlatda qullar ham hunarmandlar ham huquqsizdirlar, qanoat va itoatkorlik fazilatlariga xos deb ta'kidlaydi u.

Aflotun - davlat tomonidan tashkil etilmog'i va hukmron guruhlarning

- faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim. Aflotun o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Aflotunning fikricha, bolalar uch yoshdan 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalar-da turh o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari lozim. Aflotun o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o'tadi. U bolalarga yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Aflotun xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi.

Umuman Aflotun tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Aflotun g'oyasiga ko'ra bo'lajak faylasuflar va jangchilarning «jismoniy mehnat to'g'risida xato o'ylashlari» ham taqiqlab qo'yilgan, shuningdek qullarning bolalarini o'qitmagan ma'qul.

Biroq, Aflotun maktabgacha tarbiya to'g'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi to'g'risida bir qancha muhim fikrlarni aytib, ijobiy o'mak namunasida tarbiyalashni talab qilgan.

Aflotun o'zining axloqiy g'oyalari ilgari surar yekan, ustozi Suqrotga yergashib, ob'ektiv idealizm yo'lini tutadi. Aflotun yetikasining asosiy nazariy tayanch nuqtasi — inson ongi chegaralaridan tashqarida bo'lgan va mangulik g'oyalari olarnida xudoning doimiy nazorati ostida bo'ladigan yagona o'zgarmas «yaxshilik» g'oyasidir. Uning fikricha, yerdagi yaxshiliklarning hamma turi o'zida me'yor, go'zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan ohy «yaxshilik g'oyasi»ning inikosigina bo'lishi mumkin. Odamning axloqiy hayoti shu oliy «yaxshilik g'oyasi»ga intilishga to'la bo'ysungan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat ohy «yaxshilik» g'oyasiga intilishdagina xulqning namunasini ko'rish mumkin.

Platonning shogirdi bolgan, makedoniyalik Iskandami tarbiyalagan, qadimgi Gresiyaning eng yirik ideahst-faylasufi va olimi Arastuning pedagogika nazariyasini yaratishdagi va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan.

Arastu(Aristotel) (yeramizdan avvalgi 384-322-yillar)da yashagan. Aflotunning shogirdi, makedoniyalik Iskandarning ustozi. Qadimgi Yunonistonning yirik ideahst-faylasufi va olimi.

Aflotun olamni g'oyalar va hodisalar dunyosiga bolgan boisa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g'oyani shaklga o'xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko'rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo'hshi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl oiganidan so'nggina narsa boiib qoladi. Chunonchi, marmaming o'zi bir moddadir, ammo unga ma'lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin.

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon, Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta'siri ostida sodir bo'lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o'zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta'kidlashicha bilishdagi xatolar noto'g'ri tafakkurdan, ya'ni hissiy tajribani noto'g'ri talqin qilishdan kehb chiqadi.

Arastu shakl bilan mazmunning birligini ko'rsatib o'tdi, taraqqiyot g'oyasini olg'a surdi.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko'payishda namoyon boladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bolgan jon, o'simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur

yoki bilish xislatlariga ega. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bolganligi sabab, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya - jismoniy, axloqiy va aqhy tarbiyalardir. Tarbiyaning maqsadi aql va irodani kamol toptirishdan iborat. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bolganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati mavjud va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi.

Qadimgi Rim — qad. davlat. Rivoyatga ko'ra, R. shahriga aka-uka Romul va Rem tomonidan miloddan avvalgi 754/753 yilda asos solingan. Rivoyatlarda 8 — 6-asrlarda hukmronlik qilgan 7 podshoh qayd etilgan. So'nggi podshoh Tarkviniy Takabbur quvilgach, respublika tuzumi o'rnatilgan (miloddan avvalgi 510/509 yil). Miloddan avvalgi 3-asr o'rtalariga kelib, butun Italiya hududini tobe yetgan R. yirik davlatga aylangan. U O'rta dengiz havzasida gegemon bo'lishga intilgan, bu R.ni Karfagen bilan to'qnashuviga sabab bo'lgan. Puni urushlaritsan so'ng miloddan avvalgi 146 yil Karfagen ustidan g'alaba qozongan R., O'rta dengiz havzasining eng yirik davlatiga aylangan. Yirik yer egaligi va qulchilikning rivojlanishi dehqonlar ommasini xonavayron bo'lishiga, qishloq kambag'allari, qullar qo'zg'olonining avj olishiga (Spartak qo'zg'oloni) sabab bo'lgan; Rim shahri ko'chalarida fuqarolar urushi boshlanib ketish xavfi tug'ilgan. R.ning ijtimoiy-siyosiy hayotida miloddan avvalgi 1-asrda armiya va uning yo'l boshchilari (L. K. Sulla, G. Mariy, G. Pompei va boshqalar) katta rol o'ynay boshlaganlar. 49—45 yillardagi fuqarolar urushi davrida Sezar davlatning mutlaq hukmdoriga aylangan; 44 yil respublika tarafdorlarining fitnasi natijasida Sezar o'ldirilgan. Fuqarolar urushining yangi davri Oktavian g'alabasi bilan tugagan. U miloddan avvalgi 27 yil senatdan Avgust unvonini olgan. Avgust hukmronligi davridan boshlab R. imperiyaga aylangan. Milodiy 2-asrda Trayan davrida imperiya sarhadlari o'zining yuqori cho'qqisiga yetgan. Bosib olingan yerlarda mahalliy aholining qo'zg'olonlari, ayni vaqtda varvarlarning mamlakat xududiga bostirib kirishlari bir qancha provinsiyalarni mustaqil bo'lib ajralib chiqishiga va imperiyani Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketishiga (395) olib kelgan. 476 yil german yollanma askarlari sardori Odoakr G'arbiy Rim imperiyasining so'nggi imperatori Romul Avgustulni taxtdan ag'dargan. Sharqiy Rim imperiyasi Vizantiya nomi bilan yana 1000-yilga yaqin mavjud bo'lgan.

Rimda bolalar aksariyati oilada tarbiyalangan. Miloddan avvalgi 5-asrda ibtidoiy maktablar vujudga kelgan. Bolalar maktabga 7 yoshdan

qabul qilinib, 4—5 yil o‘qitilgan. Uyda va maktabda lotin, yunon tillari, yozish, o‘qish, hisob o‘rganilgan. Bolalar dastlab xonadonlarda o‘qituvchi yollab o‘qitilgan, keyinchalik maktablarda ta’lim berishning yangi tizimi shakllandi. Miloddan avvalgi 2-asrning 60-yillarida grammatika, ritorika maktablari vujudga keldi. Milodiy 1-asrda qizlar uchun grammatika maktablari tashkil topdi. Ritorika maktablarida 13—19 yoshdagi bolalar o‘qitildi. Bu maktablar, asosan, notiqlik san’atini o‘rgatar edi. Maktablarda huquq, falsafa, tarix, she’riyatdan ta’lim berilar edi. 2-asrdan huquqshunoslik guruhlarini tashkil topdi. Imperator Mark Avreliy davrida (2-asr) Afinada oliy maktablar tashkil etildi. Bunday maktablar keyinchalik Rimning g‘arbiy viloyatlarida ham vujudga keddi. Respublika davrida ta’lim xususiy tarzda olib borildi, unga davlat aralashmadi, biroq imperiya davrida u nazorat ostiga olindi. O‘qituvchilar davlat xizmatchilari bo‘lib, maosh oladigan bo‘ldilar. 362 yildan boshlab o‘qituvchilarni imperator tasdiqladi. Madaniyati. Rim shahardavlatdan yirik O‘rta dengiz davlatiga aylanguncha murakkab taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Afina, Iskandariya, Pergam va boshqa yunon ilmiy va madaniy markazlar ham shu davlat tarkibiga kirib, etrusk, yunon, shuningdek, Ellinizm davri madaniyatlari ta’sirida boyidi.

Ellinizm davri Yunoniston falsafasi ta’sirida rivoj topdi. Rim falsafasining ilk davri polis mafkurasining inqirozi bilan bog‘liq bo‘lib, bu paytlarda tafakkur din va mifologiyadan halos bo‘ldi (miloddan avvalgi 3—1-asrlar). Kar Lukretsiy (miloddan avvalgi 99 —55) ning „Narsalarning tabiati haqida“ poemasi Epikur (miloddan avvalgi 342—270) ta’limotini yokladi, atomistik materializmni she’riy shaklda tavsifladi, mayda zarralar — atomlardan tashkil topgan olam hamisha harakatda deb ta’kidladi, uning bu asari materializm rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Imperiya vujudga kelgan davr (miloddan avvalgi 1-asr — milodiy 1-asr)da imperiya va imperator shaxsiyati ilohiylashtiriddi, 4— 5-asr faylasuflari Platon va Aristotel asarlarini tashviq qildilar.

Rim respublikasi davrining lotin ilmiy adabiyoti yodgorliklari juda ham kam. Miloddan avvalgi 1-asrda Aristotel asarlariga sharxlar yaratilgan. 1-asr oxirlarida astronomiya va matematikaga qiziqish ortgan. Ptolemeyning mashhur „Almagest“ asarida (2-asr) olamning geotsentrik sistemasi bayon etildi. Sharqda astrologiya keng tarqalgan. Diafantning „Arifmetika“ (taxminan 3-asr), 3—4-asrlarda Papp Aleksandriyskiyning „Matematika to‘plami“ asarlari mashhur bo‘lgan. Ilmiy texnika adabiyotlari, asosan, qishloq xo‘jaligi, veterinariya, harbiy texnikaga

bagishlandi. Miloddan avvalgi 1-asr oxirida Vitruviyning „Arxitektura haqida 10 kitob“ asari shuhrat qozondi. Harbiy texnika sohasidagi boy tajriba: lager va qal’alar qurish masalalari adabiyotlarda yoritildi. Tibbiyot bilan bog‘liq ravishda botanika rivoj topdi. Dioskoridning 600 dorivor o‘simlik haqidagi bayoni o‘rta asrlarda ham keng foydalaniddi. Vrach, anatom, fiziolog Galen butun Yevropada tibbiyot rivojida katta rol o‘ynadi. Ilmiy adabiyotlar qiziqarli qilib badiiy yozilganligi bilan ham diqqatga sazovor. R. davlatining hududiy o‘sishi miloddan avvalgi 3—1-asrlarda geogr. bilimlari taraqqiyotiga imkon berdi. Imperator Avgust davrida jahonning katta geografik xaritasi ishlandi. Miloddan avvalgi 37 yilda jamoat kutubxonasi tashkil qilindi, imperiyaning oxirgi asrida ularning soni 28 taga yetdi.

9.2 G‘arb Uyg‘onish davrida ta‘lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

G‘arbiy Yevropada XII— XIII asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharlarning o‘shishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shahaming asosiy aholsini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o‘z bolalariga amaliy faohyat uchun zarur bo‘lgan bihm berishni istar edilar. Ular o‘sha davrlarda cherkov maktablaridan qanoatlanmadilar. Hunarmandlar sexlarga uyushib, o‘zlarining sex maktablarini ocha boshladilar, hunarmandlarning bolalari bunda o‘qish, yozish, hisob va dindan saboq olar, uyga qaytgach otalaridan hunar o‘rganar edi. Gildiyalarga uyushgan savdogarlar ham o‘zlarining gildiya maktablarini ochib bolalariga dastur asosida bihm bera boshladilar. Keyinroq sex va gildiya maktablari magistrat maktablariga, ya’ni shahar boshqarmasi (magistrat) harajatidagi maktablarga aylandi.

Bu maktablarning mudir va o‘qituvchilari tegishli sex, gildiya va magistratura tomonidan tayinlanardilar. Ta‘lim pullik bo‘lgan ushbu maktablar cherkovga hisobot bermasdi.

Bir talay sex, gildiya va magistrat maktablarida o‘qish lotin tilidan ona tiliga ko‘chirildi.

Sex, gildiya va magistrat maktablarining vujudga kelishi, G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi maktab ishining taraqqiyotida katta yutuq edi. Bunday maktablar asta-sekin rivojlanib XV asrga kelib butun G‘arbiy Yevropada faohyat yurita boshladi.

Yevropada dastlabki universitetlar hamda akademiylarning tashkil topishi va ulardagi ta‘lim tizimi. Yevropada birinchi universitetlar XII

asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Bolonya shahrida), Angliyada (Oksford shahrida), Fransiyada (Parijda) tashkil qilindi. Bu universitetlar dastlab professor va studentlarning mustaqil idora qilinadigan uyushmasi (korporasiyasi)dan iborat edi. XIII asrga kehb o'z- o'zini idora qish huquqini saqlab qolgan holda davlat tomonidan rasmiy tasdiqlandi. Cherkov esa universitetni tamomlagan studentlarga ilmiy daraja va o'qituvchilik huquqini bera boshladi. Ana shu tariqa universitetlar rasmiy o'quv muassasasiga aylandi. XIV-XV asrlarga kehb universitetlar Yevropa mamlakatlarning hammasida mavjud.

O'rta asr universitetlarida to'rta fakultet bo'lib, shulardan biri tayyorlov fakulteti edi. Unda «yetti erkin san'at» (travium va kvadrilium) fanlari o'qitilardi. Talabalar o'rta maktab vazifasini bajaruvchi bu fakultetda 6-7 yil o'qib, «san'at magistri» darajasini olar, shundan so'ng asosiy uch fakultetdan birida: ilohiyot, meditsina yoki huquqshunoslik fakultetida o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lar edi. Bu fakultetlarda o'qish muddati 5-6 yil bo'lib, uni tamomlaganlar doktor, yoki olim unvoni qo'lga kiritardi.

O'rta asr universitetlari cherkov nazorati oqibatida sxolastika ruhidagi maktabga aylanib qolgan, cherkov tomonidan ma'qullangan va tavsiya qilingan kitoblargina o'qitilar, shu sababdan o'qish quruq qiroatxonlikdan iborat bo'lib darslar lotin tilida olib borilar edi.

Universitet ta'limining va undagi metodlarning sxolastik mazmunidan qat'i nazar, O'rta asr universitetlari Yevropa madaniyatining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Zamonaviy Yevropa ta'lim tizimining o'tmishdagi poydevori bo'lgan bu universitetlar ko'hna qit'a mamlakatlarning depiokratik rivojida ham o'z o'rniga ega.

Universitetlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi XII— XIII asrda bir qancha G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oliy malumot beradigan o'quv yurtlari sifatida universitetlar paydo bo'la boshladi. Universitetlarning vujudga kelishiga o'sha vaqtlarda ko'p Yevropaliklarning arab madaniyati (xususan, meditsina va falsafasi) bilan tanishuvi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu madaniyat bilan tanishishga G'arbiy Yevropa feodallarining XI-asr oxirida Sharqdagi arab musulmon mamlakatlariga nisbatan harbiy harakatlari sabab bo'ldi. O'sha zamon arab mamlakatlarida madaniyat va ilm fan rivojlangan edi. Xususan arablar tomonidan VIII asrda istilo qilingan Ispaniyada tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlari Yevropa universitetlari uchun andoza bo'ldi. Ispaniyada arablar barpo qilgan feodal musulmon davlatining poytaxti Kordova shahrida tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlarida falsafa,

matematika, astronomiya, meditsina fanlari o'qitilar, yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan talabalar Kordovada o'qib, oliy ma'lumot olardilar.

Universitetlarning paydo bo'lishining yana bir sababi yuksak malakali huquqshunoslarga talabning oshganligi edi. Mazkur sabablardan tashqari XII-XIII asrlarda G'arbiy Yevropa hayotida yuz bergan iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar: hunar va savdoning rivojlanishi, shaharlarning o'sib borishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, yoshlar o'rtasida oliy ma'lumot olish harakatini tug'dirdi, bu hoi o'z navbatida universitetlarning paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

XVI asr Yevropada diniy reformatiyalar va islohotlarning avj olgan davri sanaladi. Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan ulug' pedagogdir.

Buyuk chex pedagogi 1592-yili 28 martda Moraviyadagi Ugorskiy Brod degan joyda tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Uning oilasi ruhoniy «Chex qardoshlari» jamoasiga tegishli bo'lib, bu jamoa Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o'z atrofiga to'plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o'qiy olmaydi, 16 yoshida «Chex qardoshlari» jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o'qishga kiradi. Bu haqda Komenskiy shunday yozgan edi: Men o'sha vaqtdayot tarbiya masalasida mamlakatimning orqada ekanligini ko'rdim. Fan va tarbiya hammaga tegishli bo'lishi kerak. Maktabni tugatgach Xorborni universitetiga (Germaniya) o'qishga kiradi, so'ngra Geydelberg universitetida o'z davrining bilimdon professorlaridan ma'ruza tingladi. Komenskiy Avstriya va Gollandiyada bo'lib iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy hayot bilan tanishib ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

O'sha davrda knyazliklar orasida boshlangan 30 yillik urush (1618— 1648) tufayli «Chex qardoshlari» jamoasi nemis dvoryanlari tomonidan vatanlaridan quvg'in qilinadi. Shu tariqa Komenskiy xotini va bolasidan juda bo'ladi. Qolyozmalari yo'qoladi. «Chex qardoshlari» ko'chib kelgan Polshadagi Leshno shahrida Komenskiy gimnaziya tashkil etadi.

U o'zining 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratgan «Tillar va hamma fanlarning ochiq yeshigi» (1631), «Buyuk didaktika» (1632), «Onalar maktabi» (1632), «Pansofiya maktabi» (1651), «Yaxshi tashkil

etilgan maktab qonunlari» (1953), «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» (1658) kabi asarlar uning eng salmoqli asarlaridir. Shuningdek, mantiq, fizika, lotin va grek tillariga bag'ishlangan o'nlab darsliklar yozdi. Darsliklari hayotlik davridayoq boshqa tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanildi.

Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga talluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar muallifi hamdir. (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935-yili topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarda kishilik jamiyatini isloh qilish g'oyasi ilgari suriladi.

Shvesiyada lotin tili darsligini va til o'qitish metodikasini tuzadi. U «Chex qardoshlari» jamoasiga yepiskop qilib tayinlangach, 1648-yili Leshnoga qaytib keladi. Jamoa tarqatilgandan so'ng u yana o'qituvchilik faoliyatini davom yettiradi. Bir necha yil Vengriyada maktablarni boshqaradi. «Видимыи миr в картинках», ya'ni «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» deb nomlangan asarida, o'qish ishini rasmlar bilan olib borish g'oyasini ilgari suradi. Bunda «Yoshlarning xulq qoidasi», «Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni» kabi pedagogikaga doir ishlari o'rin olgan.

1656-yili Shved-polyak urushi vaqtida Leshnodagi «Chex qardoshlari» jamoasiga barham beriladi. Komenskiy Gamburgga so'ngra Amsterdamga ketishga majbur boladi. O'sha yerda Gollandiya senatining buyrug'iga muvofiq uning asarlari to'plam holda bosib chiqariladi.

Komenskiy vatani mustaqilligi uchun kurash olib borgan. Uning asarlarida vatanparvarlik hissi yaqqol aks etgan. U chex Xalq poeziyasini yig'ib chex maqollar to'plarnini tuzgan.

Komenskiyning dunyoqarashi. Komenskiyning dunyoqarashida uch xususiyat ta'sirini ko'ramiz.

1. Naturalistik falsafa. XVI-XVII asrlarda ingliz materialist faylasufi

- Bekon sensualistik falsafa nazariyasini ilgari suradi. Komenskiy o'qitish jarayoniga shu pozitsiyadan qaraydi. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish bolmagan yerda bilish ham yo'q, deydi u.

2. «Chex qardoshlari» jamoasi diniy jamoa bolganligi uchun Komenskiy ham dindordir. Lekin Komenskiyning ruhoniyligi turmushga amaliy qarash bilan bog'liq edi.

3. Komenskiy dunyoqarashining ba'zi jihatlari Uyg'onish davri ta'sirida vujudga keladi. Odamlarga nisbatan muhabbat, hushchaqchaqlik,

bularning hammasi o'rta asr odamiga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashga qarama-qarshidir.

Komenskiy tashqi ob'zyektiv dunyoning hukm surishiga ishonadi. Dunyo bir butun. Dunyoda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Ajralib qolgan narsa yo'q. Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Dunyo qotib qolgan emas. U o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga ega. Qonuniyat borliqqa, ya'ni xudoga tegishli.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika» asarida «o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak», deydi. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarash (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyish o'z davrida ilg'or fikr sanalgan. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik. Shuningdek, ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Umumta'lim g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. O'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi. Shu tufayli ulug' pedagog bu masalani ilgari surdi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlash ekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiyalardir.

Bular bola tugʻilganidan 24 yoshiga kirguncha amalga oshiriladi, bu vaqt mobaynida bola har biri 6 yildan bolgan toʻrt maktabni oʻqib tugatishi kerak, deb hisoblagan ulugʻ pedagog.

Komenskiyning bolani yoshini davrlarga boʻlishi. Komenskiy tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga boʻladi.

1. Tugaganidan 6 yoshgacha - ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini oʻstirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat berish lozim. Bolani mehnatga oʻrgatish, oʻz-oʻziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, toʻgʻrilik, haqqoniylik, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bogʻcha yoshidagi bola tarbiyasini koʻzda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha - Xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda oʻquvchi esda saqlash, soʻzlashga oʻrganish, yozish, boshlangʻich maktab koʻnikmasini hosil qilishi kerak. Buning uchun geometriya, geografiya, tabiiyot fanlarini oʻrganishi lozim.

3. 12-18 yoshgacha - gimnaziya. Bu oʻquv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini oʻstirishdan iborat boʻlib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar oʻqitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha - Universitet. Akademiya. Bu oʻquv yurtlari oʻquvchining irodasini, shaxsini bir butun oʻstirishi lozim.

Shunday qilib, maktab Komenskiy qarashicha oʻquvchilarni oʻylashga, harakatlantirishga, masalalarni amalda mustaqil yecha bilishga, oʻquvchilarni soʻzlashga, oʻz fikrini toʻgʻri ifoda qilishga va isbotlab berishga oʻrgatmogʻi shart.

- Mehnat kishini ulugʻlaydi, - deydi Komenskiy. - Shuning uchun mehnatga ham yoshlikdan oʻrgatish darkor.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida didaktika katta oʻrinni egallaydi.

Komenskiy oʻzining «Buyuk didaktika» asarida maktabda oʻqitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Koʻrgazmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bihm va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

1. Koʻrgazmalilik tamoyili - Komenskiy koʻrgazmalilik tamoyilini nazariy jihatdan isbotlab, mufassal bayon qilib bergan.

Ko'rgazmalilikni o'qitishning «Oltin qoidasi» deb ataydi u. Bu tamoyilda: a) bolaga real narsalarni ko'rsatish, b) dunyoni rasmlar orqah tushuntirish, v) narsalarning modelini ko'rsatish, g) o'qituvchining o'zi o'rganilayotgan materialni chuqur bilishga va yesda uzoq vaqt saqlanishga olib keladi.

2. Onglilik tamoyili. Komenskiy onglilik tamoyilini ilgari surar ekan, o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik lozim». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani tola tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtatmoq kerak» deb yozadi u.

3. Komenskiy ta'limning tizimli bo'lishi tarafdori edi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretidan abstraktga, osondan qiyinga, umumiyda xususiyyga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini alohida o'rganish kerak, deb hisoblaydi.

Jan-Jak Russo (1712-1778) o'zining «Emil yoki tarbiya to'g'risida» nomli asarida ta'kidlashicha, tarbiyani tabiatga bog'liq holda amalga oshirish bolaning tabiiy rivqjlanib borishiga rioya qilish demakdir. Russoning fikricha, bola tabiat haqidagi fanlar — geografiya, astronomiya, fizika, tabiatshunoslik fanlarni o'rganishi lozim. Bola o'zi yashayotgan joy, qishloq va shahar bilan tanishib, geografiyaga oid bilimlarni egallaydi, yulduzlar harakati, quyoshning chiqishi va botishini kuzatib astronomiyani o'rganadi, tajribalar o'tkazib fizikani bilib oladi. Tarbiyalanuvchi bilimlarni tarbiyachi orqali emas, balki o'z kuchi bilan egallashi, fanlarni quruq yod olmasdan, ularni o'zi ixtiro qilishi kerak - deb hisoblaydi. Russo mehnatni bolaning aqliy rivojlanishi uchun amaliy vosita deb biladi.

Iogann Genrix Pestalotsi (1746-1827) Tarbiyaning maqsadi bolalarda «haqiqiy insoniylikni» namoyon ettirishdan iboratligini aytadi. Pestalotsining ta'kidlashicha, tarbiya uyg'un tarzda, ya'ni bolaning tabiati, ruhiyatiga muvofiq holda amalga oshirilishi kerak. Ko'z, - deydi Pestalotssi, - ko'rishni, quloq yeshitishni, oyoq yurishni, qo'l ushlashni

istaydi. Shuningdek, qalb ham ishonishni va sevishni istaydi. Aql fikr-fashni istaydi. Olim ta'lim aniq hayotiy kuzatishlarga asoslanishini tavsiya qiladi, ko'rgazmalilikni ta'limning oliy sharti hisoblaydi. U «Lingard va Gertruda» (1781 - 1787) nomli ijtimoiy - pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a suradi.

Adolf Distverg (1790-1866) pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda matematika, nemis tili, geografiya, matematik geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar nashr qilgan. Bu darsliklar va o'quv qo'llanmalari Germaniyada va boshqa ko'pgina mamlakatlarda katta shuhrat qozondi. U «Nemis muallimlarining muallimi» degan faxrli unvonga sazovor bo'ldi. Distverg takomillashib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi. Didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonun va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. U taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim «yaqindan uzoqqa», «oddiydan murakkablikka», «ma'lumdan noma'lumga» o'tish kerak, degan qoidalar bilan bog'liq ta'limdir. G'arbiy Yevropada Yan Amos Komenskiy, Iogann Genrix Pestalotssi, Robert Ouen, Iogann Gerbart, Adolf Distverg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiy, Lev Nikolaevich Tolstoy, Anton Semyonovich Makarenko, Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiylarning ta'lim-tarbiyaning roliga bergan baholari katta ahamiyatga egadir. Rossiyaga ham XIX asr boshlarida «Uyg'onish» davri yetib kelib, bir necha ko'zga ko'ringan pedagog olimlar etishib chiqqan.

Rus pedagog olimi Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824 - 1870) «Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asarida ifodalangan didaktik qarashlarida u o'z vataniga va xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatning asosiy burchi deb hisobladi. U rus pedagogikasining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil bo'lishi lozim, deb hisobladi. Ushinskiy «Kameral fanlarni o'qitish haqida» asarida oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaradi. Hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etdi. O'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni o'rtaga qo'yib, ularni qanday hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

9.3 Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi.

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini

o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zero, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini etishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jaxon tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta axamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'qishlar, uchrashuvlar o'tkazildi. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet ellarda o'quv-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga, e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida jahon ta'lim tizimini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Jahon ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQShning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan xaqiqatdir. Shu tufayli xam chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan kup sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortik. Fransiya, AQSh, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoldalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AKSHda xalqaro

ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va kayta kurishga karatilgan.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada xam AKSHdagi singari o'rganilishi majburiy bulgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan buldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish ta'lim oluvchilar va ota — onalar ixtiyoridadir. "Yangi dunyo"ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga xam sezilarli ta'sir yetdi.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirildi. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mexnat, ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jaxon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 80-yillarda tabiiy ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astranomiya, geologaya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirishdi.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. Ta'lim oluvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy

mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf ta'lim oluvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishnn afzal ko'radilar.

Bular quyidagilar:

Gomogenlar — matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan ta'lim oluvchilar.

Yarim gomogen — tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil ta'lim oluvchilar.

Gegeron — barcha predmetlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan ta'lim oluvchilar va xokazo.

Tabaqalashtirish jarayoninig yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish buyicha chet mamlakatlarning ko'pchilikda tadqiqotlar davom yettirilmokda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgarilab ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'quvni jud erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov - shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar. Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60 - yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQShda keng quloqch yoygan. Ayrim shaharlarda qobiliyatli bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli ta'lim oluvchilar maktab dasturida o'qitiladilar. AQShda "Merit" dasturi asosida har yil yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming ta'lim oluvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart - sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi. Lekin iqtidorli bolalarga qarama - qarshi qutbda turgan aqli zaif ta'lim oluvchilarning taqdiri ham xorijlik hamkasblarni tobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda.

Germaniya maktablarida sinfda ta'lim oluvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday ta'lim oluvchilarni - har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni ta'lim oluvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u pedagogdan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlari:

Maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish, ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish, tarbiyaning yangi formalarida - ta'lim oluvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish, maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish, maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini qayta tashkil etish, tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif ta'lim oluvchilar uchun) rivojlantirish, yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarini ta'limdagi salmoqni oshirish, pedagoglar korpusida kompyuter ta'limini yo'lga qo'yish, pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash resublikamizda ta'lim—tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil resublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g'oyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy- tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, xalq ta'limi vazirligi, tashqi ishlar vazirligi xamda moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi.

Endilikda boshlang'ich 4-sinf ta'lim oluvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) tadqiqoti joriy etiladi.

Shuningdek, Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) tadqiqotidan 4 va 8-sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun foydalaniladi.

The Programme for International Student Assessment (PISA) tadqiqoti 15 yoshli ta'lim oluvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun qo'llaniladi.

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - raxbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda pedagoglarning ish sharoitlarini o'rganish uchun joriy etish ko'zda tutilgan.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

Ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

Ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chikish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

Ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jixatdan qo'llab-qo'vvatlash;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish buyicha tizimli monitoring olib borish, ushbu soxadagi ig'lor tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda taxlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashki monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, pedagoglar salohiyati va ta'lim oluvchilarning uzlashtirish darajasi aniklanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muxim mezon bo'lgani uchun xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi ta'lim oluvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, ta'lim oluvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) kabi baxolash dasturlarini keng qo'llash rejalashtirilmoqda.

PISA - 15 yoshli ta'lim oluvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib, xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda ta'lim oluvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi va ballik tizimda baholanadi. Ushbu xalqaro dastur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda shug'ullangan. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Bu tadqiqotlarning natijasi dunyo bo'yicha katta qiziqish bilan qo'zatib kelinadi. Shu bois yildan-yilga uning ahamiyati va qamrovi oshib boryapti.

Misol uchun, 2000 yilda dastur testlarida 32 davlatdan 265000 nafar ta'lim oluvchi ishtirok yetgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga ortishi, ya'ni 78 davlatdan 540000 nafardan ziyod ta'lim oluvchikatlantirishi kutilmoqda. Har bir davlatdan ishtirok etuvchi ta'lim oluvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.

TIMSS- maktabda matematika va tabiiy fanlarni oq'itish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish xamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha

ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, pedagoglar saloiyati, ta'lim oluvchilarning oilalari bilan bo'lik omillar urganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni uzlashtirish xolatini kursatishda asos buladi.

Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShing ta'lim soxasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (GEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslaxat qo'mitalari tashkil etiladi.

STEAM-hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: S - science, T - technology, E - engineering, A - art, M - mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muxandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir.

Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Lekin bunga o'quvchilarni qanday qilib tayyorlashimiz mumkin, chunki maktab dasrlari orasidagi bog'liqlikni ko'rish juda murakkabdir. Aynan shunday muammolarni hal qilishda. STEAM yordam beradi.

Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik xayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashkarida loyiha va o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi.

Fanlarni kundalik xayot bilan bog'liqligini ko'rsatishdan tashqari, texnologiya o'quvchilarning ijodkorligini xam ko'rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o'quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o'rganadi. Bunday vazifalar yordamida o'quvchi g'oyalarni nafaqat o'ylab topadi, balki ularni kundalik xayotida amalga oshirishni ham

o'rganadi. Shu tariqa, o'quvchi o'z faoliyatini oldiga qo'yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o'rganadi.

Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

1 -8-sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlardir. AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shugullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa "Kinder garde" deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bulgan bolalarni kamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga kuchish ta'lim oluvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlardaturlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shovlar va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga xam to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat.

Sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda quyidagi to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi:

kasb-hunar ta'limi;

biznes ta'limi;

savdo va sanoat ta'limi;

qurilish ta'limi.

Oliy ta'lim esa quyidagi 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

Kichik mutaxassis 2 yillik kollejlarda.

Bakalavr 4 yillik kollejlarda.

4 yillik kollej yoki dorifununni tugatgandan so'ng, 1-2 yillik magistr maktabi.

4 Doktorantura.

Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud:

ta'limni individuallashtirish;

talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish.

Pedagog yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkin, AQSh o'rta maktablarida o'z ta'lim oluvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi.

AQShda har bir ta'lim oluvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida xujjat topshirgan. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan pedagoglar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari xajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. Yigit qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda ko'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar) ta'lim televideniesi, ko'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoappaturalar, kompyuter va xokazolardan iborat.

XXI asr arafasida AQSh yangi qabul qilingan «2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi» dasturi e'lon qilingan edi.

Dunyo ta'lim tizimi va uning har davlatga xos ko'rini mamlakatlarning ichki imkoniyatlari, davlatlarning imkoniyatlariga bo'g'liq bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratilini, kadrlar salohiyatini oshirish borasida salmoqli ishlar qilindi. Jumladan Birlashgan Millatlar tashkilotini dunyoda ma'daniy-ma'rifiy ishlarni keng rivojlantirishga e'tibor qaratgan tashkiloti Yunesko

YUNESKO (*inglizcha: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization* — Birlashgan Millatlar Ta'lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti), Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus tashkilotlaridan biri bo'lib, ikkinchi dunyo urushidan so'ng, 1946-yil tashkil qilingan.

Bu tashkilotning qurilishiga, 1945-yil noyabr oyida Londonda 44 davlatning vakillari qatnashgan holda qaror qilingan. Tashkilotning markazi Parijda. Uch organdan — Umumiy yig'ilish, Boshqaruv, Kotiblikdan iborat bo'lgan YUNESKO tashkilotining asl maqsadi, ta'lim,

bilim va madaniyatni, unga a'zo bo'lgan har bir davlatdagi Milliy komissiyalar orqali amalga oshirish.

YUNESKO — Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti — xalqaro hukumatlararo tashkilot; BMTning ixtisoslashgan muassasasi. Davlatlar o'rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko'maklashish maqsadida 1946-yil tuzilgan. 188 mamlakat (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktyabrdan) a'zo (2004). YUNESKO nizomiga ko'ra, "... irqi, jinsi tili va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatni ta'minlash maqsadida ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga" ko'maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir. 400 ga yaqin xalqaro nohukumat tashkilotlar va jamg'armalar, xalqaro va hududiy birlashmalar YUNESKO bilan hamkorlik qiladi. YUNESKO byudjeti a'zomamlakatlar badallaridan tashkil topadi.

Tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari yalpi savodsizlikka qarshi kurash, maorif tizimi va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, milliy madaniyatlarni o'rganish va tarqatish, atrof muhitni va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, okeanografiya, geol., gidrologiya, sotsiologiya, kommunikatsiya va boshqalar sohalarda global ilmiy muammolarni hal etishda hamkorlik qilishdan iborat. Axborot va informatika — kommunikatsiya masalalari uning faoliyatida katta o'rin egallaydi. Tashkilotga a'zo mamlakatlarda YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyalar tuzilgan. YUNESKO ana shu komissiyalarga tayanib ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi 1994-yil 29-dekabrda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Bosh konferensiya YUNESKOning oliy organi hisoblanadi. 2-yilda 1 marta uning sessiyalari o'tkaziladi. Sessiyalar oralig'ida Ijroiya kengashi (unga 58 davlat, jumladan, O'zbekiston 1997-yil oktyabr da a'zo etib saylangan) ish olib boradi. Ijroiya kengashi har-yili 2 marta yig'iladi. Uning 155-sessiyasining yakuniy yig'ilishi Toshkent shahrida bo'lib o'tgan (1998-yil 6-noyabr). Tashkilot qarorgohi Parijda, Bosh direktor (Konchiro, Matssura, 1999-yildan) boshchilik qiluvchi Kotibiyat ham shu yerda joylashgan. Tashkilot 50 dan ortiq axborotnoma va 20 dan ortiq davriy nashrlar chiqaradi. Ulardan eng keng tarqalgani "YUNESKO

kuryeri" jur. (30 tilda nashr qilinadi), "Kelajak" (ta'lim sohasidagi haftalik), "Muzei", "Ijtimoiy fanlar xalqaro oynomasi", "Tabiat va resurslar", "Mualliflik huquqi bo'yicha axborotnoma", "Ta'lim byurosi xalqaro axborotnomasi", "Impakt: fan va jamiyat" kabilardir. YUNESKO har 2-yilda bir marta jahonda ta'lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya holati haqida ma'ruzalar chop etadi. YUNESKO "Insoniyatning ilmiy va madaniy rivojlanishi tarixi" (6 jild), "Islom madaniyatining turli jihatlari" (6 jild), "Lotin Amerikasi davlatlari tarixi" (7 jild), "Karib havzasi davlatlari tarixi" (6 jild), "Afrika umumiy tarixi" (8 jild) kabi fundamental kitoblarni chop etmoqda. Shuningdek, 6 jildli "Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi" xalqaro hamkorlik doirasida yaratilmoqda, unda Inavbatda mazkur mintaqa davlatlari, jumladan, O'zbekiston olimlari ishtirok etmoqda. Kitobning dastlabki 4 jildi 1992, 1994, 1996 va 1998-yillarda bosilib chiqdi. "Ipak yo'li — muloqot yo'li" jahon dasturi YUNESKOning Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u BMTning madaniy taraqqiyot bo'yicha butun dunyo o'n-yilligi (1989—99-yillar) tadbiri doirasida o'tkazildi. YUNESKOning sa'yharakati bilan butun insoniyat mulkini tashkil etuvchi buyuk madaniy va tabiiy yodgorliklar Jahon merosi ro'yxatiga olindi.

YUNESKO O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishiga bevosita yordam ko'rsatish maqsadida bir qator oliy o'quv yurtlarida YUNESKO kafedralari, shuningdek, YUNESKO maktablari tashkil etgan. YUNESKO doirasida Abu Rayhon Beruniy (1973), Abu Ali ibn Sino (1980) tavalludining ming yillik, Mirzo Ulug'bekning 600 yillik (1994), Amir Temurning 660 yillik (1996) tantanalari nishonlandi. YUNESKOning Parijdagi bosh qarorgohida Amir Temur haftaligi o'tkazilib, "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullabyashnashi" mavzuida ilmiy konferensiya va ko'rgazma tashkil etildi¹⁴.

Xulosa qilib aytganda jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limga e'tibor ancha yillar ilgari boshlangan bo'lib, bugungi kunda bu davlatlarning ta'lim tizimining azfal tomonlarini O'zbekiston ta'lim tizimiga olib kirilmqda, ta'lim timizni rovojlantirishda namuna sifatida qo'llamoqdalar.

¹⁴ Saidov A.X., Xalqaro huquq, T., 2001; Xakimov R., O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti, T., 2001; Mo'minov Abdulxay, O'zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari, T., 2003.



Mavzuni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar.

1. Qadimgi Yunon va Rim ta'lim tizimmi haqida so'zlab bering?
2. Yunon mutaffakirlarining ilmiy merosi asosida taqdimot tayyorlang?
3. Rimdagi maktablar va ular haqida so'zlab bering?
4. O'rta asr Yevropadagi ta'lim tizimidagi islohotlar va universitetlarni ochilishi haqida esse yozing?
5. Venn diagrammasi asosida XVII-XIX asrlarda yashagan olimlarni hayotini yoritib bering?
6. G'arb uyg'onish davridagi ta'lim tarbiya tizimidagi o'zgarishlar haqida so'zlab bering?
7. Bugungi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi haqida video rolik tayyorlang?
8. Bugungi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida so'zlab bering?
9. Yunesko xalqaro tashkiloti faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanib taqdimot tayyorlang?



Mavzuga doir testlar.

1. Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti — xalqaro hukumatlararo tashkiloti?
 - a) YUNESKO
 - b) UNESEF
 - c) NATO
 - d) ESTC
2. Turli davlatlardagi 4- va 8-sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beruvchi xalqaro baholash dasturi?
 - a) TIMSS
 - b) PISA
 - c) TALIS
 - d) TIMSS

3. «Inson tarbiya predmeti sifatida» asari muallifi?
- a) Konstantin Dmitrievich Ushinskiy
 - b) Adolf Disterverg
 - c) Iogann Genrix Pestalotsi
 - d) Jan-Jak Russo
4. «Kifarist» soʻzining maʼnosi?
- a) grekcha musiqa oʻqituvchisi
 - b) savod oʻrgatish
 - c) taʼlim nazariyasi
 - d) yetaklab boorish
5. «Oʻqitish tabiiylikka boʻysunishi, oʻqitish tabiat talabiga boʻysunishi kerak» degan fikrlar muallifi?
- a) Komenskiy
 - b) Adolf Disterverg
 - c) Iogann Genrix Pestalotsi
 - d) Jan-Jak Russo

X-BOB. PEDAGOGIK JARAYONDA TARBIYANING MAZMUNI



Tayanch atamalar

Tarbiya, tarbiya mazmuni, tarbiya jarayoni, tarbiya qonuniyati, tarbiya tamoyili, tarbiya qoidasi, pedagogik jarayon, tarbiya mohiyati, tarbiya turlari, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi

10.1 Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati.

Tarbiya pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya — shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiyaning mohiyatini sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga asoslanadi. Tarbiya o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabilarning ma'lumotlaridan foydalanadi.

Tarbiya pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda xalq ta'limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqa qilib aytganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'yektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya

xususida taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” .

1. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bogliq.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g‘oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo‘li deb e’tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o‘z o‘zida kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta’siri bolaning ularga munosabatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o‘zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongigina emas, balki his tuyg‘ularini ham o‘stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o‘qituvchi

rahbarlik qiladi. U o‘quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyaning asosiy vazifalari. Tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

d) umuminsoniy axloq me‘yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o‘quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

e) o‘quvchilarda huquqiy va axloqiy me‘yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas‘ullikni qaror toptirish;

tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas‘uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat — O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha‘ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o‘rgatish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat.

Shu bilan birga ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari — axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

Chunonchi, 1) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida — o‘quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me‘yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me‘yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish,

ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va taqiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish;

2) aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida — o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish;

3) jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida — o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat to'rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigienani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

4) estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

5) ekologik tarbiyani olib borish chog'ida o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

6) iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

7) huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik,

ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushintirish, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvuiga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish;

8) g'ovaviv-sivosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

10.2 Tarbiyaning maqsadi va vazifalari.

Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Tarbiya jarayonining natijasi. Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlik, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi.

Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan

yaxshi xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarini asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda, ilmiy tahlil qilish mumkin.

Shaxs tarbiyaning natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning ko'pdan-ko'p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi.

Bola o'sib va rivojlanib borgani sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, o'quvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllarini qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalariga amal qilishni talab etadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, uning atrof-tevarak, jamiyat, odamlar hamda o'ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya jarayoni ko'p omilli xarakterga ega. Ya'ni, bola shaxsining qaror topishi oila, ta'lim muassasasi, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi, bevosita va bilvosita ta'sirlar ostida ro'y beradi.

Tarbiya jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo'lmaydi. Bu narsa o'quvchilarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog'liq.

10.3 Tarbiya jarayonining asosiy tushunchalari (o'z-o'zini tarbiya, qayta tarbiya).

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi,

xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo‘lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbayini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qaramaqarshiliklardan iborat.

Tarbiyada o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo‘lgan malaka va odatlar axloq me‘yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri — o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o‘qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta‘sir etish muhimdir. Aks holda xulq me‘yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta‘sirga beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo‘ladi.

Tarbiya jarayoni, odatda, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi.

O‘zini o‘zi tarbiyalash shaxsni o‘zida ijtimoiy qadrga ega bo‘lgan fazilatlarini hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida ta‘riflanadi.

O‘z-o‘zini qayta tarbiyalash shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. Bola xulqidagi «og‘ish»lar oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo‘l qo‘ygan xatolari, o‘qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o‘zgartiriladi, qayta tarbiyalashda maktab va shaxsning shaxsiy ta‘sirini oila, shu jumladan, ota-ona ham ma‘qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash o‘quvchining o‘zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim. Tarbiya tug‘ilishdan tokim umrning oxitigacha davom etadigan jarayon sanalab, xalq tili bilan aytganda “Beshikdan qabrgacha ilm izla” shiori bilan izohlanadi.

10.4 Tarbiya jarayoni qonuniyatlari.

Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:
ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi;
tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;
faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;

Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning eng muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Yagona maqsadga erishish yo'li zamonaviy tarbiya jarayonining maqsadini tavsiflaydi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subektiv va ob'yektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashga yordam bersa, ob'yektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli ob'yektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunday muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik shaxsiy xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yoki yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Shaxsning muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda harakat qilishi tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiya shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim

o‘rin tutadi. Binobarin, yoshlik yillarida insonning asab tizimi yuqori darajada ta‘sirchan hamda beqaror bo‘ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o‘quvchilik yillarida shaxsga to‘g‘ri tarbiya berish lozimligini talab etadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzluksizligi sanaladi.

Ta‘lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir.

O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini to‘ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta‘lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o‘rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz tarbiyaviy ta‘sir o‘tkaza olmaydi, chunki, bolalar ma‘lum muddatgina ta‘lim muassasasida, o‘qituvchining tarbiyaviy ta‘siri ostida bo‘lib, qolgan vaqtining asosiy qismini oilada, ko‘chada, jamoat orasida o‘tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta‘tillar davrida o‘quvchilar ta‘lim muassasasi o‘qituvchisi ta‘siridan chetda qoladilar.

Demak, ta‘lim muassasasida bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan xoli vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining ta‘siri hamda nazoratidan uzoqlashadilar.

O‘quvchilarga nisbatan ta‘lim muassasasining ta‘sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta‘til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e‘tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Ayni vaqtda, respublikada, o‘quvchilarning ta‘lim muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo‘shimcha ta‘lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Qo‘shimcha ta‘lim muassasalarida o‘quvchilar xususiy fanlar hamda xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirishlari, texnik va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari mumkin. Qo‘shimcha ta‘lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchravshuvlar, ko‘rgazmalar, ko‘riklar, suhbatlar o‘quvchilarning tafakkurini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati — bu uning vaqit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarini birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta’lim ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilish, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo‘lib, unda bolaning o‘zi ham faol ishtirok etadi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo‘nalishda, ya’ni, o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’siri (to‘g‘ri aloqa) hamda o‘quvchining o‘qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyasiga muvofiq, endilikda o‘quvchi tarbiya jarayonining ob’yektiga bo‘lib qolmasdan, subekti sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakun topadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir xususiyati — tarbiyada qarama-qarshilikning mavjudligi kelib chiqadi.

Ushbu qarama-qarshiliklar o‘quvchilarga o‘z tushunchalariga muvofiq paydo bo‘lgan dastlabki sifatlar o‘rtasida yoki o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Undan tashqari bu qarama-qarshiliklar ko‘pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo‘lmasligidan, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari (fe’l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sog‘lomligi)ni yaxshi bilmasliklari oqibatida kelib chiqadi.

10.5 Tarbiya jarayonining mazmuni

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;

ikki tomonlamalilik;

Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsional belgilariga bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Demak, Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy

tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzuniyatlarini asosida belgilanadi.

Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

10.6 Tarbiya tamoyillari.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatleri mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g'oyalari asosida belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Tarbiya maqsadining aniqligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalari ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi — erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya'ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.

O'qituvchilarning bolalar bilan ma'naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me'yor va qadriyatlarini aniqlash o'quvchining tarbiya jarayonidagi faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'lato'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim unsurlaridan biri — bu insonning hayotiy o'z-

o'zini anglashi, uning o'z shaxsiy hayoti va faoliyatining subekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi. Mazkur g'oya ta'lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas, balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'quvchi, ham o'qituvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi o'quvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'ra va anglay olsagina uning irodali ekanligi ayon bo'ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo'lishi ta'minlangan sharoitda uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

6. Jamoa yo'nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va o'zaro hamkorlik tuyg'ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga: inson aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy-g'oyaviy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olishi lozimligini uqtirishining o'zigina kam samara beradi. O'quvchi uchun yuqorida qayd etilgan tarbiya yo'nalishlarining nima uchun kerakligi, ularning insonga nima bera olishi kabi masalalar qiziqarlidir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tarbiya tizimida muammoning mana shu jihati birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Yuqorida qayd etilgan g'oyalar to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda — yetuk fuqaro, malakali mutaxassis hamda barkamol oila sohibini tarbiyalab voyaga yetkazish uchun xizmat qilishi lozim.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik tamoyili.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyili.

O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim, Hadisi shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya ob'ekti emas, xuddi o'zi kabi sub'yekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyili

O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr - shavqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota - onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik tamoyili.

Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota - ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli ularning

ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarni (oilalar, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni) birgalikda ish ko'rishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda mavzuga quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'qitish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzuniyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.



Mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar?

1. Tarbiya atamasiga izoh bering?
2. Tarbiya mazmuni oid qanday ma'lumotlatni bilib oldingiz?
3. Tarbiya jarayoni va mazmunini mavzusida taqdimot tayyorlang?
4. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari haqida nostandart test tuzing?
5. Tarbiya inson ziynati mavzusida ijodiy bayon yozing?
6. Tarbiya tamoyillarini sanab bering?
7. Tarbiya jarayonining asosiy tushunchalardan foydalangan holda esse yozing?

8. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari yoritilgan taqdimot tayyorlang?
9. Tarbiya mavzuga oid video rolik tayyorlang?

Mavzuga doir testlar.

1. Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi nimadan iborat?

- a) Shaxs tarbiyasi
- b) O'quvchi tarbiyasi
- c) Har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirish
- d) D.To'g'ri javob yo'q.

2. Tarbiya metodlarini ko'rsating?

- a) Ijtimoiy hulq tajribasini shakllantirish metodlari
- b) Ijtimoiy ongini shakllantirish metodlari
- c) O'z-o'zini tarbiyalash, jazolash va rag'batlantirish metodlari.

- d) D. Hamma javoblar to'g'ri.

3. Pedagogning tarbiyalanuvchilarga nutqsiz munosabati turlarini ko'rsating.

- a) His-hayajonni ifodalaydigan harakatlar
- b) Prosadika va ekstrologvistika
- c) Takesika va proksemika
- d) D. Hamma javoblar to'g'ri

4. Insonparvarlik tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

- a) Inson shaxsini hurmat qilish, uning baxt-saodatini ta'sinlashga intilish.
- b) Inson erkinligi
- c) So'z erkinligi
- d) Insonni ulug'lash

5. Jamoa a'zolarini nima birlashtiradi?

- a) Tengdoshlik xususiyatlari
- b) Tartib-intizom
- c) Yagona maqsad
- d) To'g'ri javob yo'q.

GLOSSARIY

Akademiya - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi - o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomaliya (yunoncha — anomal) - me'yordan, umumiy qonuniyatlardan

chetlanish, noto'g'ri rivojlanish. Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishkorreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar

yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq- (lotincha "moralis" - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilarning ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Abstrakt tushuncha - narsa va hodisalarning mavhum belgi, xususiyat, sifat va o'zaro munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar.

Avtoritar pedagogika (avtoritar pedagogik texnologiya) -ta'lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o'qituvchining obro'siga asoslanish, unga o'quvchilarning ko'r-ko'rona, so'zsiz itoat etishlari. Bunda o'quvchilarning erkin va mustaqil fikrlashlari, shunday harakatlar qilishlari cheklangan bo'ladi.

Avtoritet - shaxsning boshqalar e'tirof qilgan obro'si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta'siri va ular tomonidan qadrlanishi. Avtoritet chin yoki soxta bo'ladi.

Atama - tabiiy tildagi so'z yoki so'z birikmalari (real yoki abstrakt narsalami ifodalovchi). Atamaning u yoki bu kontekstdagi ma'nosi to'g'risidagi masala doim muhokama qilinadi, chunki odatdagi til ko'p ma'noli. Odatdagi til ko'p ma'noli bo'lgani sababli, atamaning har bir holatdagi qo'llanilishi ma'nosi muhokama qilib boriladi. Bir fan yoki ilmiy nazariyada atamalar bitta ma'noda ishlatiladi. Atamalar nazariy, empirik turlarga ajratiladi. Nazariy atamalar tajriba bilan asoslangan, empirik atama esa tajriba orqali tasdiqlangan xulosalarga tegishli bo'ladi.

Baynalminallik ("inter" — orasida, o'rtasida, aro, "natio" -xalq) — o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ulaming manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan nxezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Baho - ta'lim oluvchilarga ulaming ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Bilim olish - borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim - o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ulaming o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ulami intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Bilim - borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazʼuriy bilimlarga ajratadi. Kundalik bilim sogʻlom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof- muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan koʻra bilishi uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Ilmiy bilim - tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan boʻladi. U empirik va nazariy darajada boʻladi. Empirik bilim - bilishning kuzatish, oʻlchash, tajriba usullarini qoʻllash natijasi. Narsa-hodisalarning sifat va miqdor koʻrsatkichlarini ifodalaydi. Empirik koʻrsatkichlar orasidagi bogʻliqliklarning muntazam takrorlanishi empirik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular, koʻpincha, ehtimollik xususiyatiga ega boʻladi.

Nazariy bilim - empirik holatlarni tasvirlash, tushuntirish, yaʼni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilish - obyektiv borliqning ongda aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda boʻladi: Missiy bilish - sezgilar, idrok, tasavvur orqali. Ratsional bilish - tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan oʻtib nazariyalarda oʻrin oladi. Shu bilan birga bilish - kundalik, badiiy, ilmiy boʻladi. Ilmiy bilish tabiatni va jamiyatni bilishga ajraladi.

Birlamchi modul - pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlashda dastlabki modul sifatida tanlangan va oʻz tarkibiga bitta yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul toʻplami.

Vatanparvarlik (lotincha “patriotes” - vatandosh, “patris” - vatan, yurt) - shaxsning oʻzi mansub boʻlgan millat, tugʻilib oʻsgan vatani tarixidan gʻururlanishi, buguni toʻgʻrisida qaygʻurishi hamda uning porloq istiqboliga boʻlgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal - bilim (maʼlumot, axborot)larni soʻz yordamida (ogʻzaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis - bilim, ong, oʻrganish) - bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos boʻlgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, taʼlimot.

Davlat ramzlari - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy,

ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti - 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik - muayyan fen bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) - (yunoncha "didaktikos" "o'rgatuvchi", "didasko" - "o'rganuvchi") - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, O'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan "principium" - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) - ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki hojatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashxis maqsadi - o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha "sy stema" - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) - ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit hojatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin - o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha "kollektivus" so'zining tarjimasini bo'lib, yig'ilma, ommam, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) -

bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari - jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi - jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi; shuningdek, jamoada mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jinsiy tarbiya - o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, uarni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat - ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Idrok - aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha "adapto" - moslashish) - anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv - ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'mi va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha "rehabilitas" - layoqati, qobiliyatini

tiklash) - anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchiga hissiy og'zaki ta'sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha "idea" - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.

Individ (lotincha "individuum" bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) - xatti-harakatlarini shartli reflex yodamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilani boshqarish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va hokozolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilani boshqarish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va hokozolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Innovatsiya - yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

Intellekt - insonning umuman bilish faoliyati, fikr lash qobiliyati; tushunish, mulohaza. tafakkur, aql.

Interfaol mashg'ulot - o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" - "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar

asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb- hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, iitimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega boigan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlaming yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta‘lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlaming o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlami tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta‘lim sohasidagi xizmatlaming iste‘molchisi va ulami amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat - ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlami tayyorlash va ulami qabul qilib olishning kafillari.

Uzluksiz ta‘lim - malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlarini, davlat ta‘lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ulaming tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablami belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta‘minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Yo‘l (ruscha - priyom) - biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Kasb-hunar kolleji - o‘quvchilaming kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantimvchi, tanlab olingan kasb-huniar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta‘lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunax ta‘limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta‘lim muassasasi

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha “compensatio” - o‘mini todirish, tenglashtirish) - oliy nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya (yunoncha “correctio” - tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya- yunoncha “defectus” - nuqson, kamchilik, “logos” - fan, ta’limot) - rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat - yaxlit ta’lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiypedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko‘ra umumiy pedagogik ta’lim ko‘rsatish choratadbirlari tizimi.

Ko‘nikma - olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.

Ko‘rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ulaming maketlarini ko‘rsatishda qo‘llaniluvchi usullar.

Kichik modul - pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

Kognitiv - atrof odam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiyalovchi tafakkumi shakllantirish, bilish ehtiyojarini livojlantirish ta’limi.

Kreativ - tadqiqotchilik xarakteriga ega; o‘quvchilarda ijodiy tafakkumi jadal (maqsadga yo‘naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta’limi.

Litsey (kollejda) ma’ruza - o‘quv materialini o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og‘zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikmi tezis yoki loyiha ko‘rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha “logos” - so‘z, nazariya, ta’limot, “paideia” - tarbiyalash) - nutqiy nuqsonlarni o‘rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to‘liq tuzatish masalalarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta’lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’lim.

Madaniyat (“cultura” so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta’lim (bilim olish) mazmuni) - ta’lim jarayonida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta’lim - bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi - maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Maktabdan tashqari ta’lim - madaniy-estetik, ihnii, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yiluvchi, bolalar hamda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim bosqichi.

Malaka - ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og‘zaki bayon qilish metodlari - o‘quv materialini mohiyatini og‘zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.

Mafkura (arabcha “mafkura” - naqtni nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksalish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalarni tizimi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan

mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ulami axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan

bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat" - ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasawur. Tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat - shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni

singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ulami targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza - yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

Menejment - mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ulaming faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod - yunoncha tarjimasi "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'noiy anglatadi.

Metodika (fan sifatida) - xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Malaka amaliyoti - o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, ta'lim dasturining

ma'lum (yakimiy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

Malaka oshirish - mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

Malaka talablari - uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

Mahorat - shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Modul - pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab, tegishli Ucha darajadagi modullar deyiladi.

Modullashtirish - pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

Monitoring - korxonada, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv. Me'yoriy hujjatlar, yuqori tashkilotlarning buyruq va qarorlari ijrosi o'z muddatida hamda qanday sifat va darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi. Ta'lim-tarbiya sohasida monitoring — o'quv jarayoni va uni boshqarishning uzluksiz kuzatuvini olib borish.

Metodik - metodikaga tegishli qat'iy ketma-ketlikka, tizimga, ilgaridan o'atilgan reja, tizimga aniq, rioya qilish.

Metodist - biror o'quv fanini o'qitish yoki tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi mutaxassis.

Metodologik - metodologiyaga tegishli, nazariy asoslanish.

Metodologiya - bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot. Biror fanda qo'llanadigan metodlar majmuasi.

Motiv - odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Nazorat (ta'lim jarayonida) - ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha "estezio" go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila - kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar - ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi - ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oligofreniya (yunoncha "olygos" - kam, "phren" - aql) – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oliy ta'lim - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim - jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim - kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tayanch doktorantura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Oraliq nazorat - o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Oliy ma‘lumot darajasi - shaxs tomonidan oliy ta‘limning muayyan ta‘lim dasturini mazkur ma‘lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o‘zlashtirishi natijasi.

Oliy ma‘lumot haqida davlat hujjati (diplom) – akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ulaming oliy ta‘limning ta‘lim das turlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat na‘munasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta‘lim - uzluksiz ta‘limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Oliy ta‘lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori - oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta‘limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti - ta‘limning bakalavriat muayyan yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo‘yiladigan malaka talablari, ta‘lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan me‘yoriy hujjat

Pedagogika (yunoncha “paidagogike” bo‘lib, “paidagogos” - bola, yetaklayman) - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta‘lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Pedagogika tarixi - ta‘lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari - shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat - bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogik paradigma (yunoncha “paradeigma” - misol, namuna)

- pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning kontseptual modeli.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi - o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatuvchi to'garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat - ta'lim-tarbiya jarayoniga. ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha "surdus" - kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil - (yunoncha "principium") - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)

lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha "metodos" - yo'l) - tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur - (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashhis - didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta'lim - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim va tarbiya mazmuni - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta'lim jarayoni - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim menejeri - ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta'lim metodlari - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim muassasi ustavi - ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan "conceptio" - tizim) - ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim mazmuni - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitida muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'limni boshqarish - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim tizimi - davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Ta'lim shakli - ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Tiflopedagogika - (yunoncha typhlos - ko'r) - ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya) ning muhim sohasi.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish - o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

Taktika - bosh maqsad yo'lida xususiy, oraliq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli. Pirovardida strategik maqsadlarga ko'proq samara bilan erishishni ta'minlash uchun sharoitning o'zgarishlarini mos ravishda hisobga olish.

Tafakkur operatsiyalari - qiyoslash, tahlil, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash.

Ta'lim dasturi - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'limning jamoa usuli (jamoat ta'limi) - o'quvchilarning bir-birini o'qitish shakli. Har bir o'quvchiga yangi dars mavzusi bo'yicha bir varaqdan kam bo'lmagan hajmdagi ilmiy matn yoki maqolani qayta so'zlab berish va hamma savollarga javob bera olish darajasida o'rganish topshiriladi. Har bir o'quvchi navbatma navbat bir necha o'quvchi bilan bittadan abzatsni, misolni, savolni o'zaro muhokama qilib, o'zlashtiradi. So'ngra kichik guruh yoki butun sinf oldida so'zlab beradilar va o'qituvchining savollariga

javob qaytaradilar, yozma bayon qilishlari ham mumkin. Bu usulni qo'llash jarayonida yakka va guruhli ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

Ta'lim metodi - o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

Ta'lim sifatini nazorat qilish - o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Texnolog - biror texnologiya mutaxassisi.

Texnologiya - biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan yo'llar, usullar majmuasi.

Trener - ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trening mashg'ulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

Trening - ma'lum yo'nalishda ta'lim olish, mashqlar bajarish bo'yicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

Tushuncha - narsa va hodisalar, ularning xossalari, ular orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi fikrlar.

Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Umumiy o'rta ta'lim - o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Uslub - biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

Usul - biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi - fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Faollik - biror maqsad yo'lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ulaming mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lim - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash boraşida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari,

turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ulaming badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E'tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

Evristik - yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan o'qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim metodi; o'quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkumi rivojlantiradi.

Eksklyuziv - g'ayri oddiy, faqat ma'lum bir obyektga taalluqli, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar va boshqa belgilar. Faqat o'ziga berilgan (huquq).

Empirik - hissiy tajriba asosidagi bilimlar va ulaming yagona manbaini hissiy tajriba deb tushunish.

Yakuniy nazorat - ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Yakka ta'lim - ikki xil shaklda bo'ladi: 1) bir o'quvchini bir o'qituvchi o'qitishi - ta'limning juft shakli; 2) mustaqil ta'lim olish - ta'limning yakka shakli.

Yakunlovchi davlat attestatsiyasi - bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv ishi

yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

O'z-o'zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini

tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash - shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat jarayoni.

O'zlashtirish - ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'rgatish - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'qituvchi (pedagog) - pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'qish - ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

O'quv dasturi - muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzulami o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzulaning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv rejasi - ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.

O'quv fani - ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha

umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalami shakllantirishni ta'minlovchi manba.

O'quvchilar jamoasi - ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi - o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O'quv qo'llanmasi - 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

O'zlashtirish - tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'nomazmuni,

undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi.

O'rganish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'qitish sifatini nazorat qilish - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash.

O'qitishning me'yoriy muddati - ta'lim oluvchilar tomonidan ta'lim dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O'quv yili - oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini vakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan. 2014-2015 o'quv yili.

O'quv fanlari bloki - ta'lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

O'quv semestri - oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya - o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Huquqiy madaniyat - shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Hamijodkorlik - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi.

Hamkorlik pedagogikasi (hamkorlik pedagogik texnologiyasi) - ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - T., 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Toshkent sh., 2017 yil 20 aprel
5. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
6. Abdullayeva. SH., Ahatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.
7. Абдуллаева Ш., Асқаров А. Умумий педагогика. Нопедагогик олий таълим муассасалари учун ўқув қўлланма. -Т: Фан ва ахборот технологиялари, 2019. -280 б.
8. Alexander R. Essays on pedagogy. – Routledge, 2013.
9. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
10. Asqarova O‘.M., Hayitboev M., Nishonov S. – T.: Talqin, 2008.
11. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent. 2001. 11-bet.
12. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
13. адмаев, Б.Ц. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Б.Ц. Бадмаев. – М.: Владос, 2001. – 304 с.
14. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, педагогика 1999
15. Benjamin L. D. A Brief History of the Psychology Course in American High Schools // American Psychologist. — 2001. — November. — P. 951-960.

16. Bristol, A. S., & Gillis, J. M. Recent developments in high school psychology education: An extension of Hakala (1999). Teaching of Psychology, 2001. - 28, p. 62-64.
17. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. –B.: Durдона, 2019
18. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
19. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N.. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya", 2009, 464-bet
20. Hasanboev J., To'raqulov X.A., Alqarov I., Usmonov N.O'., Is'yanov R.G., Юзликаев F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika): Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. - 420 b.
21. Ibragimov X.I. Pedagogika-psixologiya – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007
22. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
23. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.
24. Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 480 b.
25. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T.: TDPU, 2006.
26. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya / Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: " Fan van texnologiyalar", 2007.– 176 b.
27. Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. –М.; «Знание», 14-15-ст.
28. Лихачев Б. Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2003.
29. Ляудис В. Я. Методика преподавания психологии. — М.: Изд-во МГУ, 1989.
30. Мавлонова Р. ва бошкалар. Умумий педагогика//дарслик. -Т.: 2016 й. -538 б.
31. Махмутов М. И. Современный урок. — 2-е изд. — М., 1985.
32. Маҳкамов У.И., Хо'jayев В.Қ., Тилабова Н., Didaktika vositalar majmui. Toshkent 2009

33. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
34. Mirsolieva M., Pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi – T.: Fan va texnologiyalar, 2011.
35. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995.
36. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
37. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
38. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum
39. Nishonova S., Imomova M., Xasanov R.. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O'qituvchi 1996-yil
40. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
41. Ochilov M., Ochilov N. Oliy maktab pedagogikasi (darslik) –T. "Aloqachi", 2008.
42. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.
43. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 7-bet,
44. Omonov X., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
45. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi) oily o'quv yurtlari uchun darslik. J. Hasanboyev va boshqalar Toshkent: "Nashr" 2011
46. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi): o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani bakalavriat yo'nalishi uchun darslik (M.X Taxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Xasanboyev, va boshqalar) –Toshkent, 2010
47. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at / Tuzuvchilar: M.G.Davletshin va boshq. Mas'ul muharrir M.G.Davletshin. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1998. – 46 b.
48. Pedagogika fanidan izohli lug'at / Tuzuvchilar J.Hasanboev va boshq. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009. – 671 b.
49. Пидкасистый И.П. Педагогика. – Ростов-на-Дону.: Педагогика, 2003.
50. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.

51. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / OO'Yu uchun o'quv qo'll.
52. Quronov M. , Qurboniyozova Z. Ijtimoiy pedagogika. T., «Universitet», 1994, 42-b.
53. R.A.Mavlonova, D. Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.: Fan va texnologiya 2012-yil
54. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat J- T.: INNOVATSJYA-ZIYO, 2019
55. Roziqov O. va boshqalar "Didaktika" darsligi –T.: UzR F A "Fan", 1997
56. Roziqov O.R., Adizov B.R., Najmiddinova G.N. Umumiy didaktika. –T.: 2012
57. Saidahmedovning N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariya va amaliyot. –T.: "Moliya" nashriyoti, 2003
58. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
59. Xarlamov I.F. Pedagogika. – M.: Gardariki, 2005.
60. Xo'jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.
61. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. - T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
62. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.
63. Ziyomuxammedov B. Pedagogika. – T.: Turon-Iqbol, 2006.
64. Zunnunov A, Maxkamboyev U, Didaktika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.-T.: "sharq" 2006
65. Egamberdieva N., Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKNT.: 2009-yil.
- 66.
67. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000. – 80 b.
68. Ochilov M.. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.: O'qituvchi. 2004-yil
69. Пидкасистый И.П. Педагогика. – Ростов-на-Дону.: Педагогика, 2003.
70. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
71. Расулев А. А., Хайдаров М. М. Ўқитишнинг интерфаол методлари: Ўқув-услугий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.– 47 б.

72. Рахимов О.Д., Мустафаев Қ.О., Н.И.Зоиров Масофавий таълимнинг дидактик таъминоти. Ўқув кўлланма. Қарши-2012й
73. Селевко Т.К. Современный образовательный технология - М ; “Народный образовани“ , 1998
74. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теории и методика. – М.: Академия, 2000.
75. Слостенин В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – М.: Академия, 2005.
76. Слостенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.
77. Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб. пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с.
78. Столяренко Л.Д. Общая педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс,
79. Умарова М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. - Т.: “Издательско-полиграфический дом имени Чулпана”, 2018 г.. - 348 б.
80. Харламов И.Ф. Педагогика: учеб. пос. 2- изд Высшая школа, 1990, 194-195-ст
81. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика. Дарслик.-Тошкент, “Sano-standart”, 2017 й.434 б.
82. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет
83. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исъянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

MUNDARIJA

KIRISH
I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI
1.5 O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar
1.2 O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
1.3 Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari
1.4 Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi
II-BOB. PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, TADQIQOT METODLARI
2.8 Pedagogika - ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning obykti, predmeti, maqsad va vazifalari
2.9 Pedagogikaning asosiy kategoriyalari
2.10 Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi
2.11 Pedagogik tadqiqot metodlarining o‘ziga xosligi.
2.12 Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi
2.13 O‘zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishi
2.7 Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari
III-BOB. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI
3.1 Induvid va shaxs tushunchasi
3.2 Shaxs rivohlanishining ijtimoiylashuvi bilan aloqadorligi

3.3 Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o‘rni
3.4 Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari
IV-BOB. TA’LIM JARAYONINING MOHIYATI
4.1 “Didaktika” tushunchasining mohiyati
4.2 Didaktikaning asosiy tushunchalari
4.3 Ta’lim paradigmalari. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim
4.4 Ta’limning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, ularning bog‘liqligi
4.5 Ta’lim jarayoni mohiyati, qonuniyatlari va prinsiplari
4.6 Ta’lim mazmunini shakllantirish prinsiplari
4.7 Ta’lim mazmunini belgilovchi me‘yoriy hujjatlar
V-BOB. TA’LIMNING TASHKILY SHAKLLARI, METOD VA VOSITALARI
5.1 Ta’limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha.
5.2 Dars - o‘qitishning asosiy tashkiliy shakli
5.3 Darsga qo‘yiladigan talablar. Dars turlari va tuzilishi
5.4 O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning reja-konspekti va texnologik xaritasi.
5.5 Ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari
5.6 “Ta’lim metodlari” tushunchasining mohiyati
5.7 Ta’lim metodlarining tasnifi. Ta’limning zamonaviy vositalari
VI-BOB. KORREKSION PEDAGOGIKA VA INKLYUZIV TA’LIM ASOSLARI
6.1 Korreksion pedagogika - pedagogika fanining tarmog‘i sifatida
6.2 O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish
6.3 Anomal bolalar va ularni klassifikatsiyalash. Inklyuziv ta’lim va uning o‘ziga xosliklari
VII-BOB. TA’LIM MENEJMENTI ASOSLARI
7.1 Ta’lim menejmenti tushunchasi. Ta’lim tizimini boshqarish prinsiplari
7.2 “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim tizimini boshqarish masalalari
7.3 O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy o‘rta ta’lim haqida”gi Nizomi.
7.4 Pedagog kadrlar malakasini oshirish. Pedagog kadrlar attestatsiyasi
7.5 Maktab - pedagogik tizim va boshqarishning ob’yekti sifatida
7.6 Maktabning ichki boshqaruvi, uning tuzilishi va vazifalari

7.7 Pedagogik va metodik Kengash va uning vazifalari
VIII-BOB. PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI
8.1 Pedagogik g'oyalarning rivojlanish bosqichlari
8.2 Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari
8.3 Xalq og'zaki ijodida tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi
8.4 "Avesto" eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik
8.5 Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya taraqqiyoti
8.6 Temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi
8.7 XVII asr va XX asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti
8.8 O'zbekistonda 1917-1990 yillarda ta'lim tizimi va pedagogika
IX-BOB. JAHON PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI
9.1 Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida tarbiya va maktab
9.2 G'arb Uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti
9.3 Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi
X-BOB. PEDAGOGIK JARAYONDA TARBIYANING MAZMUNI
10.1 Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati
10.2 Tarbiyaning maqsadi va vazifalari
10.3 Tarbiya jarayonining asosiy tushunchalari (o'z-o'zini tarbiya, qayta tarbiya)
10.4 Tarbiya jarayoni qonuniyatlari
10.5 Tarbiya jarayonining mazmuni
10.6 Tarbiya tamoyillari
GLOSSARIY
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI